

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo'l yozma huquqida

UDK: 809.437.5-3

BBK:81.2-3(5)

A-15

ABDUHAMIDOVA DILAFRUZ ABDUHABIROVNA

**O'ZBEK VA YAPON TILLARIDA QARINDOSH-URUG'CHILIK
BILAN BOG'LIQ LEKSIKANING QIYOSIY TADQIQI
(OTA, ONA, BOBO, BUVI BIRLIKLARI MISOLIDA)**

5A120102 – Lingvistika (yapon tili)

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar: f.f.n.dots. Omonov Q.

Toshkent 2013

MUNDARIJA

Kirish	3~10
I Bob. O'zbek va yapon tillarida "ota" so'zining leksik-semantik va funksional qiyosiy tahlili	11~38
1.1. O'zbek va yapon tillarida qarindosh – urug'chilikkka oid ikki xalq qarashlari va terminlarga umumiy tavsif	11
1.2. "Ota" leksimasining o'zbek va yapon tillaridagi leksik-semantik xususiyatlari.....	16
1.3. "Ota" so'zining o'zbek va yapon tillaridagi ko'chma ma'nolari va qo'llanilishi.....	29
I bob bo'yicha xulosalar	37
II Bob. "Ona" so'zining o'zbek va yapon tillaridagi leksik, semantik va funksiyaviy xususiyatlari tahlili	39~71
2.1. O'zbek va yapon tillarida "ona" leksimasi va uning leksik-semantik xususiyatlari.....	39
2.2. "Ona" birligining o'zbek va yapon tillaridagi ko'chma ma'nolari va qo'llanilishidagi o'ziga xosliklar	62
II bob bo'yicha xulosalar	69
III Bob. O'zbek va yapon tillarida "bobo" va "buvi" atamalarining leksik-semantik va funksional xususiyatlari tahlili	72~87
3.1 "Bobo" leksimasining leksik-semantik, qo'llanuv xususiyatlari.....	72
3.2. O'zbek va yapon tillarida "buvi" atamasining leksik-semantik, funksional tahlili.....	81
III bob bo'yicha xulosalar	86
Umumiy xulosalar	88
Adabiyotlar ro'yxati.....	92
Ilova.....	99

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda mamlakatimizda yuz berayotgan tub burilishlar jamiyatning turli sohalariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. 2012-yilning Yurtboshimiz tomonidan "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilinishi hamda shuning davomi sifatida 2013-yilning "Obod turmush yili" deb e'lon qilinishi xalqimizda oilaviy munosabatlarning, qavm-qarindoshchilikning qanchalik darajada qadrlanishini ko'rsatmoqda. Azal-azaldan millatimiz oilani muqaddas sanab kelgan. I. Karimov o'zining "Mustahkam oila yili"ga bag'ishlangan nutqida bu yorug' olamda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, hayot abadiyligi, bebaho ne'mat bo'lmish farzand bor, farzand bor ekan odamzot hamisha kelajagini o'ylab, ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi."¹, deb ta'kidlagan edi.Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon-e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq va madaniyat ko'nikmalari shakllanadi. Zero, har bir fuqaro oilaning jamiyatdagi o'rni va vazifasini, Vatanning ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, o'zini mukammal inson deb his qila olmaydi. Shu boisdan bo'lsa kerak oiladagi ota-ona, aka-uka, qarindosh-urug'ga hurmat-izzat, oqibat kabi munosabatlar hozirgacha xalqimizda saqlanib qolgan.

"Yaponiya haqida gapirar ekanmiz, - deydi Islom Karimov, - ko'z oldimizga gullab – yashnayotgan davlat gavdalanadi, qaysiki, o'zining ulkan iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy-tehnika va siyosiy yutuqlari bilan nafaqat Osiyoda, balki butun jahon miqyosida alohida o'rin egallaydi".² Globalshuv jarayonida turli sohalarida shiddat bilan rivojlanib borayotgan o'zgacha taraqqiyot maskani Yaponiya bilan mamlakatimiz o'rtasidagi do'stona aloqalar mustaqillikdan keyin ancha yuqori pog'onalarga ko'tarilganini e'tirof etish lozim.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlangan tantanada so'zlagan nutqi O'z.Milliy Axborot Agentligi, 08.12.2011

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Vaseda Universitetida so'zlagan nutqi Tokio 2002-yil 30-iyul.

Davlat mustaqilligini qo'lga kiritish natijasida O'zbekiston uchun iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning, madaniy va ma'naviy yangilanishning keng istiqbollari ochildi. Ta'lim sohasi haqida gapirganda, ta'kidlash joizki, O'zbekistonda nemis, ingliz, arab, xitoy kabi bir qancha tillar bilan bir qatorda yapon tiliga bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda.³ Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy aloqalarning kun sayin rivojlanib borayotganligi mamlakatimizda yapon tilini, tarixi, madaniyati, adabiyoti, iqtisodiyotini o'rganishga bo'lgan qiziqishni yanada ortishiga sabab bo'ldi. Ayni kunlarda yapon tilini o'rganuvchilar sonining ortganligi tilni o'rganibgina qolmay, yapon tilida turli sohalarga oid ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqazo etmoqda. Katta yettilik davlatlari safiga kiruvchi ushbu rivojlangan davlat qanchalik ilgari ketgan bo'lmasin, o'z millatining milliy urf-odatlarini, an'analarini haligacha asrab, e'zozlab keladi. Yapon xalqida ham oilaviy munosabatlar qadrlanadi. Yaponlar sermulozamat xalq hisoblanadi. Bu xalqda ham o'zbek xalqi singari kattaga behat hurmat, kichikka esa izzatda bo'lish qon-qarindoshlik an'analari qadim-qadimdan shakllangan. Bundan ko'rinib turibdiki ikki xalq mintaliteti, madaniy dunyoqarashida o'xshashliklar talaygina.

O'zbek va yapon tillarining bitta - Oltoy tillar oilasiga kirishi barchamizga ayon. O'zbek tili ushbu oilaning turkiy guruhiga kirsa, yapon tili alohida guruh sifatida kiritilgan.

Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan boshlab o'zini dunyoga keltirgan shaxslarni hamda o'z atrofidagi insonlarni nomlash ehtiyoji birinchilardan bo'lib paydo bo'lgan. Natijada tilda qarindosh-urug'chilik bilan bog'liq yirik leksik qatlam yuzaga keldi. Shu jihatdan mazkur leksik qatlam tilning eng qadimgi va dastlabki so'z qatlamlaridan biri sanaladi.

Tilshunoslik o'z ichiga juda ko'p masalalarni oladi. Jumladan, o'zbek va yapon tillaridagi qavm-qarindoshlik terminlari bo'lib, o'zbek va yapon (o'zbek va yapon tili bir-biriga unchalik yaqin bo'lmasa-da, bu ikki millat tilida boshqa

³I.A.Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" T.: O'zbekiston 1995-y. B.8

masalalar bilan bir qatorda, biz tekshirmoqchi bo'lgan masalada ham ko'p tomondan bir-biriga o'xshash va bir-biridan farq qiladigan, yaqinlik va bir xillik xususiyatlari ham mavjud) tillarida bu sohada hali birorta ham jiddiyroq ish qilingani yo'q. Vaholanki, terminlarning bu guruhi til asosiy lug'at fondining eng qadimgi belgilaridan biri hisoblanadi. Zotan, Prezidentimiz I.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida ta'kidlaganidek hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani, qavm-qarindoshlik munosabatlarini mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki vazifamiz, balki insoniy burchimizdir.⁴ Bu nasabdoshlik terminlari tizimining juda uzoq vaqtlargacha o'zgarmay qolishini ko'rsatib o'tadi.

Qarindosh-urug'chilik birliklarining aksar qismi har bir tilning tub so'zlaridan ekanligi ko'rinmoqda. Qarindosh-urug'chilik so'zlarining katta qismi ayniqsa, ona, ota, bobo, buvi terminlari lingvokulturalogiyada alohida konsept(har bir so'zning ortida bir necha xil ma'no yotishi) sanaladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Slavyan, hind-yevropa tillaridagi qavm-qarindoshlik terminlarini tilshunoslik nuqtai-nazaridan tekshirish ishlari o'tgan asrning o'rtalarida boshlandi.⁵Uzoq Sharq mamlakatlarida ham bu kabi tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan xitoy, koreys hamda yapon tillarida qarindosh – urug'chilikka oid bir qancha tekshiruvlar o'tkazilgan.

2- jahon urushidan keyingi Yaponiyada oilaviy munosabatlar birmuncha o'zgardi, bu jamiyat hayotida o'z aksini topib yangi tadqiqotlar yaratilishiga turtki bo'ldi. 1970-yilda qondoshlik aloqalaridan er-xotinlik aloqalari sistemasiga deb hisoblanib oilaviy munosabatlarning o'zgaruvi kuzatildi. Shu sabab 1972-yilda Morioka Kiyomining "Oilaviy munosabatlarning o'zgarishi"deb nomlangan kitobi, Hirano Toshimasuning 『親族関係の分析視

⁴ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" T.: "O'zbekiston" 2008. B.45

⁵Лавровский Р, "Коренное значение в названиях родства у славян"Зап.ИАН,1867.

点』⁶ “Qarindosh-urug'chilikning tadqiqoti nuqtai-nazaridan” deb nomlangan tadqiqotida qarindosh-urug'chilikka asosan sotsial-antropologik, etnografik jihatdan e'tibor qaratib yozilgan bo'lib, asosan ota-bola munosabatlariga urg'u berilgan. Keyinchalik 1985-yilda oilaviy munosabatlarning yangi ko'rinishi er-xotinlik oilaviy munosabatlari haqidagi Rakugo Emikoning “Zamonaviy oilaning tug'ilishi va yakuni”⁷ deb nomlangan tadqiqoti chop etildi. Sugimura Shinichiro, Tanaka Shyunyalarining “Qavm-qarindoshlik munosabatlarining psixologik anglashga doir tadqiqot”⁸ da qarindoshlik terminlarining insonlar tomonidan ruhiy anglanishi shu qavm-qarindoshlarning har birida har xil kechishi ko'rsatib berilgan. Ya'ni ota-ona, aka-uka kabi terminlarning atab chaqirilish jarayonidagi insonlar ruhiyatining qabul qilishining o'ziga xosliklari haqida gap boradi.⁸ Bu tadqiqotda qarindosh-urug'chilikka umumiy ta'rif berilgan bo'lib, lingvistik nuqtai-nazardan ko'rib chiqilmagan.

Yana Rakugo Emikoning 1994-yilda yozilgan “XXI asr oilasiga”⁹ nomli ilmiy ishi, Terajima Hirokoning 「京都町家における親族語彙」¹⁰ nomli Kyoto shahrida qo'llaniluvchi qarindosh-urug'chilik terminlariga bag'ishlangan tadqiqi, Kusada Hisako va Yukiko Yamadaning 1995～1998 – yillar mobaynida yozilgan 「家族関係単純図式投影法の基礎的研究」¹¹ tadqiqoti, Kameguchi Kenjining¹² oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan tadqiqoti diqqatga sazovordir. Ushbu tadqiqotlarda oilaviy munosabatlarga, qarindosh–urug'chilik aloqalariga

⁶ 平野敏政（1974）「親族関係の分析視点」、東京大学出版会、p.60–68

⁷ 落合恵美子（1985）「近代家族の誕生と終焉」『現代思想』13-6、

⁸ 大野木 裕命、杉村伸一郎、田中俊也（1991）「親族関係の心理学的認知に関する探索研究」

⁹ 落合恵美子（1994）『二一世紀家族へ』有斐閣、

¹⁰ 寺島浩子（1995）「京都町家における親族語彙」「日本語研究」株式会社明治書院

¹¹ 草田寿子・山田裕紀子（1998）「家族関係単純図式投影法の基礎的研究VI – 夫婦間の心理的距離に対する認知のズレと家族コミュニケーションとの関連 –」p.10-18

¹² 亀口憲治（1997）家族の問題 人文書院

sotsiologik jihatdan yondashilgan. Nisbatan yangi ma'lumot, axborotlarni o'z ichiga olgan Kato Akixikoning 2003-yilda chiqarilgan "Oilaviy munosabatlar o'zgaruvining sotsiologik tadqiqoti"¹³ urushdan keyingi yapon oilaviy hayotining qay darajada o'zgargani, qon-qarinindoshlik aloqalarining saqlab qolishni qo'llab-quvvatlanishi, birgalikda yashovchi oilalarning ko'payib borayotganligi haqida bir qancha ma'lumotlar berilgan. 2008-yildan to 2012-yilga qadar o'z tadqiqotini olib borayotgan Hirai Akikoning "Er-xotinlik oilaviy jamiyati-Angliya, qondoshlik oilaviy jamiyati-Yaponiyaning qavm-qarindoshlik munosabatlariga oid qiyosiy tadqiqoti"¹⁴ yapon millatining oilaviy munosabatlari bilan ingliz xalqining jamiyatidagi qarindoshlik munosabatlarining qiyoslanishiga bag'ishlangan.

Turkiy tillar bo'yicha qilingan dastlabki ishlar turkiy tillar guruhiga kiruvchi biror xalqning tarixini uning etnografik xususiyatlarini tekshirish bilan bog'lab, qavm- qarindoshchilik terminlari ustida yo'l-yo'lakay to'xtalib o'tilgan xolos.¹⁵ Turkologiyada qavm-qarindoshlik terminlarini tilshunoslik nuqtai-nazaridan tekshirish ishlari ancha oldin boshlangan bo'lib, bir necha turkiy tillardagi qavm-qarindoshlik terminlarini, o'zbek tili bilan qiyos qilish yo'li orqali tekshirib chiqqanlar.¹⁶

O'zbek tilshunosligida bu masala to'g'risida qisman gapiriladi. Lekin qavm-qarindoshlikni anglatuvchi ota, ona, o'g'il, qiz, nabira kabi qon-qarindoshlik terminlarigina leksikologiya tarixi bilan bog'lab tekshiriladi va misol tariqasida ko'rsatib o'tiladi.¹⁷ O'zbek tilshunosligida keyingi vaqtlarda yaratilgan ilmiy ishlardan biri B.O'rinboevning¹⁸ qavm-qarindoshlik

¹³加藤彰彦 (2003) 「家族変動の社会学的研究」博士学位論文 (早稲田大学)

¹⁴ 平井晶子 (2008) 「日英親族関係の比較研究」神戸大学文学部

¹⁵ Дыренкова Н.П. "Брак термини родства и психические запреты у киргизов" сб. Этнографических материалов, под. Ред. проф. Богораза-тана, №2, Л., 1927. Стр. 7-25;
Задыхина К.Л., Узбеки дельты Аму-Дарьи см. труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции;

Покровская Л.А., Термины родства в тюркских языках. М., изд. АН СССР 1961.

¹⁶ Бурнашева С.А. Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков, IV, лексике, М., 1962.

¹⁷ Mutallibov S.M. "Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk" Toshkent, 1959-yil.

¹⁸ Уринбаев Б., Категория вотивности в современном узбекском языке, Автореферат канд.дисс., Самарканд, 1964 йил.

terminlarining bir tomonlama xususiyatini, ya'ni undov, murojaatni anglatuvchi so'zlar qatoridagi formasinigina tekshirishga bag'ishlangan asaridir. Biroq, 1966-yilda yaratilgan I. Ismoilov¹⁹ ning "Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari" asari o'zbek tilshunosligida katta burilish qildi desak mubolag'a bo'lmaydi. U asarda o'zining tekshiruvini turkiy tillar – uyg'ur, qozoq, qoraqalpoq, turkman tillarni o'zbek tilidagi qarindoshlik terminlari bilan qiyoslab olib borgan. Bu asarda qavm-qarindoshlik terminlarining ma'no xususiyatlari keng yoritib berilgan.

Ma'lumki, har qanday terminlar shu jumladan, qavm-qarindoshlik terminlari ham qanchalik turg'un bo'lmasin, zamon o'tishi, jamiyatning o'zgarishi, oila, nikoh formalarining yangi shakllari va ular o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi bilan ishlatilib kelinayotgan qavm-qarindoshlik terminlarining ma'no doirasi ham kengayadi, yangi turlari paydo bo'ladi.

O'zbek va yapon tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari birdan paydo bo'lgan emas, albatta. U o'ziga xos tarixiy bosqichlarni bosib o'tib, hozirgi ahvolga kelgan. Hozirgi tilda qo'llanilayotgan har bir termin paydo bo'lgan vaqti jihatidan ham, turli funksiyalarda qo'llanilishi va har xil o'zgarish va yangiliklarni qabul qilish jihatidan ham o'ziga xos tarixga egadir.

O'zbek va yapon tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari hozirgi holga kelguncha ko'p davrlarni va turli bosqichlarni bosib o'tdi. O'zbek va yapon tili murakkab sharoitda shakllandi va unung lug'at tarkibi, shu jumladan qavm-qarindoshlik terminlari ham boshqa tillarning leksik elementlarini- terminlarini o'z ichiga olgan holda rivojlandi.

Ismoilovning yozishicha, qavm-qarindoshlik terminlari va nomlarini tilshunoslik nuqtai-nazaridan asosan ikki yo'l bilan: 1) terminlar va nomlarning kelib chiqishi va taraqqiyoti; 2) terminlar va nomlarning hozirgi ahvoli, ko'rinishi, leksik, grammatik xususiyatlari va ularning ma'no doiralari nuqtai-nazaridan tekshirish mumkin. Bunday tekshirishlarning birinchisi juda murakkab bo'lib, tarixchilar, etnograflar va tilchilarning hamkorlikda ish olib

¹⁹ Исmoilов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В.

borishlarini talab etadi. Biz ham ushbu tadqiqotimizda ikkinchi yo'ldan borimoqchimiz, ya'ni hozirgi zamon o'zbek va yapon tillari materiallari asosida qavm-qarindoshlik terminlarining bugungi ahvolini, uning leksik, grammatik xususiyatlarini ma'no doiralarini yoritib bermoqchimiz.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ushbu tadqiqotda o'zbek va yapon tillaridagi qarindosh-urug'chilik bilan bog'liq leksik birliklarni qiyosiy jihatdan o'rganish maqsad etib belgilangan. Har ikki tildagi qarindosh-urug'chilik bilan bog'liq leksik birliklar nihoyatda boy va rang-barang bo'lganligi va ularni bir tadqiqot doirasida tekshirishning imkoni chegaralanganligi bois ishda qarindosh-urug'chilik bilan bog'liq asosiy birliklar - “ota”, “ona”, “bobo”, “buvi” so'zlari qiyosiy jihatdan tahlil etildi.

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

1. O'zbek va yapon tillarida “ota” so'zini leksik, semantik, funksional jihatdan qiyosiy tahlil qilish
2. “Ona” leksimasining leksik, semantik, funksional jihatdan ikki tilda qiyosiy tadqiq qilish.
3. “Bobo” terminini o'zbek va yapon tillaridagi ma'no xususiyatlarini, qo'llanilish doiralarini qiyosiy o'rganish.
4. “Buvi” terminini ikki tildagi semantik-funksiyaviy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti va predmeti. Ishning obykti qarindosh-urug'chilik terminlari bo'lib hisoblansa, “ota”, “ona”, “bobo”, “buvi” terminlarini o'zbek va yapon tillarida qiyosiy o'rganilganlik natijasidagi o'xshashlik va farqli jihatlar tadqiqot predmeti etib belgilandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Yuqorida ta'kidlanganidek, qarindosh-urug'chilik terminlarining turli xil xususiyatlari borasida yapon va dunyo tilshunoslari tomonidan, ayniqsa sotsiolingvistik va lingvokulturalogik jihatdan ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. Ammo qarindosh-urug'chilik terminlarini aynan tilshunoslik nuqtai-nazaridan o'rganilgan ishlar juda kam miqdorda

ekanligini kuzatdik. Ayniqsa qarindosh-urug'chilik terminlarini o'zbek va yapon tillaridagi qiyosiy tadqiqi nafaqat O'zbekiston miqiyosida, balki dunyo miqiyosida ham ilk bor o'rganilmoqda. Birinchi bor o'zbek tilshunoslari uchun "ota", "ona", "bobo", "buvi" kabi terminlarining o'zbek va yapon tillaridagi turli xil ma'no qirralari, ishlatilish o'rinlari ochib berilmoqda. Jumladan ishda "ota"termini ikki tilda qiyoslanib, o'xshash va farqli jihatlar topildi, "ona"termini ham ikki tilda o'z va ko'chma ma'nolari, ishlatilish doiralari solishtirilib o'xshashlik va tafovutlar aniqlandi. "Bobo, buvi" terminlari ham o'zbek va yapon tillarida ma'no xususiyatlari jihatdan qiyosiy o'rganildi.

Tadqiqotning metodologik bazasi. Ishda tadqiqotning ilg'or metodlari tavsifiy, qiyosiy, solishtirma metodlardan foydalanildi. Ishni yozish jarayonida dunyo va o'zbek sharqshunosligida qo'llangan ilg'or usullar va ilmiy tadqiqotlar nazariy baza bo'lib xizmat qildi. Ilmiy izlanishda asosiy manba sifatida yapon va o'zbek tilshunos olimlarining qarindosh-urug'chilik terminlariga oid asarlari, ilmiy ishlari, ayniqsa tarjima, lingvistik va terminlar izohli lug'atlari, ieroglif kelib chiqish tarixi lug'atlari hamda muallifning shaxsiy kuzatuv-tahlillari xizmat qildi. Ishda yapon olimlaridan Morioka Kiyomi, Kato Akixiko, Hirai Akiko, Hirano Toshimasu, Rakugo Emiko, Sugimura Shinichiro, Tanaka Shyunyalarining, o'zbek olimlaridan I.Ismoilov, B.O'rinboevlarning ilmiy ishlaridan foydalanildi va ularning tahlil usullariga asoslanildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur ilmiy ishning natijalari O'zbekistonda yapon tilini o'rganayotgan talabalar va izlanuvchilar o'zbek va yapon tillarini qiyosiy tadqiq qilayotgan yapon tilshunoslari uchun o'quv va tadqiqot manbai bo'la oladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida yig'ilgan va amaliy jihatdan o'rganilgan hamda qiyosiy tadqiq qilingan o'zbek va yapon tillaridagi qarindosh-urug'chilik terminlari - ota, ona, bobo, buvi solishtirma tahlili hamda ish natijalari nazariy tilshunoslik uchun ham ahamiyatlidir.

Ishning tuzilishi. Mazkur ilmiy ish kirish, uch bob, o'nta paragraf, har bir bob so'ngida xulosalar, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

Mazkur ilmiy ishda misollar raqamlanmagan ketma-ketlikda yapon va o'zbek tillarida beriladi. Yapon tilidagi misollar yapon yozuvi yordamida, o'qilishi esa tagidan o'zbek tili lotin alifbosi yordamida, hamda ma'nolari, ya'ni o'zbek tilidagi tarjimasi keyingi qatordan o'zbek tili lotin alifbosida beriladi.

I BOB. O'ZBEK VA YAPON TILLARIDA “OTA” SO'ZINING LEKSIK, SEMANTIK, FUNKSIONAL QIYOSIY TAHLILI.

1.1. O'zbek va yapon tillarida qarindosh – urug'chilikkka oid ikki xalq qarashlari va terminlarga umumiy tavsif

O'zbek va yapon tillarining bitta- Oltoy tillar oilasiga kirishi barchamizga ayon. O'zbek tili ushbu oilaning turkiy guruhiga kirsa, yapon tili alohida guruh sifatida kiritilgan. Hozirgi zamon o'zbek tilidagi qavm-qarindoshlik munosabatini bildiruvchi *farzand,ota, ona, amaki,ini, uka, aka, singil, opa, og'a, amma, tog'a, pochcha, o'g'il, qiz, nevara, xola, bobo, buvi* kabi so'zlarning ma'no ko'rinishlari bir umumiy Leksik-semantik guruhni tashkil qiladi²⁰. Ismoilov yozishicha, o'zbek tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari o'zlarining kelib chiqishi va ma'nosiga ko'ra asosan uch katta Leksik-semantik guruhga bo'lib o'rganilmoqda:

1. Qon-qarindoshlik terminlari
2. Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik terminlari
3. Yaqinlik nomlari

²⁰ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 10-11

1. Qon-qarindoshlik terminlariga o'zbek tilida *ona, ota, aka, uka, tog'a, xola, buva (bobo), buvi, amma, nevara (nabira)* kabi ma'nolarni ifodalovchi terminlar kiradi.

2. Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik terminlarini *er, xotin, kuyov, kelin, pochcha, boja, ovsin, qayin ona, qayin ota, quda, quda xola, quda buva, o'gay ota, o'gay ona, o'gay bola, o'gay o'g'il, o'gay qiz* singari terminlar tashkil etadi.

3. Yaqinlik nomlari deb atalgan bu guruhga kiruvchi terminlar yuqoridagi ikki guruhga mansub terminlar oldidan "*tutingan*" so'zini va egalik qo'shimchalarini keltirish bilan hosil qilinadi: *tutingan ota+m, tutingan ona+m, tutingan qiz+im, tutingan o'li+m, tutingan aka+m, tutingan uka+m, tutingan opa+m, tutingan singli+m, tutingan kuyov+im, tutingan kelin+im, tutingan tog'a+m, tutingan amma+m* kabilar.²¹

Yapon tilida qavm-qarindoshlik deganda, qondoshlik munosabatlari hamda nikoh rishtalari bilan bog'lanuvchi insonlarning aloqalari tushuniladi. Yapon tilida qon-qarindoshlik munosabatlari ikkiga bo'linadi:

1. Tug'ishgan qondoshlik aloqalari;
2. Qonuniy qondoshlik aloqalari

Tug'ishgan qondoshlik aloqalari avloddan avlodga o'tib kelayotgan qavm-qarindoshlik shajarasini hamda uzoq qarindoshlik aloqalarini anglatadi.

Qonuniy qondoshlik aloqalari esa yuridik qonunning qoidalariga asoslanib o'rnatilgan munosabatlar demakdir. Yaponiyaning hozirgi kundagi Fuqarolik Kodeksiga muvofiq qonuniy nikohda asrab olingan bola ham qonuniy qarindosh hisoblanadi.²²

Yapon tilida ham qondosh bo'lmagan qarindoshlik aloqalari mavjud. Bu o'zbek tilidagi yaqinlik nomlariga to'g'ri keladi. Bunda er tomondan qaraganda, xotinning qavm-qarindoshlariga nisbatan hamda, qonuniy nikohdagi er yoki xotinning asrandi bolasi bilan turmush qurilganda, asrab olgan ota-ona

²¹ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В.11

²² 「法律上の親族の範囲について」 <http://ja.wikipedia.org/wiki/>

hamda shu asrandi bolaning ota-onasi o'rtasidagi munosabatni ham ushbu qondosh bo'lmagan qarindoshlikka kiritishimiz mumkin.

Nasliy davomiylik asosidagi munosabatlar shajaraviy qarindoshlik aloqalari deb yuritiladi. Shajaraviy qarindoshlik avloddan-avlodga bog'lanib, uzluksiz davom etib kelayotgan nasliy qavm – qarindoshlikdir. Bunday munosabatlarga o'tgan ota-bobolar, ya'ni ajdodlar, ota-ona, farzand, nabira kabilarni kiritishimiz mumkin. Nasliy munosabatlarda nasl asoschisidan uzluksiz alohida qarindoshlik shajarasiga tegishli ikki o'zaro qarindoshlik munosabati **yon shajara**(bir tug'ishmagan qarindosh-urug'lar) deb yuritiladi.²³ Bularga aka-uka, opa-singil, tog'a-xola, amakivachcha, xolavachcha jiyanlarni kiritish mumkin. Qon-qarindoshlik liniyalar ota tomonidan bog'langan bo'lsa – ota tomonidan qarindosh, ona tomonidan qondosh bo'lsa – ona tomonidan qarindosh bo'ladi.

O'zbek tilida qon – qarindoshlik terminlari o'z navbatida shu guruh terminlari bilan birga – ota-ona, ota-bobo, tog'a-jiyan, opa-singil, aka-uka, amma-xola kabi formalarda juftlashib, ko'plik va jamlash ma'nolarini ifodalaydi. Yapon tilida ham bu kabi holat kuzatiladi. Masalan, 祖父母 – *sofubo* – ota-bobo, 親 – *oya* – ota-ona, 母子 – *boshi* – ona-bola, 兄弟 – *kyoudai* – aka-uka, 姉妹 – *shimai* – opa-singil kabilarni keltirish mumkin.²⁴

Yapon tilidagi qarindoshchilik terminlarining o'ziga xos jihati shundaki, - qarindoshchilik munosabatlarini anglatuvchi so'zlarning nutqda ishlatilish vaziyatiga bog'liq holda boshqa tillardan farq qilishidir. Umuman olganda, yapon tilidagi qarindoshchilik terminlari bu xalqning urf-odatlarini hamda mintaliteti haqida juda ko'p narsani anglatadi. Agar o'zbek tilida shaxs o'z buvisiga murojaat qilganda ham, o'z buvisi haqida gapirganda ham, birovning buvisiga murojaat qilganda ham bir xil “buvi”so'zini ishlatsa, yapon tilida esa

²³ Ma'rufov Z.M. “O'zbek tilining izohli lug'ati” I tom, 1981-yil.

²⁴ 「親族語彙研究」 www.hemri21.jp/kenkyusyo/.../h17_01.pdf

qarindoshchilik terminlarining 2 xil variant mavjud. Bu ikki variant **o'z – o'zga**(*naka-soto*)deb bo'linish asosida yuzaga kelgan. Birinchi variant o'z qarindosh-urug'lari haqida gapirganda ishlatilsa, ikkinchisi- suhbatdoshining yoki 3-shaxsning qarindoshlari haqida gapirganda ishlatiladi. Ba'zi hollarda “o'z-o'zga” munosabati unchalik tog'ri emas, chunki ikkinchi variant qarindoshlik terminlari o'zining qarindoshlariga murojaat qilganda ham ishlatilish vaziyatlari mavjud.

Qarindoshchilik terminlarining birinchi varianti(中 *naka*, “*nomuloyim*”)- barcha xushmuomalalik suffiks va prefikslarining yo'qligi bilan farq qiladi, shuning uchun ular unchalik xushmuomala so'zlar sanalmaydi. Bu til ifodasida yaponlar oilani – bir butunlik deb idrok etadilar va tashqi dunyoga nisbatan oila “o'ziniki” sanaladi, shuning uchun ham “o'ziniki”ni maqtash suhbatdoshga nisbatan behurmatlikni bildiradi.

Birinchi variant so'zlovchi o'z oilasi haqida gapirganda ishlatiladi:

母は大学の教師です。Mening onam universitet o'qituvchisi.

姉は学生です。Katta opam – talaba.

Ikkinchi variant -- 外 *soto*, “muloyim” – bu ko'pincha birinchi variant

“*naka*”asosidagi ot olinib , unga xushmuomalalik old qo'shimchalarini お-、ご-

hamda さん -*san*, 様 -*sama* suffikslarini qo'shish orqali yasaladi (お o – *vago* otlari uchun, ご - *kango* otlari uchun).

Terminlarning bu varianti quyidagi hollarda ishlatiladi:

1)So'zlovchi suhbatdosh yoki 3-shaxsning qarindoshlari haqida eslatganda:

お母さんは元気ですか。

O-ka:san-ea genki des ka?

– Onangiz salomatmilar?

田中さんのお父さんは社長です。

Tanaka-san-no oto:san-va syatyō des. –

Tanakaning otasi – firma direktori.

2) Soʻzlovchi oʻzining qarindoshiga murojaat qilganda:

お祖母さん、何をしているの。

O-ba:san, nani-o site iru no? – Buvijon, nima qilyapsiz?

3) ota-onalar nutqida, katta opa, bobo va buvilar kichik bolalar bilan gaplashganda oʻzlarini shunday nomlab taʼkidlaydilar:

お母さんは待ってるから、お帰りなさい。

O-ka:san-va matteru kara, xayaku kaerenasay.

– **Oyim** kutyapti, tezroq qaytib kel.

Quyida hozirgi zamonaviy yapon tilidagi qarindosh-urugʻchilik soʻzlarini koʻrish mumkin:

中 nomuloyim "mening"	外 muloyim "sizning"
----------------------------	---------------------------

家 <i>uchi</i> , ie – “mening uyim”	お宅 <i>o-taku*</i> – Sizning (uning) uyi
家族 <i>kadzoku</i> mening oilam	ご家族 <i>go-kadzoku</i> Sizning (uning) oilangiz
夫 <i>otto</i> 、主人** <i>syudzin</i> mening erim	ご主人 <i>go-syudzin</i> Sizning (uning) turmush o’rtog’i
妻 <i>tsuma</i> , 家内*** <i>kanay</i> mening rafiqam	奥さん*** <i>okusan</i> Sizning (uning) rafiqangiz
両親 <i>ryousin</i> mening ota-onam	ご両親 <i>go-ryousin</i> Sizning (uning) ota-onangiz
父 <i>chichi</i> mening otam	お父さん <i>oto:san</i> Sizning (uning) otangiz
母 <i>xaxa</i> mening onam	お母さん <i>oka:san</i> Sizning (uning) onangiz
子供 <i>kodomo</i> mening farzandim	お子さん <i>o-ko-san</i> , 子供さん <i>kodomo-san</i> Sizning (uning) farzandingiz
娘 <i>musume</i> mening qizim	お嬢さん <i>o-dzyo:san</i> Sizning (uning) qizingiz
息子 <i>musuko</i> mening o’g’lim	息子さん <i>musukosan</i> – Sizning (uning) o’g’lingiz
兄弟 <i>kyouday</i> mening aka-uka, opa-singillarim	ご兄弟 <i>go-kyo:day</i> – Sizning (uning) aka-uka, opa-singillaringiz
兄 **** <i>ani</i> mening katta akam	お兄さん <i>o ni:san</i> Sizning (uning) akangiz
姉 <i>ane</i> mening katta opam	お姉さん <i>one:san</i> Sizning (uning) opangiz
弟 <i>otouto</i> mening kichik ukam	弟さん <i>oto:to-san</i> Sizning (uning) ukangiz
妹 <i>imouto</i> mening kichik singlim	妹さん <i>imo:to-san</i> Sizning (uning) singlingiz
祖父 <i>sofu</i> mening buvam	おじいさん <i>odzi:san</i> *** Sizning (uning) buvangiz
祖母 <i>sobo</i> mening buvim	おばあさん <i>oba:san</i> *** Sizning buvingiz
おじ <i>odzi</i> mening tog’am, amakim	おじさん <i>odzisan</i> ***** Sizning tog’angiz
おば <i>oba</i> mening xolam, ammam	おばさん <i>obasan</i> ***** Sizning (uning) xolangiz
甥 <i>oi</i> mening jiyanim	甥ごさん <i>oigosan</i> Sizning (uning) jiyaningiz
姪 <i>mei</i> mening jiyanim(qiz bola)	姪ごさん <i>meigosan</i> Sizning (uning) jiyaningiz

1.2. “Ota” leksimasining o‘zbek va yapon tillarida leksik-semantik xususiyatlari

Ota - oila boshlig‘i, oilaning ishonchi, himoyachi panohi bo‘lgan ulug‘ shaxs timsolidir. O‘zbek oilalarida otaga oilaning mustahkam poydevori sifatida qaraladi va ulug‘lanadi. Yapon xalqida ham oilaga jamiyatning muhim bo‘g‘ini sifatida qaraladi. Xatto firma boshlig‘i ham qo‘l ostidagilari uni o‘z otasidek qabul qilishiga harakat qiladi. Tilshunoslikda esa o‘z otasi haqida birovlariga ko‘rsatib fikr bildirganda ishlatiluvchi eng oddiy leksik birlik hisoblanadi. O‘zbek tilidagi *ota* so‘zi va shu ma‘nodagi terminni ifodalovchi so‘zlar boshqa turkiy tillarda ham mavjud bo‘lib, ular deyarli bir- birlaridan unchalik katta farq qilmaydilar.²⁵ O‘zbek tilida *ota* so‘zining *dada*, *ada*, *aba* kabi ko‘rinishlari mavjud. Ismoilovning yozishicha, ota qon-qarindoshlik termini sifatida turkiy tillarda asosan bolasi bor yoki biror shaxsning bolasini asrab olgan erkak kishiga nisbatan aytiladigan termindir. Qadimgi turkiy tilda uning *ata*, *dada*, *ake*, *kaka* kabi qo‘llanilish shakllari mavjud bo‘lgan.

Misol: 1) *Shayx Sharafiddin Muniriyning ot o s i shayx Yaxyoning qabri andadir.* (Z.M.Bobur)

2) *Na ota og‘lini topti ul dam,*

Na o‘g‘ulg‘a otadin qoldi g‘am. (Shayboniy.)

O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa ota so‘ziga quyidagicha ta‘rif beriladi:

1. Ota - farzandli, bola-chaqali er kishiga nisbatan qo‘llaniluvchi so‘zdir. (o‘z bolalariga nisbatan). *O‘z (tuqqan)ota, o‘gay ota. Qayin ota. Ota kasb. Ota meros.*²⁶

3) *Ota bo‘lmay, ota qadrini bilmas.* (Maqol)

4) *Siz otamisiz, nimasiz axir, o‘g‘lingizni tiyib olish hech esingizga keladimi?* (A.Qodiriy, *O‘tgan kunlar*)

²⁵ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 27

²⁶ Ma‘rufov Z.M. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981 y.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, ota kundalik hayotimizda har kuni qo'llaniluvchi so'z bo'lib, farzandli, bola-chaqali erkak kishiga nisbatan qo'llanilish ma'nosi uning bosh, asosiy ma'nosi hisoblanadi.

Yuqorida ota so'zining o'zbek tilidagi ma'no qirralari ko'rib chiqildi. Endi ota so'zini yapon tilidagi ma'noviy xususiyatlari haqida gapiramiz. Odatda qadim –qadimdan yapon jamiyatida otaga o'z bolasini har xil tashqi ta'sirlardan asrab – avaylovchi, qo'llab – quvvatlovchi hamda farzandiga otalik mas'uliyatni bo'yniga oluvchi shaxs sifatida qaraladi va ota deganda shunday shaxsni tasavvur qilinadi.²⁷ Yapon tilidagi ota (父) ちち – *chichi* so'zining etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu unli tovush almashinuvi (bir tildagi unli tovushning bo'lagi talaffuzning o'zgaruvi natijasida boshqa bir tovushga aylanishi holati) shaklida Heyan davrida paydo bo'lgan. Yosh bolalar, ayniqsa ayollarning so'zlashuvida va badiiy matnlarda otaning yaqinligini o'z ichiga olgan murojaat termini sifatida oddiy xalq orasida turli joylarda hozirgi kungacha qo'llanilib kelinayotgan qadimiy so'zlardan hisoblanadi. Qadimgi yapon tilida ota termini nafaqat o'z tuqqan otasiga nisbatan balki, ota bilan bir xil holatdagi, yoshi teng, qarindoshlar (otaning akasi, ukasi va b.)ni hurmatlab ularga nisbatan ham bu termin - qo'llanilgan. Biroq keyinchalik faqat o'zining haqiqiy tuqqan otasiga nisbatan ishlatiladigan bo'lib, boshqa qarindoshlar (otaning akasi, ukasi va b.)ga amaki, tog'a deb murojaat qilinib, shu kabi yapon tilidagi terminlar qo'llaniladigan bo'lgan.²⁸ Ota yapon tilida 父- *chichi* deb ataladi. 父- *chichi* — farzandli erkak kishi ma'nosini bildiradi:

5) 若くして父となる。

²⁷ 「父親、お父さん」 <http://ja.wikipedia.org/wiki/>

²⁸ 草田寿子*1・山田裕紀子(1998)「家族関係単純図式投影法の基礎的研究VI夫婦間の心理的距離に対する認知のズレと家族コミュニケーションとの関連」『人間科学研究』文教大学人間科学部 第20号

Kurusiku shite chichi to naru.

Yosh bo'la turib ota bo'ldi.

6) 父は 元気です。 Chichi va genki desu. Otangiz salomatlar.

7) 父親の顔を知らない子。

Chichioya no kao o shiranai ko.

Otasining yuzini ham tanimaydigan bola.

Quyidagi misollardan ko'rish mumkinki, otaning yapon tilidagi bosh ma'nosi o'zbek tilidagi ma'no bilan bir xil bo'lib, yapon tilida ham farzandi bor er kishiga nisbatan aytiluvchi 父- *chichi* so'zi uning asosiy ma'nosidir.

Yapon tilining o'ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, qarindosh-urug'chilik terminlarning har birining sinonimlari bir qancha va har birining qo'llanilish o'rinlarida katta tafovut bor. Ya'ni birini ikkinchisi bilan almashtirish uslubiy hamda ma'noviy xatoliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham ularni o'z o'rnida qo'llash turli xildagi qo'pol xatoliklarni yuz berishini oldini oladi. Masalan, birgina 父—*chichi* so'zining bir necha 父さん・おとっさん・おとっ

つあん・お父様・おやじ・ちゃん・パパ・父親 父上 kabi ko'rinishidagi

sinonimlari mavjud bo'lib、 bu so'zlarning bari ota ma'nosini bildiradi.²⁹

Biroq , ishlatilish vaziyatlariga ko'ra har biri farqlanadi. Ularning har biri haqida keyingi o'rinlarda to'xtalib o'tamiz.

1. 父—ちち—*chichi*— o'z otasi haqida begonalarga gapirganda qo'llaniluvchi ota terminining eng neytral, oddiy shakli. Yana u badiiy nutqda, adabiy stil (roman, proza) da ko'p qo'llaniladi:

²⁹ 遠藤織枝、小林賢次(1994)「使い方の分かる「類語例解辞典」 A dictionary of synonyms in japanese」小学館

父が亡くなり母が働きに出る。 **Otam** vafot etgach, onam ishga chiqdi.

Bu o'rinda otaning bu ma'nosi o'zbek tilida ham mavjud bo'lib o'z otasi haqida begonalarga biror axborot berganda *otam, mening otam* deya ishlatadi, bu holat ikki tilda ham mavjud.

2. **父親** – ちちおや – *chichi oya* – otasi haqida gapirganda ishlatiladi, lekin neytral termin **父** – *chichi* ga qaraganda muloyimroq shakl hisoblanadi.

あの子は父親がいない。

Ano k o va **chichioya** ga inai.

Ana u bolaning **otasi** yo'q.

父親の職業は会社員です。

Chichioya no syokugyou va kaisyain desu.

Otamning kasbi firma xodimi.

Yana 父親 – てておや - *tete oya* so'zi ham mavjud bo'lib, u *chichioya* so'zining fonetik o'zgarishga uchrashi natijasida vujudga kelgan so'z bo'lib, bir *chichioya* so'zining ikki xil shaklidir.

Yapon tilidagi otaning bu shakli o'zbek tiliga alohida so'zlar bilan tarjima qilinmaydi. U *otam*, *otangiz*, *otasi* deya tarjimada beriladi, chunki yapon tilining bu shaklli ota 父親 *chichi oya* o'zbek tilida uchramaydi.

3. **父上** – ちちうえ – *chichi ue* – *chichi oya* shaklining hurmat formasi:

お父上によろしく。 Ochichiue ni yoroshiku. **Otangizga** salom ayting.

父上にご相談したいことがあります。³⁰

Chichiue ni sodansitai koto ga arimasu.

³⁰曾野綾子 (1983) 『夫婦の情景』 新潮社

Otangiz bilan maslahatlashib oladigan ishim bor.

Yapon tilidagi hurmatni bildiruvchi ushbu termin o'z otasiga yoki o'zganing otasiga mulozamatni, ehtiromni bildirib, ko'p hollarda お-o hurmat shakli old qo'shimchasi bilan qo'shilib keladi. Lekin 父上—ちちうえ—*chichi ue* yapon tilining arxaizmi tarkibiga kirib ketgan bo'lib, hozirgi kunda qo'llanilmaydi.³¹ O'zbek tiliga *otangiz*, *otamlar* kabi hurmatni bildiruvchi qo'shimchalar qo'shilib matnga tarjima qilinadi. O'zbek tilidagi *padari buzrukvor* so'zi ham hozirgi kundalik hayotimizda deyarli qo'llanilmaydi.

4. お父様—おとうさま—*otosama* —otaning hurmat formasi. Birovning otasi haqida gapirganda ham, o'z otasini hurmat qilib murojaat qilganda ham ishlatiladi:

あなたのお父様は元気でしょうか。

Anata no **otosama** va genki desyouka?

Sizning **otangiz** salomatmilar?

お父様お帰りなさい。 **Otosama** okaerinasai. **Otajon**, qaytib keling iltimos.

O'zbek tiliga yuqoridagidek tarjima qilinadi, lekin bu bilan otaning hurmat formasi uchun o'zbekchada alohida so'z yo'q degani emas.-**jon** affiksi o'zbek tilida *ota*, *ada*, *dada* kabi terminlarga qo'shilib kelib erkalatish, hurmatlash ma'nolarini beradi. *Otajon* formasi ko'pincha qari, mo'ysafid begona shaxslarga nisbatan ishlatiladi, yapon tilidagi お父様—おとうさま—*otosama* dek otaning hurmat formasini ifodalaydi. Quyidagi o'rinlarda o'zbek tilida ota ma'nosini anglatuvchi *volid*, *padar* terminlari ham ko'p ishlatiladi.

³¹遠藤織枝、小林賢次(1994)「使い方の分かる「類語例解辞典」A dictionary of synonyms in japanese」小学館

Aynan *padari buzrukvor* - ulug', katta ota degan hurmat ma'nosida ishlatiluvchi so'zdir.³²

Padarimiz rahmatlik Qashqardan olib kelganlar. (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar")
Qizlarning **padar buzrukvori** Abdulla Sodiqov esa fatvo berdi, bu rejalar rivojiga rahnamolik qildi. (Oila va jamiyat.).

お父様は私達の家にはいました。

Otosama va vatashitachi no ie ni irassyaimashita.

Padari buzrukvorimiz bizning xonadonimizga tashrif buyurdilar.

Yapon tilidagi otaning bu ko'rinishi o'zbek tilidagi *padari buzrukvor* so'zining aynan o'xshash varianti hisoblanadi.

5. **お父さん**—*otosan*—*otosamaga* qaraganda oddiyroq, otaning sodda hamda tushunarli shakli bo'lib, padarni ko'rsatuvchi standart so'z. O'z otasini chaqirib murojaat qilganda hamda bironlarning otasi haqida gapirganda qo'llaniluvchi so'z³³:

お父さんに買ってもらう。 **Otosan** ni katte morau. **Otam** sotib olib beradilar.

お父さんと僕の考えは違う。

Otosan to boku no kangae va chigau.

Otam bilan mening fikrim farq qiladi.

Asosan quyidagi holatlarda ishlatiladi:

- a) bola otasini chaqirib murojaat qilganda;
- b) ota bolaga nisbatan o'zini nazarda tutib, ko'rsatib biron nima deganda;
- c) rafika turmush o'rtog'i haqida gapirgan paytda bolaning otasi sifatida nazarda tutgan hollarda;
- d) uyning xo'jayni sifatida chaqirib murojaat qilganda;
- e) Turli xildagi suhbat, dialoglarda o'zganing otasi haqida fikr bildirganda.

³² Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 32

³³ 晋大野、正人 浜西1981年、「類語新辞典」角川書店

b) va c) misollarda qo'llaniluvchi ota terminining o'ziga xos jihati shundaki, unda bolaning pozitsiyasidan kelib chiqib, bola tilidan gapirilgandek qilib qo'llash holati mavjud.³⁴

お父さん – *otosan* o'zbek tiliga turli xilda tarjima qilinadi. Masalan , (a) vaziyatida *ota, ada, dada, adajon* deb murojaat qilinadi, bu o'zbek tili bilan deyarli bir xilligini kuzatish mumkin.

Yuqorida ta'kilanganidek yapon tilida birgina ota terminining bir qancha sinonimlari mavjud bo'lib, ular qo'llaniluv vaziyatiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Shu o'rinda **お父さん** – *otosan* bilan **父** – *chichi* ning qanday farqi bor degan savol tug'iladi, ikkovi ham otaning standart oddiy shakli bo'lsa, biroq ishlatilish vaziyatida tafovut bor. Birovlarga 「わたしの父」 – *watashi no chichi* mening otam deb aytish to'g'ri bo'ladi, lekin 「わたしのお父さん」 – *watashi no otosan* – mening otam deb aytish bolalarcha ibora bo'lib qoladi. Chunki yapon tilida o'z otasi haqida gapirganda hurmat va muloyimlik shakllari (お – *o* yoki ご – *go*, *さん*, *さま* va b.) qo'shilmaydi. Hurmat va muloyimlik so'zlari va shakllari asosan o'zgalarga nisbatan qo'llanilib, begonalarini o'zidan yuqori qo'yib, hurmat bildirib munosabatda bo'lishni anglatadi.³⁵ Shuning uchun ham o'z otasi haqida o'zgalarga gapirganda oddiy shakldagi qarindoshchilik terminlari qo'llaniladi, hurmat shakllarini qo'shib o'zinikilar haqida gapirganda notabiiylik holati yuz beradi. Xuddi shu kabi 「あなたのお父さん」 – *anatano otosan* sizning otangiz deb suhbatdoshining otasini hurmat qilib, u haqida gapirganda qo'llash odatiy

³⁴ ジェンダー・タイプと家族イメージに関する研究(PDF)

³⁵ 並木孝 (1981) 「国語大辞典 (新装版)」言語研究所、小学館、p.1984

holat-u, lekin 「あなたの父」 – *anata no chichi* - *seni otang* degandek qo'pol ibora bo'lib qoladi va suhbatdoshiga nisbatan behurmatlikni ifodalagani uchun ham uslubiy, ham ma'naviy xato hisoblanadi. Bundan tashqari, ayol kishi o'z turmush o'rtog'ini hurmat qilib murojaat qilganda va rafiq turmush o'rtog'i haqida gapirgan paytda bolaning otasi sifatida nazarda tutgan hollarda お父さん *otosan-* *dadasi, adasi* deb murojaat qilib, qo'llash hollari ko'p uchraydi.³⁶ Hozirgi zamonaviy yapon tilida ham ayniqsa erga, o'zgalarga nisbatan hurmat ifodasi baland bo'lgan bu millatda erning ismini aytmadan お父さん *otosan-* *dadasi, adasi* deb murojaat qilish, begonalarga o'z eri haqida gapirganda ham shunday nomlab aytish vaziyatlarini ko'p uchratamiz.³⁷ O'zbek tilida ham III shaxs egalik affiksi **-si** ota terminiga *otasi, adasi, dadasi* kabi qo'shilib keladi va bolaning onasi tomonidan bolaning otasiga(xotini eriga) nisbatan murojaat formasi, yoki biror begona shaxslar bilan suhbat vaqtida eri to'g'risida gapirganda ishlatiladigan yangi ma'no bo'yoqlarini ifodalaydi. Shuningdek bu forma erkalatish, hurmat bo'yoqlariga ham ega.³⁸

お父さんの料理がもうできましたよ。

Otosan no ryori ga mou dekimashita yo.

Dadasi, ovqatingiz tayyor bo'ldi.

O'zbek tilida: —Hoy, otasi to'xtang, - dedi. Eri to'xtab orqasiga qaradi.

(“Bekajon” gaz.)

- Hoy, adasi—dedi Xolida menga o'girilib:—Labbay oyisi! (“Bekajon” gaz.)

³⁶ 林四郎、野元菊雄（2000）「例解 新国語辞典」第五版、三省堂、p.442

³⁷ 徳川宗賢、宮島達夫(1972)「類義語辞典」東京堂出版

³⁸ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 37

-si formasi bilan kelgan *ota* , *dada*, *ada* terminlari asosan eski turmush sharoitida , diniy e'tiqodlar ta'sirida kelib chiqqan, ya'ni xotini o'z erining otini aytib murojaat qilish huquqidan mahrum etilgandi. Bunday xususiyat islom dini ta'sir etgan turkiy tillarning barchasida mavjuddir. Hozirgi kunda ham bunday murojaat qilish kundalik hayotimizda ko'p uchraydi, bu xotinning erga bo'lgan hurmatini anglatadi.

O'zbek tilining Toshkent shevasida *ada* varianti bo'lib, bu so'z ham *dada*, *ota* ma'nosida ishlatiladi:

Adamizni topdik, adamizni topdik! Quvona-quvona o'ynay boshladi Gulnor, - ada, adajonim!

Bu *ada* formasi ham qadimgi yodgorliklarda mavjud bo'lib, ota ma'nosida ishlatilganligi ko'rinadi: Ada - отец. Bundan tashqari, uyg'ur tili shevalarida ham ota ma'nosida uchraydi. Demak, ada termini *dada* va *ota* terminining o'zgarishi³⁹ yoki bolalar tilidagi so'z deb qarashga o'rin qolmaydi. U termin sifatida qadimdan ma'lumdir. Shu o'rinda *ada* hamda *dada* bolaning o'z otasiga murojaat qilganda qo'llaniladigan eng oddiy so'z shakli hisoblanishini ta'kidlab o'tish joiz, ya'ni hozirgi kunda og'zaki uslubda, kundalik hayotimizda *ada*, *dada* eng ko'p ishlatiladigan murojaat shaklidir.

Adajon sizni juda sog'inib ketdim, tezroq kela qoling. (Muallif)

1) -jon affiksoidi o'zbek tilida *ota*, *ada*, *dada* kabi terminlarga qo'shilib kelib erkalatish, hurmatlash bo'yoqlarini ifodalaydi.⁴⁰

Uyga kirdi oq odam,

Qarasam mening dadam.

*Bir gapim bor **dadajon**;*

Ishdan keldingiz qachon? (K.Turdieva. "Dunyoni saqlar bolalar")

***Otajon* hurmatingiz bor siz nima desangiz shu bo'ladi.** (P.Qodirov "H.v.A")

-**jon** affiksoidi bilan kelgan *otajon*, *adajon*, *dadajon* formalari ma'no jihatdan bir-biridan farq qiladi. *Otajon* formasi ko'pincha qari, mo'ysafid

³⁹ Гулямов А.Г, словообразование путем внутренних изменений слова в узбекском языке, изд. АН Уз, 1947, стр. 386-387.

⁴⁰ Hamroev M.A "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi" Toshkent-2004

begona shaxslarga nisbatan ishlatilsa, *adajon*, *dadajon* formalari ko'pincha birinchi navbatda o'z otasiga nisbatan hurmat, murojaatni bildiradi.⁴¹ Shu o'rinda yapon tilida ham o'zbek tilidagi erkalatib, hurmat qilib murojaat qilishda quyidagicha ko'rinishlari mavjud:

1. **お父ちゃん**—*otochyan*— *otosan* dan ham soddaroq va oddiy shakl, asosan yosh bolalar o'z otasini chaqirib shunday murojaat qiladi:

お父ちゃん ご飯だよ。 *Otochyan* *gohan dayo*. *Dadajon*, *ovqat tayyor*.

Yapon tilidagi ota 父 ga qo'shilib kelayotgan—**ちゃん** affiksi so'zga erkalatish, kichraytirish bo'yoqlarini beradi⁴² va o'zbek tilidagi –jon affiksining aynan o'xshash ko'rinishi hisoblanadi.

Yuqoridagi gaplardan ko'rib turibmizki, otaning turli birikmali so'zlari bilan mulozamat shakli old qo'shimchalari お—o, ご—go hamda so'z oxirida

keluvchi さま- *sama* qo'shimchasi qo'shilib kelmoqda hamda o'zgalarga

nisbatan hurmatni ifodalamoqda. O'z otasiga nisbatan **お父ちゃん**—*otochyan*

お—o, ご—go qo'llamasdan **父ちゃん**—*tochyan*, **父さん**—*tosan* deb ishlatilsa,

yaqinlik munosabatni bildiradi.

2. **パパ**—*papa*—otaning kichraytirib-erkalatib aytiladigan murojaat shakli.

パパ、このお菓子買ってきて。

Papa *kono okashi katte kurete*.

Dada , *mana bu shirinlikni olib bering*.

悪いことするとパパに言いつけますよ。

⁴¹ Hamroev M.A "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi" Toshkent-2004

⁴² Xolmirzaeva N "Yapon tili" 初級用 Toshkent, Zar qalam. 2005-yil, B. 67

Varui koto suru to papa ni iitsukemasu yo.

Yomon ish qilsang dadangga aytib beraman.

パパ、おみやげ忘れないでね。

Papa, omiyage vasurenaide ne.

Dada souvenir sovg'a olishni unutmang-a.

Yapon tilidagi otani anglatuvchi パパ—papa so'zining etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Rim cherkovi Papasini anglatuvchi inglizcha *Pope* bilan bir xil bo'lgan yunon tilidagi *παππας* (pappas) dan olingan bo'lib shu tariqa yapon tiliga kirib kelgan va o'zlashgan.⁴³ Hozirgi zamonaviy Yaponiyada kichkina bolakaylar o'z otasini shunday パパ—papa deb chaqirib murojaat qiladilar.

3.父—とと—toto—kichkina bola tomonidan otani aytilish shakli:

してととさまの名前は。Shite totosama no namae va?

Shunday qilib, dadamni ismlari...

Yuqoridagilarning barchasi farzandning o'z otasiga murojaat shakli bo'lib, yapon tilida otaning o'zbek tilidagi ma'noviy ko'rinishlari mavjud bo'lmagan boshqa shakllari ham bor. Bular quyidagilar:

1.親父—おやじ—oyaji – otaning sodda shakli bo'lib, yosh bolalar emas, yosh

jihatdan kattaroq yigitlar, asosan erkaklar tomonidan qo'llanishi bilan boshqa so'zlardan farq qiladi:

おふくろも親父もお元気ですか。

Ofukuro mo oyaji mo ogenki desuka?

Onangiz ham, otangiz ham salomat yuribdilar mi?

⁴³ 「父親、パパ、お父さん」 www.bunkyo.ac.jp/faculty/lib/.../h2013.pdf -

Biroq , otani chaqirib murojaat qilganda **おやじーoyaji** ishlatilmaydi. **おやじーoyaji** ko'cha-kuyda, jamoat joylaridagi begona erkaklarga nisbatan amaki ma'nosida murojaat qilib qo'llanilishi ham mumkin.

2. **父君ーちちぎみーchichigimi**, **ご親父ーgoshinpu**, **父御ーちちごーchichigo**, **父君ーふくんーfukun**, **尊父ーそんぷーsonpu**, - kabi so'zlar ham mavjud

bo'lib, ota so'zining suhbatdoshiga yoki begonalarga rasmiy muloyim murojaat shakli hisoblanadi:

御親父様によろしくお伝えください。

Go shinpusama ni yoroshiku otsutae kudasai.

Hurmatli **otangizqa** salomimni yetkazib qo'ying.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yapon tilida *uchi(o'z)* va *soto(o'zga)* munosabati mavjud bo'lib , bu albatta til leksik qatlamiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, yaponlarda aynan bir so'zning qarindoshga nisbatan boshqa bir varianti, begonaga nisbatan yana bir boshqa varianti qo'llaniladi. Bu yon atrofdagi odamlarning psixologik uzoq-yaqinlik munosabati deyilib, har bir insonning boshqa shaxsga murojaatida bu munosabat albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yuqoridagi misollarda ham aynan shu ta'sirni kuzatish mumkin. Bu misolda begonaning otasiga nisbatan behat hurmatni ko'rish mumkin.

Gochichigimi ham o'zgalarning otasi haqida hurmat bilan, o'zining otasidan ham balandroq qo'yib gapirish ma'nosini anglatadi.⁴⁴

ご父君にぜひお会いしたい。

Gochichigimi ni dzehi oai shitai.

Otangiz bilan albatta uchrashmoqchiman.

⁴⁴ 草田寿子・山田裕紀子（1998）「家族関係単純図式投影法の基礎的研究VI－夫婦間の心理的距離に対する認知のズレと家族コミュニケーションとの関連－」 p.10-18

ご尊父様もお変わりございませんか。

Go sonpu sama mo okawari gozaimasenka?

Otangizda ham hech qanday o'zgarish yo'qmi?⁴⁵

Gosonpusama yapon tilida asosan yozma uslubda, turli xildagi maktublar yozganda, xatto hozirgi kunda elektron xatlar yozganda ham asosan birovning otasi haqida hurmat yuzasidan so'raganda ushbu termin qo'llanmoqda.

3. 家父—かふ—kafu – begonalarga o'z otasi o'zining uyidagi oila boshlig'i, uy xo'jaligini boshqaruvchisi ma'nosidagi ota haqida gapirganda ishlatiladi:

その報を家父に伝えておきます。⁴⁶

Sono hou o kafu ni tsutaete okimasu.

Bu xabaringizni otamqa yetqazib qo'yaman.

4. 愚父—ぐふ—gufu – o'zining otasini kamsitish. Begonalarning otasini hurmat yuzasidan o'z otasidan yuqoriroq qo'yganda o'z otasini kamtarlik yuzasidan pastroq qo'yib ishlatiluvchi termin.⁴⁷

5. 雷親父—かみなりおやじ—kaminari oyaji- qattiqqo'l, badjahl, injiq ota ma'nosini anglatadi.

家にはかみなりおやじがいる。

Ie ni va kaminari oyaji ga iru.

Uyda qattiqqo'l otam bor.

Ota so'zining o'z tuqqan otasi ma'nosidan boshqa ma'nolari ham bor, ya'ni ota so'zi o'zbek va yapon tillarida subyektiv ma'no qirralarini ifodalab ham keladi.:

Masalan, ota so'ziga –m egalik qo'shimchasini qo'shib *otam, otam* deb o'g'il bolani erkalatish uchun ham ishlatiladi.

⁴⁵ 晋大野、正人浜西1981年、「類語新辞典」角川書店 p.347

⁴⁶ 曾野綾子（1983）『夫婦の情景』新潮社,p 91

⁴⁷ 藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社

2. Otaning o'zbek tilidagi keyingi ma'nosi yoshi katta kishilarni hurmatlash uchun ishlatiladi:

Otalar so'zi – aqlning ko'zi. (Maqol)⁴⁸

Mayda bolalardan tortib keksa muallimlargacha "**ota**" deb ataydigan novcha va qotma chol – qorovul kelardi. (Oila va jamiyat)⁴⁹

Hozirgi kunda ayniqsa, o'zbek tili og'zaki nutqida ko'cha-ko'yda, mahalla va guzarlarda, xatto jamoat joylarida ham butunlay begona yoshi katta kishilarga nisbatan ota, otaxon deb murojaat qilish hollarini deyarli har kuni uchratamiz. Bu holda shu yoshi katta kishiga nisbatan hurmat ko'rsatilib, uni otasidek yaqin ko'rib, e'zozlab, ehtirom ko'rsatib shunday murojaat qiladilar.

Radio 3 oylab pinakka ketib yotishini bilasizmi? Bu qanaqasi jiyan?

—**Ota**, gapingiz o'rinli,—dedi 9-yotoqxona komendanti I. Siddiqov (Mushtum)

Keling **ota**, keling, hurmatingiz bor to'rga chiqing. ("Oila va jamiyat")

Yana o'zbek tilida ota so'zi shaxs otiga qo'shilib keladi va huddi shunday begonalarga nisbatan hurmat, izzat ma'nosini bildiradi.:

"**Asrorqul ota** rayonimizda eng zo'r agitator... **Ota** Shu yerda turib Berlinga o'q qo'yayotibdi" dedi. (A.Qahhor, Asror bobo.)

Yo'lchi kechalari zerikkan choqlarida **Shokir ota** do'konxonasiga kirib yurib u nilan ota-bola bo'lib qolgan edi. (Oybek "Qutlug' qon")

2) Ismoilovning yozishicha "O'zbek tilida **-xon** affiksoidi ham mavjud bo'lib, bu qo'chimcha turkiy tillar ichida o'zbek tili uchun xos bo'lib, birgina ota terminiga qo'shilib keladi va ko'pincha katta yoshdagi begona erkak shaxslarni hurmatlash va o'z otalarini erkalatish ma'no bo'yog'ini beradi".

- Bardammisiz, **otaxon**? – dedi Musa, cholning xiragina sersoqol yuziga tikilib va jo'rttaga so'radi. (Bekajon)

Bunda cho'lponlar **otaxoni** Qobil bobo istiqomat qiladi. (Oila va jamiyat.)

Tajribakor qariyalar mehnat qilayotgan dalalarda g'o'zaning avjini ko'rib hamma havas qiladi... **Otaxonlarning** himmati baland. (O'zbekiston ovozi.)

⁴⁸ Mirzaev T., Musoqulov A. "O'zbek xalq maqollari" T.: "Sharq" 2012. B. 260

⁴⁹ Ma'rufov Z.M. "O'zbek tilining izohli lug'ati" Moskva "Rus tili" nashriyoti 1981 y. B.45

Ko'rib turganimizdek *otaxon* termini begona, katta yoshdagi erkaklarga, nuroniy qariyalarga nisbatan ishlatilib ularga hurmat – ehtiromni ifodalaydi. Shuningdek shaxs nomlarini bildiruvchi otlarga ham qo'shilib keladi: *Dehqon ota* , *Boy ota*; *Bog'bon ota*; *Usta ota*. Lekin *dada*, *ada* variantlari bunday xususiyatlarga ega emas.⁵⁰

Yapon tili bilan o'zbek tilidagi otaning bu ma'nosini taqqoslaydigan bo'lsak, yapon tilida ham ota terminining yoshi katta, o'rta yoshlardagi erkak kishiga nisbatan ishlatiluvchi eng oddiy shakli mavjud:

百姓のおやじ。 *Hyaku syou no oyaji.* *Dehqon ota.*

1.3. “Ota” so'zining o'zbek va yapon tillardagi ko'chma ma'nolari va qo'llanilishi

O'zbek tilida ota termini bir qancha ko'chma ma'nolarda qo'llaniladi.

O'zbek tilida biron-bir inson uchun qadrli, muqaddas meros, an'ana, odat, udum yoki narsa-buyumga nisbatan *ota meros*, *ota kasb*, *ota udum* kabi ota terminiga qo'shilib keluvchi so'zlar mavjud.

Katta bo'lgach, hammollik menga ham ota kasb bo'lib qoldi. (P.Qodirov)

Yapon tilidagi ham o'zbek tilidagi kabi *chichi* – ota so'zini yana yoshi ulug', qari erkaklarga hurmat yuzasidan ham qo'llanuvchi ma'nosi mavjud.⁵¹

パン屋のおやじ。 *Panya no oyaji.* *Novvoy ota.*

町工場のおやじ。 *Machi koujyo no oyaji.* *Fabrikamiz otasi.*

kabi misollardan ko'rish mumkinki, bu gaplardagi ota kichik boshqaruv obyektlarining xo'jayni ma'nosida kelib, o'ziga qondosh bo'lmagan begona kimsaga nisbatan ham ota terminini qo'llaniladi. Bundagi otaning manmun-mohiyati nafaqat yoshi katta , nuroniy kishilarga nisbatan , balki jamiyatdagi mavqei baland , obro' - e'tiborli kishilarga nisbatan hurmatni anglatadi.

⁵⁰ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 31

⁵¹ 藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社

Ota so'zining bir nechta ko'chma ma'nolari ham mavjud.

a) Biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos solgan kishi haqida:

Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligi otasidir.

Jukovskiy – rus aviatsiyasining otasi.

Bu o'rinda yapon tilida ham yuqoridagi ma'nolardan boshqa otaning o'z otasiga emas, balki ko'chma ma'nodagi otaga nisbatan qo'llaniluv holatlarini kuzatish mumkin. Bu o'rindagi ota muhim kashfiyotlarni boshlab bergan buyuk shaxs, biror yangi faoliyatga asos solgan, uni tashkil qilishda muhim rol o'ynagan o'zidan kelajak uchun buyuk fan yutuqlarini qoldirgan erkak kishiga nisbatan “~ otasi” deb qo'llaniladi.⁵²

日本のアニメーションの父は政岡憲三です。

Nihon no animeshyon no chichi va Seioka Kensan desu.

Yapon animatsiyasining otasi Seioka Kensan hisoblanadi.

日本映画の父は牧野省三です。

Nihon no eiga no chichi va Makino Shyosan desu.

Makino Shyosan -Yapon kinosining otasi.

日本の工業の父は山尾庸三です。

Nihon no kougyou no chichi va Yamao Youmi desu.

Yamao Youmi – yapon sanoatining otasi.

日本の伝統的なスポーツ柔道の父は嘉納治五郎です。

Nihon no dentoteki na supotsu jyudo no chichi va Kanou Jigorou desu.

Yapon milliy sporti dzyudoning otasi Kanou Jigorou hisoblanadi.

早川徳次は日本地下鉄の父です。

Hayakava Tokuha va chikatetsu no chichi desu.

⁵² 尾形和男 (2007) 「家族システムにおける父親の役割にかんする研究」 風間書房

Hayakava Tokuha yapon metrosining otasi.⁵³

近代日本資本主義の父は渋沢栄一です。

Kindai nihon shihon syugi no chichi va Shibusava Eichi desu.

Zamonaviy Yapon kapitalizmining otasi Shibusava Eichi bo'lgan.

Ko'rib turganimizdek, yapon tilida ham biror sohada yangilik qilib, uni yaratgan asoschiga nisbatan ota deya ko'chma ma'noda qo'llanar ekan. Bu borada o'zbek tili bilan yapon tili ma'nolari bir xilligini kuzatish mumkin.

4. a) Mehribon boshliq, rahnamo haqida gapirilganda qo'llaniladi:

U (Rasulboshi) fuqarolarga ota bo'ldi, g'amxo'rlik qildi, ish o'rgatdi.

Yapon tilida ham shu o'rinda biror harakatga boshchilik qilgan mehribon, jonkuyar yo'l boshchiga nisbatan ota terminining qo'llanilishi vaziyatlari mavjud:

日本人ではブラジル移民の父という表現は歴史的なものです。

Nihonjin deva burajiru imin no chichi to iu hyougen va rekishitekina mono des.

Yaponlar orasida Braziliyadagi yapon ko'chmanchilarining otasi degan iboraning tarqalishi tarixiy faktlar bilan bog'liq.

Tarixdan m'alumki, Uetsuka Shyuhei Braziliyaga ko'chib borgan yaponlarga boshchilik qilgan, buyuk rahnamo hisoblanadi. Shuning uchun ham xalq orasida uni ko'chmanchilar otasi deb atashadi.

b) El-yurtga boshchilik qiluvchi yoshi yoki mansabi ulug' zot haqida

Tayyorlan, qizim. Sanga yurt otasi ellikboshimiz gapiradilar. (Oybek, Qutlug' qon.)

Hozirgi kunda prezidentimiz Islom Karimov haqida gapirilganda ham ota, otamiz, el-yurt otasi kabi ota so'zini qo'llanilish holatlarini kuzatish mumkin.

Kuni kecha otamizning yangi farmonlari e'lon qilindi. ("Xalq so'zi" gazetasidan.)

⁵³ 「父親、お父さんの比喻的な意味」 www.bunkyo.ac.jp/faculty/lib/.../h2013.pdf -

El-yurt otasi - prezidentimizning sharofatlari bilan mamlakatimiz gullab-yashnadi, tobora rivojlandi.

Yapon tilida ham otaning xuddi shunday ko'chma ma'noli qo'llanilishi mavjud bo'lib, boshqa davlatlardan mustaqil bo'lishda hal qiluvchi rol o'ynagan boshliq, diniy faoliyat rahnamosi haqida gapirilganda otaga qiyoslanib mustaqillik otasi, yurt otasi deb qo'llanilish vaziyatlari uchraydi. Lekin shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, bu kabi qo'llaniluvlar yapon tilining tub leksikasiga xos emas, ya'ni bu kabi otaning ko'chma ma'nolari ingliz tilidan o'zlashgan hisoblanadi.⁵⁴

インドの独立の父はマハトマ・ガンディーです。

Indo no dokuritsu no chichi va Mahatma Gandhi desu.

Hindiston mustaqilliqi otasi Mahatma Gandhi hisoblanadi.

ホチミンはベトナムの父である。

Ho Chi Min va betonamu no chichi de aru.

Ho Shi Min Vetnamning otasi.

彼は「革命の父」であり、神秘的な指導者であり「思想の王様」である。

Kare va kakumei no chichi de ari, shinpitekina shidosya de ari “shiso no ousama” de aru.

U revolyutsiya otasi bo'lib, sirli rahnamo “mafura qiroli” hisoblanadi.⁵⁵

Yuqoridagilardan ko'rib turganimizdek, yapon tilida ham xalq va millatni bir maqsad sari yetaklagan, mamlakat ozodligi va rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega buyuk shaxslar otadek e'zozlandi va otaga qiyoslanadi. Bu kabi birikmalar og'zaki uslubda ham, yozma adabiyotlarda ham uchraydi.

Endi ota terminining o'zbek va yapon tillaridagi qo'llanilish doiralariga e'tibor qaratamiz. O'zbek tilida ota birikma holida kelganda, o'z ma'nosini

⁵⁴ 平野敏政「親族関係の分析視点」哲学第63集、1974年、pp50–51

⁵⁵ 岩上真美、田淵轆轤「高齢期の新しいつながりの模索：ーグローバル化、個人化と家族ー」2003.

yo'qotib boshqa bir ma'nodagi frazeologik iborani ifodalaydigan ma'noviy qirralarini ifodalaydi. Ma'rufovning izohli lug'atida quyidagicha berilgan:

♦**Bor otangga, bor onangga. Ota go'ri qozixonami?**sansalorlikni ifodalash uchun ishlatiladi. *Ota* termini *go'ri qozixona* birikmasi bilan birga kelgan frazeologik birikma asosan – xafa bo'lmaymiz degan ma'noni ifodalaydi. *Ish qilib terim vaqtida arzimagan narsaga ota go'ri qozixona qilib yurmaylik, deyaipman-da.*(S.Ahmad “Ufq”).

Otagga rahmat kimsadan mamnuniyatni ifodalovchi olqish iborasi.

“**Ota bezori**” bu yerda ham ota so'zi “bezori”so'zi bilan frazeologik birlikka kirib, ota-onasining so'ziga quloq solmaydigan, tartibsiz bola ma'nosini ifodalaydi:

Sen shunaqa o'zboshimcha bo'lib qoldingmi? Bunday ishni ota bezorilar qiladi. (“Oila va jamiyat” №18, 2013).

“**Otang yaxshi, onang yaxshi** qilib yalinib-yolvorib; olqab-maqtab. Biror kimsaga yalinib , biror yumushni qilishga undash, iltimos qilib, aldab-sildab ishini qildirib olish ma'nolarida ishlatiladi.”⁵⁶

Ismoilovning yozishicha “O'zbek tilida ota ma'nosini anglatuvchi *valid*, *padar* terminlari ham ko'p ishlatiladi. *Valid* termini ko'pincha diniy kitoblarda , dindorlar tilida uchraydi.

Padar termini hozirgi zamon o'zbek tilida ba'zi bir so'z turkumlari bilan sintaktik birlikka kirib, yangi ma'nodagi so'zlarni ifodalaydi:

1) *padari buzrukvor* — ulug', katta ota; 2) *padari la'nati*— so'kish , haqorat qilish ma'nosida; 3) *oq padar* — ota tomonidan la'natlangan, oq qilingan farzand ma'nosida; 4) *padari qusur* — hazil ma'nosida, yosh bolalarni erkalatish uchun (mug'ambir, ayyor ma'nosida) ishlatiladi; 5) *padarkush*— otasini o'z qo'li bilan o'ldirgan bolaga nisbatan aytiladi”.⁵⁷

Ismoilov o'zining tadqiqi davomida ota terminining leksik-grammatik qo'llanilishlari haqida ham to'xtalib o'tadi, jumladan:

⁵⁶ Ma'rufov Z.M. “O'zbek tilining izohli lug'ati” Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981 y.

⁵⁷ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В.32

3) Ota termini o'zbek tilida **-lik, -liq** affiksoidlarini olgan holda yangi qo'shimcha ma'no kasb etadi:

a) otaning o'z bolasiga nisbatan mehri, burchi, sevgisi, muhabbati kabi ma'nolarni ifodalaydi; biror shaxsga nisbatan otalarcha g'amxo'rlik, mehribon bo'lish ma'nosini bildiradi.

*Otam bo'lmasangiz ham, meni **otalik** muhabbati bilan sevgan sodiq va mehribon bir kishimsiz, ya'ni ma'naviy otam.* (A.Qodiriy, "O'tkan kunlar").

Haqiqatan ham ko'rish mumkinki bu gapda otaning o'z bolasiga nisbatan mehrini bildirib kelmoqda.

b) o'zbek tilida **-lik** affiksoidini olgan ota termini yuqoridagi ma'nolaridan tashqari butunlay yangi ma'noda, ya'ni biror tashkilotga, kolxozga, maktabga va shu singari jamoat joylariga ikkinchi bir tashkilotning yordamlashishi, unga har tomonlama ko'maklashuvchi tashkilotni ifodalab keladi:

*Ko'p **otalik** tashkilotlari maktablarga qo'shimcha binolar berib, diqqatga sazovor ish qildilar.* ("Qibray sadosi").

*Rafiqov o'z tashabbusi bilan "Chitan"ni Ilich zavodi **otaliqiga** oldirgan.* (A.Qodiriy)

c) **-lik** affiksoidi bilan kelgan o t a + l i k formasi o'simlik va hayvonlardagi jinsiy farqlarni, ulardagi urug'lanish, urchish xususiyatini bajaruvchi organlarning nomlarini bildiradi:

*Onalik atrofida juda ko'p **otaliklar** bor. Gulning boshqa qismlari singari , otaliklar ham, gul o'rniga birikadi.* (M.Belskaya, Botanika).

4) **-lar+cha** murakkab affiksoidi turkiy tillarda ota terminiga qo'shilib kelib , biror shaxsga otalik qilmoq, unga mehribonlik ko'rsatmoq kabi ma'no ottenkalarini ifodalaydi:

*Jalil bobo o'zining ingichka panjalari bilan Gulining qo'llarini siypalab, **otalarcha** erkaladi va qizni yupatish tilagida kulib qo'ydi.* (Oila va jamiyat)

5) – **liq affiksoidi** o'zbek tilida ota terminiga qo'shilib, uning ma'nosi yuqoridagi–lik affiksoidi bilan kelgan ma'nodan butunlay farq

ma'nosini anglatadi. Quyida otadan oldingi ajdodlarni, ota-bobolarni anglatuvchi bir nechta ierogliflarni berib ketamiz:

こうそふぼ

高祖母—*kou sofubo* – otadan 3 avlod oldingi bobo ajdodlar.

そうそふぼ

曾祖母—*sou sofubo* - otadan 2 avlod oldingi ota-bobo ajdodlar.

そふぼ

祖母—*sofubo* – otaning otasi-buva, bobo

お祖父さん—*ojiisan* – otaning otasi-buva, bobo⁶⁰

Ko'rib turganimizdek, yapon tilida ham ota terminiga bobo termini ieroglifi qo'shilib o'zidan oldingi yashab o'tgan ajdodlarni anglatib, ota- bobo juft so'zini hosil qiladi. Bu jihati ham o'zbek tiliga o'xshashdir.

9) o'zbek tilida *ota* termini *ona* termini bilan birga juftlashib ham keladi va bu vaqtda ota termini har doim birinchi o'rinda, birinchi komponent bo'lib keladi va jamlovchi – ota va onani ifodalovchi yangi ma'no bo'yoqlariga ega bo'ladi:

Ota-onamning rozi-rizoligi bilan safarga otlandim. (“Oila va jamiyat”*gaz.dan*)

Yapon tilida ham ota-ona juft so'zi mavjud bo'lib, u birgina so'z bilan emas bir nechta sinonimli so'zlar hisoblanadi, ya'ni ota-ona uchun turli xil so'zlar mavjud:

父母—ちちはは—*chichi haha*,

両親—りょうしん—*ryoshin*

父母—ふぼ—*fubo*,

二親—ふたおや—*futaoya*

親—おや—*oya*,⁶¹

Bu so'zlarning bari **ota-ona** so'zining turli ko'rinishlari bo'lib, o'zbek tiliga deb tarjima qilinadi. Yapon tilida ham ota termini har doim birinchi o'rinda, birinchi komponent bo'lib keladi va jamlovchi – ota va onani ifodalovchi yangi ma'no kasb etadi.

⁶⁰ ウェブ版 AFLANG 年報 - テンボ語の親族名称

⁶¹ 晋大野、正人浜西1981年、「類語新辞典」角川書店

10) Ismoilovning yozishicha, o'zbek tilida *ota* so'zi *nur* so'zi bilan *Nurota* formasida juftlashib tog'ning , joyning nomini ifodalab keladi. Bundan tashqari, *ota* so'zi har xil atoqli otlar bilan birikib o'zining asl ma'nosini yo'qotib muqaddas joy nomlarini ham ifodalab keladi: Masalan, *Zangiota*, *Cho'ponota*, *Buvraota*, *Avliyo ota* kabi. Bu holat yapon tilida uchramaydi, bu so'zlarning etimologiyasini o'rganish ahamiyatga molikdir.

I bob bo'yicha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, birgina *ota* so'zining o'zida ikki tilda o'xshashliklar hamda tafovutlar talaygina. Qiyosiy tadqiqimiz davomida yapon tilida *ota* terminining o'zbek tiliga nisbatan sinonimik ko'rinishlari ko'pligini aniqladik. Ularning har biri qo'llaniluv o'rniga ko'ra farqlanishini ta'kidlash lozim.

Ayniqsa *ota* terminini qo'llashda o'z va o'zganing otasi deb farqlanishi murojaat shakllariga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, bu yapon tilidagi hurmat shaklining o'ziga xos xususiyati sanaladi. Yapon tilida suhbatdoshga nisbatan hurmatning balandligi o'zining oila a'zolari uchun alohida, o'zganing ya'ni suhbatdoshining oila a'zolari uchun alohida hurmat shakliga ega so'zlarni qo'llashni taqazo etadi. O'zbek tilida esa o'z otaga ham birovning otasiga ham bir *ota*, ada so'zi qo'llaniladi. Padar, volid so'zlari esa asosan badiiy adabiyotda va qadimiy tilda qo'llanilgan bo'lib, hozir deyarli kundalik hayotda qo'llanilmaydi.

Tadqiqimiz natijasida otaning o'z ma'nosida qo'llanishida ikki tilda o'xshashliklar talaygina ekanligini kuzatdik. Jumladan ikki tilda ham *ota* farzandli erkak kishiga nisbatan ishlatilib bolaning otaga, xotinning erga murojaat shakllari aynan o'xshash bo'lib chiqdi. Buning sababini ikki xalqning madaniy mintalitetida ham erkakning oilada asos, tayanch vazifasini o'tashligi bilan izohlash mumkin, shuning uchun ham erga, otaga nisbatan Sharq xalqlarida hurmat-ehtirom baland. Biroq yapon xalqi o'ta sermulozamat millat hisoblanib, hurmat kategoriyasi kundalik hayotda doimo qo'llaniladi va bu

bevosita tilshunoslikda o'z aksini topadi. Bu esa qarindoshchilik terminlarining turli vaziyatlarda turlicha o'zgarishiga sabab bo'ladi. O'z otasiga alohida so'z, begonaning otasiga alohida olingan otaning o'zgacha shaklining qo'llanilishi o'zbek va yapon tillaridagi eng katta tafovut desak mubolag'a bo'lmaydi.

Endi ikki tildagi ota terminining ko'chma ma'nolariga to'xtaladigan bo'lsak, ikki tilda ham otaning yoshi katta kishilarni hurmatlash ma'nosi mavjud. Biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos solgan kishi haqida gapirilganda mehribon boshliq, rahnamo haqida gapirilganda yapon tilida ham o'zbek tilida ham biror kashfiyotchi qilgan ishining asoschisi sifatida ~ *otasi* tarzida qo'llaniladi. El-yurtga boshchilik qiluvchi yoshi yoki mansabi ulug' zot hamda boshqa davlatlardan mustaqil bo'lishda hal qiluvchi rol o'ynagan odam haqida gapirilganda ota terminining ikki tilda ham qo'llanilishi lingvistik nuqtai-nazardan o'xshashliklar talaygina ekanligining ifodasidir. Biroq o'zbek tilidagi otaga **-lar+cha**, **-liq**, **-lik** kabi affikslarning qo'shilishi natijasida so'z ma'nosining o'zgarish xususiyati yapon tilida uchramaydi. Bu kabi ma'nolar yapon tilida alohida so'zlar bilan beriladi. Bundan tashqari muqaddas joy nomlariga **ota** so'zining qo'shib aytilishi ham faqat o'zbek tili uchun xosdir.

Shunday qilib yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, ota termini ikki tilda ham oilaning tayanchi, farzandiga nisbatan mas'uliyatni oluvchi shaxs sifatida qaraladi. Kundalik hayotimizda qo'llanuvchi bu so'zning farzandli inson sifatidagina emas, balki boshqa ma'nolarda qo'llaniluvchi ko'rinishlari mavjud ekanligi va bu ikki tilda ham o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi oydinlashdi.

II BOB. O'ZBEK VA YAPON TILLARIDA “ONA” SO'ZINING LEKSIK, SEMANTIK, FUNKSIYAVIY XUSUSIYATLARI TAHLILI.

2.1. O'zbek va yapon tillarida “ona” leksimasi va uning leksik-semantik xususiyatlari

Ona muqaddas zot. Bu ibora nafaqat o'zbek xalqi uchun olingan ibora, balki butun dunyo xalqlarida ona inson uchun qadrdon hamda muqaddas shaxs timsoli hisoblanadi. Ona farzandini katta qiyinchiliklar bilan dunyoga keltirib, uni tarbiyasida asosiy rol o'ynovchi shaxsdir. Bejizga xalqimizda *dunyoni onalar tebratadi, onalar oyog'i ostidadir ravzai jannat* kabi iboralar mavjud emas. Bu iboralar xalqimiz turmush tajribalari asosida asrlar mobaynida shakllangandir. O'zbek tilida onani mehridaryo, mushfiq, rahmdil, bolasi uchun jonini ham fido qiluvchi inson sifatida tushuniladi. Yapon xalqida ham onaga mehribon, g'amxo'r, sahovatli inson sifatida qaraladi.

Ona so'zi qon-qarindoshlik termini sifatida hozirgi zamon jahon tillarining deyarli hammasida, xususan o'zbek va yapon tillarida ham mavjuddir. Ismoilov ona terminining quyidagi ma'nolarini keltirgan:

1. *Ona* so'zi turkiy tillarda qon-qarindoshlik termini sifatida bola tug'ib, katta qilgan, tarbiyalagan, o'z bolasi bor yoki biror shaxsning bolasini boqib, asrab olgan ayolga nisbatan berilgan va uni aniqlovchi termindir. Bu ona so'zining bosh ma'nosi hisoblanadi:⁶²

⁶² Исmoilов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 12

Ona dunyodagi eng mehribon zot.

Onalar oyog'i ostidadir ravzai jannat.

Onaman-u - onaman,

Bolam uchun yonaman.

Bolam tinchlikda o'ssa

Orzularga qonaman. (O'zbek xalq qo'shiqlari)

Jumladan , o'zbek tilining Z.M.Ma'rufov tahriri ostida chiqarilgan 2 tomli Izohli lug'atida **ona** so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: *ona* – farzandi yoki farzandlari bo'lgan xotin (o'z tuqqan farzandlariga nisbatan); bolali xotin:

Ona bilan bola - gul bilan lola .

*Erka tutsa **onasi** taltayadi bolasi.*(Maqol)⁶³

O'zbek tilidagi *ona* so'zining tarixi haqida gapirsak, ona qadimiy so'zlardan bo'lib yozma yodgorliklarda: *ana-mamъ*; Mahmud Koshg'ariyda – *ona*; XII-XIII asr tafsirida *ana-mamъ*; o'rta asr o'zbek va uyg'ur klassik adabiyotlarida esa *ana*(Bobir); *ana* (Shayboniy) variantlari ishlatilgan.

Ona so'zi keyingi davr asarlarida va turkiy tillarning lug'atlarida xilma-xil fonetik variantlarda kelganligi ko'rsatiladi. V.V.Radlov o'zining 4 tomlik lug'atida ona so'zining butun bir turkiy tillardagi va shevalardagi ko'rinishlarini qayd etadi: *ana, ena, änä, enäi* kabi ko'rinishlarda mavjud bo'lganini ta'kidlagan. Shunday qilib, *ona* so'zi hozirgi zamon turkiy tillarda yuqoridagi asarlarda qayd qilingan *ë, u, ë* shakldagi variantlari qabul qilingan.

O'zbek tilida keng qo'llaniladigan ona variant adabiy til uchun xizmat qilgani holda , uning *әнә* (xorazm, buxoro) *енә* (andijon) *әна* (namangan) kabi fonetik variantlari esa o'zbek tili shevalarida *ona, buvi* ma'nolarida ishlatiladi.⁶⁴

Lekin shunga qaramasdan, o'zbek tili sheva va dialektlarida *aba, acha, eba, eye, ena, opa, buvi, buv* – *мать, мама; енә-мать*⁶⁵ so'zlarining ona ma'nosini anglatishi qayd qilinadi.

⁶³ Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B., "O'zbek xalq maqollari" T.: "Sharq" 2012. B.273

⁶⁴ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 12

⁶⁵ Боровков А.К, "Узбекские говоры Наманганской области", Научные труды ТашГУ, вып. 211, Языкознание, Ташкент, 1963, стр. 29

Yapon tilida ham farzand tug'ib uni tarbiyalab o'stirgan ayolga nisbatan *ona* termini qo'llaniladi.⁶⁶ Yapon tilida ona -母—*haha* deganidir.

Misol: 母がセーターを編んでくれた。 *Hahaga* seta o ande kureta.

Onam issiq kiyim to'qib berdilar.

Yapon tilidagi ona 母—*haha* hieroglifining paydo bo'lish tarixiga nazar solsak, ayol 女 hieroglifiga ikkita nuqtali hieroglif qo'shib chizilgan bo'lib, natijada bolani ko'krak suti bilan boquvchi ayol ma'nosidagi 母—*haha*—ona hieroglifi vujudga kelgan va ushbu termin paydo bo'lgan..⁶⁷ 母—*haha* termini Nara davrida (710-794) ファファ—*fafa* tarzida, Heyan davriga (794-1185) kelib ファワー—*fava* deb talaffuz qilinadigan bo'ldi. Heyan davrining oxirlaridan to Yangi davrgacha (Yaponiya tarixida Azuchu Momoyama va Edo davrlarini o'z ichiga olgan 1568-1868 – yillarni o'z ichiga olgan davr)⁶⁸ はは—*haha* so'zining ikkinchi harfi, ikkinchi bo'g'ini 「はわ」 *hava* ya'ni *ha* tovushi va ga fonetik almashingan holda talaffuz qilingan shakli mavjud bo'lgan. Buni imperator boshqaruvi davrida yozib qoldirilgan qadimiy qo'lyozma 「元永本古今集」 da 「はわ」 — *hava* tarzida yozilgan misollar keltirilganligidan ham tushunishimiz mumkin. Bu qo'lyozmada ona so'zi *hava* tarzida fonetik

⁶⁶ 藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社、827冊

⁶⁷ Алпатов 1976 – О соотношении исконных и заимствованных элементов в системе японского языка // Вопросы языкознания. 1976, № 6. стр.84

⁶⁸ Мещеряков А. Н. Древняя Япония: культура и текст. М.: Наука, 1991.

o'zgarishga uchragan variantlarda ko'p qo'llanilgan.⁶⁹ Muromachi davri (1333-1568) oxirlarida ham 「はわ」 *hava* shaklidan boshqa はは—*haha* va lotin tilida yozib qoldirilgan manbalar mavjud. Hozirgi kunda esa はは—*haha* shaklida talaffuz qilishga qaytilgan.⁷⁰

Yuqorida ikki tilda ona so'zining paydo bo'lish tarixi haqida hamda ona so'zining bosh ma'nolari to'g'risida so'z yuritildi. Endi onaning turli ma'noviy qirralarini o'zbek va yapon tillarida solishtirib ketamiz.

2. Ona termini ayolning o'zi tug'ib o'stirgan yoki asrab olgan farzandlari (o'g'il yoki qiz) tomonidan ana shu *ona* so'zi bilan shu ayol shaxsini boshqa qarindoshlardan farq qiladi.

*Yo'q! Bu o'z **onasi** emas, qo'shni xotin Xalima xola edi.*

— *Xola, onam qayerga ketganlar? — so'radi bolalardek soddalik bilan Mirahmad. (Oila va jamiyat)*

Yapon tilida ham oilada farzandni tug'ib, voyaga yetkazgan ayol atrofdagi boshqa qarindoshlardan aynan shu so'z orqali farqlanadi:

母の手一つ育った。 **Haha** no te hitotsu sodatta. **Onasi** qo'lida yolg'iz o'sdi.

母は五人の子供を生んだ。

Haha va gonin no kodomo o unda.

Ona beshta farzandni dunyoga keltirdi.

女は弱し、されど母は強し。

Onna va yovasi, saredo **haha** va tsuyosi.

Ayol kuchsiz bo'lishi mumki-u, lekin **ona** kuchli bo'ladi.

⁶⁹ 新村出 (1998) 「広辞苑」第五版、岩波書店 p.1984

⁷⁰ 並木孝 (1981) 「国語大辞典 (新装版)」言語研究所、小学館、p.1984

化粧を落とした時、母にはほとんど眉がなかった。⁷¹

Kesyou o otosita toki, haha niva hotondo mayu ga nakatta.

Yuzdagi bo'yoqlarini yuvib tashlagan paytida, onamning deyarli qoshi yo'q edi.

O'zbek tilida o'g'il va qiz farzandlar o'zlarini tug'ib o'stirgan ayol shaxsga nisbatan yuqoridagi ona terminidan tashqari– oyi, aya, acha, buvi, ena, opa terminlarini ham ishlatadilar.⁷²

3. O'zbek tilida “ona”- oila boshlig'i tarbiyachisi ma'nosida ham qo'llaniladi:⁷³

Bular uchun alohida qozon osilarmidi. Siz hammasining onasi, u kishi – ota. Usta bolani juda yaxshi ko'radilar.(A.Qahhor, Tomoshabog')

Yapon tilida ham ona oila boshlig'i, farzand tarbiyasida asosiy rol o'ynovchi insondir. Bu ma'noviy jihatdan ikki tilda ham o'xshashlik mavjud.

Yapon tilida “ona” atamasi sifatida 母—(はは—*haha* bosh neytral so'z hisoblanadi, lekin bola onasiga murojaat qilganda bu so'zni ishlatmaydi. Buning uchun alohida boshqa ona bilan bog'liq so'zlar mavjud bo'lib, ular aynan shu ieroglifning o'zagida yasaladi. Bular お母さん—*okasan*、母上—*hahaue*、お母様—*okasama*、お母ちゃん—*okachyan*、母堂—*bodou*、母親—*hahaoya*、家母—*kabo*、母君—*hahagimi*、慈母—*jibo* kabilarning barchasi ona ma'nosini anglatib, turli vaziyatlarda ishlatiladi. Ularning har biri to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Bundan tashqari, ママ—*mama*、母上—*hahaue*、おふくろ—*ofukuro* kabi sinonimlari ham mavjud bo'lib, yuqoridagi 3 ta so'z ham bola onasiga yuzlanib chaqirganda ishlatiladi, lekin ular turli vaziyatlarda

⁷¹ 唯川恵 (1998) 「病む月『愛される女』」集英社、p.159

⁷² Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 14

⁷³ Ma'rufov Z.M. “O'zbek tilining izohli lug'ati”Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981 y.

qo'llaniladi. Yapon tilining izohli lug'ati 類語新辞典 da *haha-onaning* quyidagi bir necha ma'nolari berilgan.

1. **母親—hahaoya** – onani anglatuvchi oddiy so'z, asosan ota va ona deb aytilgan paytda onani ko'rsatish uchun ishlatiladi. Bu so'zda onaning ota-ona sifatidagi holatiga urg'u beriladi:

母親のいない子供。 **Hahaoya** no inai kodomo. **Onasi** yo'q bola.

母親に心配を掛ける。

Hahaoya ni shinpai o kakeru.

Onasini havotirga solmoq.

2. **お袋—おふくろ—ofukuro**—asosan erkaklar o'zining onasini yaqin olib shu terminni qo'llaydi va farzandning yoshi nisbatan katta bo'lganda ishlatiladi.. Erkaklar tomonidan onaning aytib chaqirilishi bo'lib bunday termin o'zbek tilida uchramaydi. Chunki o'zbek tilida qarindoshchilik terminlarida erkak kishi va ayol kishi uchun alohida maxsus so'zlar mavjud emas. Yapon tilida esa shunga o'xshash terminlarning qo'llanilishi orqali kim nutq so'zlayotganini aniqlash mumkin.⁷⁴

郷里のお袋に手紙を書く。 *Kyouri no **ofukuro** ni tegami o kaku.*

Tug'ilgan yurtimdagi **onamqa** xat yozdim.

お袋の味。 **Ofukuro** no aji. **Onam** tayyorlagan taomning mazasi.

Qadimda eski yapon tilida *ofukuro* rasmiy muloyim murojaatni, ya'ni hurmatni bildirib kelgan termin bo'lgan.⁷⁵

⁷⁴晋大野、正人浜西1981年、「類語新辞典」角川書店

⁷⁵林四郎、野元菊雄（2000）「例解 新国語辞典」第五版、三省堂、p.442

3. ママ – *mama* – onaning kichraytirma –erkalatish ma’nosi hisoblanadi, ko’pincha onasini farzandning yoshi nisbatan kichik yosh bolalar erkalab chaqirgan paytda ishlatiladigan bolalarcha nomlash termini. Bu termin yapon tiliga yevropa tillaridan kirib kelgan bo’lib, hozirgi kunda rus, ingliz, ispan, portugal tillarida ayni paytda mavjuddir. Yaponiyada ham mamlakatning butun qismida emas, asosan qo’llanilish markazi poytaxt Tokio hisoblanib, Kansai, Tohoku, Kyusyu, Okinava orollarida unchalik qo’llanilmaydi. O’zbek tilidagi “oyi”, “oyijon” deb murojaat qilishga to’g’ri keladi.

ママ、学校からのお知らせだよ。

Mama, *gakko kar no oshirase dayo.*

Oyijon, *bu maktabdan kelgan xabar – ku.*

ママがいいといったから遊園地へ連れて行ってあげよう。

Mama *ga ii to itta kara yuenchi e tsurete itte ageyo.*

Oyijonim *yaxshi deb aytganlari uchun bog’chaga olib borib beraman.*

ママ – *mama* bola tomonidan shunday murojaat qilib chaqirilishidan tashqari “ona” o’zi haqida birovlariga gapirgan paytda o’zini nazarda tutib ko’rsatgan paytda ham ishlatiladi. Yana er va qaynona oilaning boshqa a’zolariga bolaning onasini chaqirib murojaat qilganda *mama* deb qo’llaniladi.

Bundan tashqari , ママ – *mama* turli xildagi ovqatlanish joylari – kafe, bar, turli do’konlar, savdo shahobchalarining ayol boshqaruvchisiga nisbatan ham ishlatiladi. Bu vaziyatda mehmonlar va ishchilar o’z ayol xo’jayni hamda boshqaruvchi xonimni shunday atab nomlaydilar va murojaat qiladilar. Masalan,

あの店のママに相談にのってもらった。

Ano ten no mama ni sodan ni note moratta.

Ana u do'konning **onasi** bilan maslahatlashib oldim.⁷⁶

Ko'rib turganimizdek bu gapda *do'konning onasi* -boshqaruvchi ayoli ma'nosida kelmoqda. Ona terminining bunday qo'llanilish shaklli ma'nosi o'zbek tilida uchramaydi.

Masalan , farzand o'z onasini chaqirgan paytda, biror inson boshqa begona shaxsni yaqin olib chaqirganda *haha* emas, お母さん—*okasan*- deb chaqiriladi, bu o'zbek tilidagi oyi, oyijon, ena, aya kabilarga to'g'ri keladi.

4.母—かか—kaka – yosh bola onasiga erkanib uni yaqin olib, shunday murojaat qilganda qo'llaniladi. Ba'zi hollarda hurmat shakli old qo'shimcha お—o oldiga qo'shilgan holda, ba'zan 様—sama⁷⁷ hurmat shakli suffiksi qo'shilib onaga nisbatan hurmat-ehtiromni anglatib keladi.

5.お母様—おかあさま—okasama - お母さん—*okasan* ga qaraganda muloyim shaklli so'z bo'lib, お母さん—*okasan* so'ziga 様 *sama* –hurmat formasi qo'shilganda お母様 – *okasama* - onani hurmat qilib, yanada yaqin olib murojaat qilinganda qo'llaniladi.. Hurmat kategoriyasi so'zlari bilan birga ishlatiladi. O'z onasi haqida birovlariga aytganda va ko'pincha begonalarning onasini hurmat qilib ishlatiladi:

お母様ご飯を召しあがりますか。

Okasama gohan o meshiagarimasuka.

Onajonim ovqatingizni tanovvul qilib olasizmi?

⁷⁶遠藤織枝、小林賢次(1994)「使い方の分かる「類語例解辞典」A dictionary of synonyms in japanese」小学館

⁷⁷ Лаврентов Б.П. «Практическая грамматика японского языка» Москва «Живой язык» 2002 г стр. 25-26

Shu o'rinda o'zbek tilida ona terminining sinonimi sifatida arab tilidagi *valida*⁷⁸ termini ham keng ma'noda ishlatilganligini ham ta'kidlash joiz. *Valida* termini o'zbek tilida bugungi yozma adabiyotlarda tez-tez uchrab turadi. Yapon tilidagi onaning おかあさま—*okasama* ma'noviy ko'rinishi o'zbek tilidagi *muhtarama* ona yoki *validai muhtarama* ma'nosiga to'g'ri keladi. Chunki *validai muhtarama* birikmali so'zi o'zbek tilida nafaqat o'zining, balki begonalarning onasini ham hurmat qilib fikr bildirganda ishlatiladi, lekin murojaat qilganda bu so'z qo'llanilmaydi.

お母様はお元気でいらっしゃいますか。

Okasama va o genki de irassyaimasuka.

Validai muhtaramangiz sog'- salomat yuribdilararmi?

Ko'rib turganimizdek, o'zbek tilidagi —jon affiksoidini qo'shgan holda ham *valida* sinonimi orqali ham onani hurmatlash ma'nosini berish mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yapon tilidagi prefiks お—o hurmat shakli qo'shimchasi bo'lib, ba'zida tushirib qoldirilib talaffuz qilsa ham bo'ladi.⁷⁹

6. お母さん—*okasan* — onani anglatuvchi standart, umumiy atab murojaat qiluvchi so'z larda biri. O'zbek tilida *oyi*, *oyijon*, *ena*, *aya* kabi tarjima qilinadi. Qadimgi Yaponiyada Edo davrida yuqori tabaqa vakillarining o'rta sinf martabasiga ega shaxslar qo'llashni boshlab, Meiji davrining 36-yili(1903-yil) oddiygina o'rta maktabning darsligida qo'llash uchun qabul qilinib shu tariqa tezlik bilan bu termin barchaga tarqalib ketdi hamda termini qo'llash keng doirada amalga oshiriladigan bo'ldi. Bu termindan avval おつかさん—*okkasan* ko'rinishi ko'p qo'llanilar edi. Aynan shu so'zning fonetik o'zgargan holati edi. Hozirgi kunga kelib esa zamonaviy yapon tiliga yevropa tillaridan o'zlashgan

⁷⁸ «Узбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат» Тошкент, Уз ФА нашриёти, 1953.

⁷⁹ Xolmirzaeva N “Yapon tili” 初級用. Toshkent, Zarqalam. 2005

ママ—*mama* termini kirib kelgan va keng omma tomonidan qo'llanilmoqda:⁸⁰

お母さん電話ですよ。 Okasan oden va desuyo. Oyijon telefon jiringlayapti.

Odatda o'zining onasi haqida begonalarga nisbatan gapirgan paytda 「母」 –

はは—*haha* ishlatiladi-yu, lekin onaning o'ziga yuzlanib murojaat qilinganda

お母さん—*okasan* qo'llaniladi, yana er xotinini shunday deb murojaat qilib

yuzlanish hollari uchraydi. Yapon tilida ona- お母さん asosan quyidagi hollarda

qo'llaniladi: a) bola onasi chaqirgan paytda;⁸¹

「お母さーん!」 Okasan! Oyijon!

b) ona bolasiga nisbatan o'zini nazarda tutib gapirgan paytda;

「お母さーん」「はい、お母さんはここにいますよ。」

[*Okasan*] Hai,okasan va koko ni imasuyo.

Oyijon! Labbay, oying shu yerda!

c) er rafiqasiga yuzlanib bolasining onasi sifatida gapirganda; ⁸²

「お母さん、茶をくれ。」

Okasan ochya o kure.

Oyisi, choy olib kel.

d) dialog, og'zaki so'zlashuvlarda suhbatdoshi (begona) ning onasi haqida eslatgan vaziyatlarda.⁸³

「お母さんはどこに行ったの?」

⁸⁰林道義著『母性の復権』（『中公新書』）中央公論新社、1999年10月

⁸¹ daigakuin.soka.ac.jp/.../23_kyoiku2.pdf

⁸² 藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社 952冊

⁸³ 「母親、お母さん」 <http://www.37c.com.cn/literature/library/theory/105/1050702.html>

Okasan doko ni itta no?

Oyinqiz qayerga ketganlar?

Yuqoridagi holatda ota bolalariga yuzlanib ularning onasi haqida gapirmoqda. Bu terminning qo'llanilishi haqida keyingi bo'limda batafsilroq to'xtalamiz.

7.お母ちゃん—おかあちゃん—okachyan – onaning erkalatib-kichraytirib ishlatiladigan murojaat shakli bo'lib,お母さん— *okasanga* qaraganda oddiyroq va sodda termin hisoblanadi. Asosan yosh bolalar tomonidan ishlatiladi. Yapon tilida **ちゃん** – *chyan* qo'shimchasi so'zlarga erkalash, kichraytirish ma'no bo'yoqlarini beradi.:

お母ちゃんお弁当を作ってくれて。⁸⁴

Okachyan obento o tsukutte kurete.

Oyijon tayyor ovqat qilib bering.

O'zbek tiliga お母ちゃん oyijon deb tarjima qilindi, tarjimada – **jon** affiksoidi o'zbek tilida *ona*, *aya*, *oyi* terminlariga qo'shilib kelib asosan erkalatish, erkalash, murojaat qilinuvchiga nisbatan o'zini yaqin tutish ma'nolarini ifodalaydi.

Oyijon, albatta, domlaning aytganlarini olib borishim kerak, yo 'qsa...(Oybek, Bolalik)

Bundan tashqari, turli xil shaklli so'zlarni qo'llash mumkin, ayniqsa hozirgi kunda o'zbek tili leksikasida kundalik hayotimizda ona ma'nosida *opa*, *opajon* terminlarini ham qo'llash holatlarini kuzatishimiz mumkin. Mana shu opa garchi oilada o'zidan katta qiz bola qarindoshga nisbatan ishlatiluvchi so'z bo'lsa-da, bu termini ona o'rnida qo'llovchilarni ko'p uchratamiz. Yapon tilidagi bu ma'nodagi onaning tarjimasida ham aynan shu *opa*, *opajon*

⁸⁴愛知大学中日大辞典編纂処（編）、中日大辞典 増訂第2版、大修館書店、1987、

kichraytirish-erkalash ma'nosini beradi. Shu tufayli bu o'rinda "opajon" shaklini qo'llash ham o'rinli bo'lur edi.

8. おつかあ—okka – ona yoki rafiqani yaqin olib murojaat qilish shakli:

おつかあくれぐれも体に気をつけな。

Okka kureguremo karada ni ki o tsukena.

Onajonim qancha gapirsak ham sog'lig'ingizni ehtiyot qilmaysiz-a.

O'zbek tilida ham onasini yaqin olib onam-onam, onajonim kabi iboralarni qo'llash holatlari ko'p uchraydi. Bundan tashqari, *-jon+gina+m* formasidagi affiks o'zbek tiliga xos bo'lib, *onajonginam*, *oyijonginam*, *ayajonginam* formalari asosan onasini, oyisini o'ziga juda yaqin tutish, hurmatlash, achinish kabi ma'no bo'yoqlarini ifodalaydi:

9. 家母 – かぼ – kabo – bir uyning, oilaning ayol xo'jayni sifatidagi ona.

Birovlarga nisbatan o'zining onasi haqida gapirganda qo'llaniladi.

O'zbek tilida *ona* termini III shaxs birlik, egalik affiksi olgan *boshi* so'zi bilan birga *ona boshi* formasida keladi va oilaning boshlig'i, ayol xo'jayni ma'nolarida keladi. Bu ma'nosiga ko'ra ikki tilda ham o'xshashlik mavjudligini kuzatish mumkin.⁸⁵

*Nafisa yoshlar ichida allaqachon bo'lg'usi onalik hurmatini qozongani, gapida ham, ishida ham salmoqli, qizlargagina emas, yigitlarga ham **ona boshi** bo'lib qolgan edi.* (A.Muhtor, "Tug'ilish")

10. 愚母⁸⁶ – ぐぼ – gubo – o'z onasining kamtarlik shakli. Kamsitish ma'nosida

ham ishlatiladi, o'z onasini pastroq qo'yib, birovning onasini hurmat qilib yuqoriroq qo'yganda ishlatiluvchi so'z:

明日**愚母**が参上いたします。

Asita **gubo** ga sanjyou itasimasu.

⁸⁵ Ma'rufov Z.M. "O'zbek tilining izohli lug'ati" Moskva "Rus tili" nashriyoti 1981 y.

⁸⁶ 風間喜代三、長谷川（1992）『言語学百科事典』大修館書店

Ertaga onaginam keladi.

Onaning bu shakli kamtarlik bo'lgani uchun hech qanday hurmat qo'shimchalari qo'shilmaydi, balki kamtarlik shakli so'zlari bilan birga qo'llaniladi. O'zbek tiliga ham oddiygina *ona yoki onayizor* deb tarjima qilinadi. O'zbek tilida yapon tilidagi onaning bu shakli uchun alohida so'z mavjud emas. Bu ikki tildagi farqli jihat deyish mumkin.

11. 母上—ははうえ—hahaue —onaning rasmiy muloyim murojaat shakli bo'lib, bugungi kunda juda kam hollarda qo'llaniladi(deyarli qo'llanilmaydi), ko'pincha yozma adabiy matnlarda, badiiy uslubda, turli xildagi maktublar, xat-xabarlar yozganda ishlatiladi. Otaning 父上—chichiue shaklining xuddi o'zi bo'lib, ikkovi birga juft holda ham keladi.

母上どうかお許してください。⁸⁷

Hahaue douka o yurusi kudasai.

Onajon barchasi uchun meni kechiring.

母上からの便りを懐かしく拝見しました。

Hahaue karano tayori o natsukashiku haikenshimasita.

Onajonimdan kelgan xatni iliq xotiralar bilan o'qib chiqdim.

母上—ははうえ—hahaue bola onasiga yuzlanib chaqirgan paytda ham ishlatiladi. Bu termin onani hurmat qilib, yaqin olib ishlatiluvchi so'zlar (お母さん-okasan、ママ-mama、お袋 – ofukuro kabi) qatoriga kiradi.⁸⁸ Lekin ko'pincha bu termin suhbatdoshining onasi, 3-shaxsga nisbatan ishlatiladi. O'zbek tilida ona, onajon deb beriladi, yapon tilidagi bu terminga aynan o'xshash shaklli termin mavjud emas.

⁸⁷ 晋大野、正人浜西(1981)「類語新辞典」角川書店

⁸⁸ 遠藤織枝、小林賢次「使い方の分かる(1994)「類語例解辞典」小学館

12.母君—ははぎみ—hahagimi- 3-shaxs, o'zidan begona, birovning onasini hurmat qilib, unga nisbatan ishlatiluvchi rasmiy muloyim termin. O'zbek tiliga sizning onangiz, sizning oyijoningiz deb tarjima qilinadi:

母君には古くからお付き合いいただいています。

Hahagimi niva furuku kara otsukiai itadaite imasu.

Onangiz bilan avvaldan tanishman.

北の方も、母君を憎しと思ひ聞え結ひける心も失せて。

Kita no kata mo, hahagimi o nikusi to omohi kie musuhikeru kokoro ushinasete.

(源氏物語)⁸⁹

Valida termini o'zbek tilida bugungi yozma adabiyotlarda tez-tez uchrab turadi. Yapon tilidagi 母君—hahagimi onaning ma'noviy ko'rinishi o'zbek tilidagi muhtarama ona yoki validai muhtarama ma'nosiga to'g'ri keladi. Chunki validai muhtarama birikmali so'zi o'zbek tilida nafaqat o'zining, balki begonalarning onasini ham hurmat qilib tantanavor tarzda qayd qilib, fikr bildirganda ishlatiladi.⁹⁰

13.母御—ははご—hahago – ma'no jihatdan 母君—hahagimiga o'xshab

ketadi, ya'ni o'zganing onasi haqida hurmat shaklli ona terminini ishlatib gapiriladi. Bu ham onaning rasmiy muloyim shakli:

母御は心配なさるから早くお帰りなさい。

Hahago va shinpai nasaru kara hayaku okaerinasai.

Oyingiz havotirga tushadilar, shuning uchun tezroq qaytib keling.

⁸⁹ 「母君に色々な例文」 <http://jca-library.jp/resource/kiyou/PDFfile/06-06.pdf>

⁹⁰ «Узбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат» Тошкент, Уз ФА нашриёти, 1953.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yapon tilida qarindosh –urug'chilik terminlari suhbatdoshning uzoq-yaqinlik psixologik munosabatiga ko'ra terminlarning qo'llanilishi ham bir-biridan farq qiladi. Jumladan birgina ona terminining atrofdagi odamlarning psixologik yaqinlik munosabatiga ko'ra turli xil shaklli ko'rinishlari mavjud. *Hahago* ham xuddi shunday aqsosan o'ziga nisbatan uzoqroq odamning onasi haqida hurmat bilan gapirganda ishlatiladi. O'zbek tilida esa bu terminning aynan o'xshash variant yo'q, shu sababli tarjimada onangiz, ba'zida volidangiz deb berilishi ham mumkin.

14.母堂—ぼどう—bodou- 3-shaxsning onasi haqida gapirganda yoki suhbatdoshining onasining hurmat shakli. O'z onasiga qo'llanilmaydi. Asosan yozma uslubda turli xil maktublar yozganda, badiiy uslubda qo'llaniladi:

恩師の母堂は高齢であられる。

*Onshi no **bodou** va korei de arareru.*

*Hurmatli o'qituvchimizning **onalari** yoshi ulug' zot ekan.*

O'zbek tilida **–lar** ko'plik qo'shimchasi ham mavjud bo'lib, u otlarga, atoqli otlarga, olmoshlarga qo'shilganda ko'plikni emas, baki begonalarga, so'zlovchining o'zidan yoshi katta shaxslarga nisbatan hurmatni ifodalaydi.⁹¹ Yuqoridagi yapon tilidagi onaning ma'nosida birovning ya'ni so'zlovchiga shunchaki tanish bo'lib, u bilan unchalik yaqinlikka ega bo'lmagan shaxsning onasi haqida gapirganda o'zbek tilida onalari yoki volidalari deb tarjima qilinadi va ma'no jihatdan ikki tilda ham bir xillikni ko'rish mumkin.

先生のご母堂が亡くなられた。

*Sensei no **gobudou** ga nakunarareta.*

*Ustozimning **onalari** vafot etibdilar.*

⁹¹ Hamroev M.A "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi" Toshkent-2004

ご母堂様にはすっかりごぶさたしております。⁹²

Gobudousama niva sukkari gobusatasite orimasu.

Hurmatli validangizdan anchadan beri xabar yo 'q.

Ko'rib turganimizdek, yapon tilida uzoqroq tanishlarga, o'zgalarga nisbatan yuqori darajadagi hurmat kategoriyalari qo'llaniladi. Old hurmat shakli qo'shimchasi ご—go va 様—sama qo'shimchalari va hurmat kategoriyasi so'zlari qo'llaniladi, ya'ni butun gap hurmat uslubida beriladi. Yuqoridagi onaning 3 xil ko'rinishi(母君—ははぎみ—hahagimi,母御—ははご—hahago,母堂-

ぼどう —bodou) ma'no jihatdan bir-biriga juda yaqin bo'lib, 3-shaxsning yoki suhbatdoshining onasi haqida fikr bildirganda ishlatiladi, lekin hozirgi zamonaviy yapon tilida bu so'zlar unchalik qo'llanmayapti.⁹³ Shu o'rinda yapon tilidagi ushbu onaning 3 xil ma'noviy ko'rinishiga *valida* terminini mos kelishini aytish mumkin. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida yuqorida aytganimizdek, ona terminining sinonimi sifatida ishlatilib, onani ulug'lash, uni yuqori darajaga ko'tarish, ulug' inson , siymo sifatida tasvirlash jarayonida *valida* termini *ona* termini bilan barobar ishlatiladi:

Mehrigiyo validam meni ardoqlab o'stirdi. (O'tkir Hoshimov)

Mehribon validalar hayotning zavq-shavqini , go'zalligi va lazzatini o'z jigargo'shalarida ko'rishadi. ("Oila va jamiyat" gaz.)

Ikkinchi qiz mening validam qutluq Nigorxonim edi. (Bobur)

⁹²藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社

⁹³遠藤織枝、小林賢次(1994)「使い方の分かる」「類語例解辞典」A dictionary of synonyms in japanese」小学館

15.母者人－ははしゃびと－**hahasyabito** – bola onasini yaqin olib ,
erkalab aytadigan soʻz. Oʻzbek tilida oyijon, onajonga toʻgʻri keladi.

16.慈母－じぼ－**jibo**—mehr-muhabbatining chek-chegarasi yoʻq, farzandini
qattiq yaxshi koʻradigan mehribon onaga nisbatan bu termin qoʻllaniladi:⁹⁴
Oʻzbek tilidagi *onaginam*, *onayizor* soʻzlariga oʻxshash termin.

慈母のように慕われる。

Jibo no youni shitavareru.

Mehribon onasidek uni yaxshi koʻradi.

慈母の愛情に包まれる。

Jibo no aijyou ni tsutsumareru.

Onalik muhabbati uni butunlay chulgʻab olgandi.

Yapon tilidagi bu termin asosan oʻzganing yaʼni suhbatdoshining onasi haqida suhbatdoshiga aytib, fikr bildirganda qoʻllaniladi. Oʻzbek tilida *mehribon ona* yoki *onalik* deb tarjima qilinadi. –**lik** affiksoidi bilan kelgan ona termini, asosan mavhum maʼnoga ega boʻlib, biror shaxsga onalik qilish, unga mehribon boʻlish, oʻz bolasi va begona bolaga nisbatan mehr, sevgi tuygʻusini bildirish kabi maʼno boʻyoqlarini ifodalab keladi.⁹⁵ Yapon tilidagi 慈母－じぼ－*jibo* onaning ushbu maʼno shakli oʻzbek tilidagi onalik maʼnosining xuddi oʻxshash variant deb hisoblash mumkin. Chunki maʼno jihatdan ikkisi ham deyarli bir xil : —*Toʻsatdan vujudini qamragan onalik mehri gʻolib kelib, ayol tortgan azobini ham esdan chiqardi.* (P.Qodirov, ”Yulduzli tunlar”)

⁹⁴ 林四郎、野元菊雄（2000）「例解 新国語辞典」第五版、三省堂、p.442

⁹⁵ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 24

Bola kampirning so'zlarini tushunmasa ham, uning issiq onalik mehridan eridi-da, quvonchdan sakrab o'rnidan turib, kampirga yopishdi. (I. Rahim, Chin muhabbat)

慈母 観音。 Jibo kanon. Mehribon ona Kanon xudosi.

Kanon buddizm dinida ayol xudo hisoblanib, rahm-shafqat, rahmdillik xudosisidir. Shuning uchun ham onaning bu ma'nosi ko'pincha shu buddizmning Kanon xudosiga qiyoslanadi.⁹⁶

17. 賢母一けんぼ一kenbo – aqli, oqila, dono, donishmand ona ma'nosidagi termin:

さすが賢母に育てられた人は違う。

Sasuga kenbo ni sodaterareta hito va chigau.

Haqiqatan aqli ona qo'lida tarbiya ko'rgan inson boshqalardan farq qiladi.

良妻賢母。 Ryou Sai kenbo. Yaxshi xotin – aqli ona bo'ladi.

Yapon tilidagi onaning bu ma'noviy shakli birgina so'z bilan beriladi, lekin o'zbek tilida aqli ona deb so'z birikmasi holida tarjimada beriladi.

18. 聖母一せいぼ一seibo – xristian dinining onasi – Bibi Maryam, ya'ni xudo Iusus Xristosning haqiqiy onasi yapon tilida shu termin bilan beriladi.

聖母の像。 Seibo no zou. Muqaddas Bibi Maryam ona haykali.

Yuqoridagi 3 termin ya'ni, 慈母—jibo, 賢母—kenbo、聖母—seibo so'zlari o'rtasida o'zaro bog'lik mavjud bo'lib, bu 3 so'z ham onaning qandaydir sifatlarini baholagan, uning xususiyatlarini ta'riflagan.

⁹⁶晋大野、正人浜西1981年、「類語新辞典」角川書店

19. 老母—ろうぼ—roubo – qari, yoshi ancha katta, yoshi ulug' ona ma'nosidagi termin bo'lib, asosan o'zining onasi haqida begonalarga aytganda ishlatiladi:

八十歳の老母を独り残している。

Hachijyu sai no roubo o nokoshite uru.

*Sakson yoshli nuroni**y onaxon** yolg'iz o'zi qolibdi.*

O'zbek tilida nuroniy ona, nuroniy onaxon tarzida tarjima qilinadi. O'zbek tilida –**xon** affiksoidi ham mavjud bo'lib, u ham ona terminiga qo'shilib begona nuroniy, yoshi katta shaxsga nisbatan murojaat qilishda shu shaxsni o'ziga yaqin tutib, uni hurmat qilish ma'nosini anglatadi. Shu o'rinda *aya* termini ham mavjud bo'lib, aya nisbatan o'rta yoshli ayollarga nisbatan qo'llaniladigan termin. Ona esa albatta 50 yoshlardan oshgan shaxs bo'lishi shart. Shuning uchun ham yapon tilidagi nuroniy ona ma'nosidagi bu terminga aynan o'zbek tilidagi onaxon termini mos keladi.⁹⁷

20. 実母—じつぼ—jitsubo – shu odamni dunyoga keltirgan haqiqiy onasi:

実母は昨年死亡した。

Jitsubo va sakunen shibosita.

Haqiqiy onam otgan yili vafot etganlar.

O'zbek tiliga haqiqiy ona tarzida tarjimada berilishi mumkin. Yapon tilida birgina so'z bu ma'noni anglatasa, o'zbek tilida so'z birikmaga to'g'ri keladi.

21. 生母—せいぼ—seibo – bu tuqqan ona ma'nosidagi termin bo'lib, **実母—jitsubo**- dan farqi u haqiqiy ona ma'nosida bo'lsa, **seiboda** esa aynan farzandni dunyoga keltirgan ona ma'nosiga urg'u beriladi. Faqat kitobiy yozma uslubda ko'p qo'llaniladi.

⁹⁷ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 17

生母とは生き別れになった。⁹⁸

Seibo tova ikivakare ni natta.

Tuqqan onam bilan bir umrga ayrilganmiz.

早く亡くなったので 生母の顔は覚えていない。

Hayaku nakunatta node seibo no kao va oboete inai.

Erta vafot etganlari sababli tuqqan onamning qiyofalarini eslay olmayman.⁹⁹

O'zbek tiliga tarjimada tuqqan so'zidan tashqari o'z so'zini qo'shib o'z onam tarzida ham berilishi mumkin.¹⁰⁰ Shunday qilib, yuqorida yapon tilidagi 21 xil onaning turli ma'noviy shakllarini ko'rib chiqib, ularni o'zbek tili bilan solishtirib ketdik, natijada yapon tilidagi onaning ma'nolari bir so'z bilan ifodalanishi, o'zbek tilida esa ba'zi so'zlar so'z birikmasiga tog'ri kelishi, ba'zi yapon tilidagi terminlarning o'zbek tilida aynan o'xshash varianti mavjud emasligi aniq bo'ldi.

Ushbu bo'limda "ona" terminining ikki tilda qo'llanilish doiralari haqida so'z boradi. Yapon tilida ona- お母さん asosan quyidagi hollarda qo'llaniladi:

a) bola onasi chaqirgan paytda;¹⁰¹

「お母さーん!」 Okasan! Oyijon!

Bu holatda o'zbek tilida ham mavjud bo'lib bola onasiga oyijon, oyi, ena, aya deb murojaat qilganda qo'llaniladi va bu yapon tili bilan aynan o'xshash vaziyatdir:

—Aya ayta qoling, qayerga boramiz? – deya yana yalindim. Ayam indamadi.

b) ona bolasiga nisbatan o'zini nazarda tutib gapirgan paytda;

「お母さーん」「はい、お母さんはここにいますよ。」

⁹⁸ 「生母の意味」 www.kazokukankeigaku.org/.../journal-info

⁹⁹ 愛知大学中日大辞典編集部（編）、中日大辞典 増訂第2版、大修館書店、1987、

¹⁰⁰ Абдурахмонов Ф. (1954) Русча-узбекча луғат (Москва)

¹⁰¹ 「お母さんの使い方」 daigakuin.soka.ac.jp/.../23_kyoiku2.pdf

[Okasan] Hai, okasan va koko ni imasuyo.

Oyijon! Labbay, oying shu yerda!

O'zbek tilida ham ona bolasini oldida o'zini ko'rsatib, nazarda tutib ishlatiladi: Shu bolalarning oyisi bo'lib, o'qitdim, ulg'aytirdim, yaxshi inson qilib tarbiyaladim. (Sharq ziyokori)

c) er rafiqasiga yuzlanib bolasining onasi sifatida gapirganda; ¹⁰²

「お母さん、茶をくれ。」

Okasan ochya o kure.

Oyisi, choy olib kel.

「お母さんに聞いてごらん。」 ¹⁰³

Okasan ni kiite goran.

Oyijoningga quloq solib o'rgan.

Yuqoridagi holatda ota bolalariga yuzlaning ularning onasi haqida gapirmoqda.

Bu holatda o'zbek tilida ona, ena oyi kabi terminlarga III shaxs birlik, egalik affiksi –**si** qo'shilib kelib, asosan bolaning otasi tomonidan bolaning onasiga murojaat qilish formasi bo'lib, er rafiqasining ismini aytib chaqirmay oyisi, onasi, onajonisi, ayasi kabi sinonimik birliklarni qo'llab bolalarining onasi sifatida murojaat qilish hollarini hozirgi kunda ko'p uchratishimiz mumkin.¹⁰⁴

—Yaxshi kelib qolding, oyisi, tezroq choyingni ichib ol, bir joyga borib kelamiz.

—Hoy onasi, suyunchingni cho'z,

Turma, belbog' bog'la bu belga,

Senga deydi, Ro'zimat etikdo'z,

¹⁰² 藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社 952冊

¹⁰³ 船橋恵子、堤マサエ著（1992）『母性の社会学』（『女性社会学者による新社会学叢書』2）、サイエンス社、

¹⁰⁴ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 24

Quvonch to'ldi bildingmi dilga? (E. Rahim, Yangi qadam).

Bu vaziyatda o'zbek tilida nafaqat er bolasining onasi sifatida xotiniga nisbatan bu termini qo'llaydi, balki hozirgi kunda ko'cha-kuyda, jamoat joylarida, kasalxonalarda begonalar ham bolali ayolga nisbatan oyisi deb murojaat qilib qo'llash holatlarini kuzatish mumkin:

—Oyisi, qizingiz qanaqa kasal bilan og'rigan?

— O'tkir shamollash tufayli shu yerlarga kelib qoldik.¹⁰⁵

d) dialog, og'zaki so'zlashuvlarda suhbatdoshi (begona) ning onasi haqida eslatgan vaziyatlarda.¹⁰⁶

「お母さんはどこに行ったの?」

Okasan doko ni itta no?

Oyingiz qayerga ketganlar?

O'zbek tilida ona o'zining tuqqan onasi ma'nosidan boshqa subyektiv munosabatlarni ifodalash uchun ham qo'llanadi. Ismoilovda berilishicha:

1. Ismoilovning ta'kidlashicha, “ona qon-qarindoshlik termini sifatida turkiy tillarda umum ma'noga ega bo'lib, o'zbek tilida umum dialektal termin hamdir. Uning ma'nosi, fonetik variantlaridan qat'iy nazar, adabiy tildagi ona ma'nosini ifodalaydi.” Yapon tilida ham xuddi shu holatni kuzatish mumkin, ya'ni

母—*haha* ona qarindoshlik termini sifatida umum ma'noga ega bo'lib, boshqa barcha terminlar aynan shu ieroglifning ishtirokida unga yana bir boshqa ieroglifning qo'shilishi natijasida turli ma'no bo'yoqlariga ega, yangi ko'rinishdagi ona terminini yasashga xizmat qiladi, lekin asos baribir shu ieroglif hisoblanadi. Bu termin yapon tilida ham umum dialektal, ya'ni turli shahar, perefekturalar va orollarda umumiy ieroglif bo'lib, ma'nosi va fonetik o'zgarishidan qat'iy nazar *haha*-ona ma'nosini ifodalaydi.

¹⁰⁵ Hamroev M.A “O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi” Toshkent-2004

¹⁰⁶ <http://www.37c.com.cn/literature/library/theory/105/1050702.html>

2. Ona termini biror begona o'rta yoshlardagi ayol kishiga(shaxsga) nisbatan murojaat qilish uchun qo'llaniladi:

—Qayerdan keldingiz , ona? – dedi Yo'lchi.

Kampir kichkina samovarga olov solib, yigit yoniga qaytdi-da, erkakcha ovoz bilan...(Oybek, “Qutlug’ qon”). Elmurod kampirning samimiy muomalasini ko'rib:

—Salomat bo'ling, onajon! – dedi.

Bizning onamiz bo'ladilar, - dedi Abdurasul (Oila va jamiyat).

—jon affiksoidi o'zbek tilida begona shaxsga nisbatan ham murojaat qilish davrida, shu shaxsni yaqin tutish, uni hurmat qilish ottenkalarini ifodalaydi. Bundan tashqari, o'zbek tilida –xon affiksi ham mavjud bo'lib, u ham ona terminiga qo'shilib begona shaxsga nisbatan murojaat qilishda shu shaxsni o'ziga yaqin tutib, uni hurmat qilish ma'nosini anglatadi.¹⁰⁷ Lekin bu vaqtda uning ma'nosi –jon affiksi bilan yasalgan onajon ma'nosiga nisbatan hurmatlash, erkalash bo'yoqlari kuchliroq ifodalanadi:

—Domla otaxonimiz edilar, kelinimiz bizga onaxon bo'ladilar.(A.Qahhor, “To'yda aza”).

O'zbek oyimning obro'si yolg'iz shular bilangina cheklanib qolmas, uni o'rda xonimlari ham ehtirom qilib, o'zlarining “onaxonlari” deb bilar edilar. (A.Qodiriy, “O'tkan kunlar”)

O'zbek tilida bunday shaxslarga nisbatan begona kishilar tomonidan murojaat formasi uchun *aya* termini ham ishlatiladi. Lekin *ona* bilan *aya* terminlarining ishlatilish o'rinlari bir-biridan, asosan, shu murojaat qilinuvchi shaxsning yosh jihatidan bo'lgan farqlariga qarab qo'llaniladi. Ona albatta 50 yoshlardan oshgan shaxs bo'lishi shart. Aya esa u shaxsning 50 yoshgacha yoki

¹⁰⁷ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 22

hali o'zining tashqi ko'rinishida qarilik alomatlari sezilmagan ayolga nisbatan qo'llaniladi.¹⁰⁸

—*Ko'cha eshigi ochildi. Eshikdan kirganning qadam sharpasi uy yonida jim bo'ldi. Ayol o'zini panaga olib chaqirdi:*

—**Aya!** (Qibray sadosi).

O'zbek tilidagi bu *aya* termini ona ma'nosidan tashqari(aya termini ishlatuvchi shevalarda) tarbiya muassasalarda, bog'cha va yaslilarda, bolalarning o'z tarbiyachisiga, o'qituvchisiga nisbatan murojaat qilishi uchun ham qo'llaniladi. Bulardan tashqari, o'z qarindoshlariga nisbatan o'zidan kichik shaxslarning murojaatida ishlatiladi.¹⁰⁹

Yapon tilida ham begona o'rta yoshlardagi ayol kishiga (shaxsga) nisbatan お母さん—*okaasan*、ママ—*mama* – kabi terminlar qo'llanilish vaziyatlari mavjud bo'lib, *onajon*, *onaxon* ma'nosini anglatib shu tariqa murojaat qilish uchun ham qo'llaniladi.¹¹⁰

お母さんちょっと待ってくださいますか、私尋ねたものを見てきます。

Okaasan *chyotto matte kudasaimasenka, watashi tadzuneta mono o mite kimasu.*

Onajon, *ozgina kutib turolmaysizmi, men so'ragan narsangizni qarab kelaman.*

Yana yapon tilida bolaning onasi sifatida 母さん—*kaasan* ママ—*mama* ya'ni oyisi, onasi deb begona ayolga murojaat qilish hollari ham mavjud.¹¹¹

6. *Ona*, *aya* ayol shaxs otlaridan keyin kelib, murojaat va u shaxsni hurmatlash ottenkasini kuchaytirib keladi.

Masalan, o'zbek tilida : *Jamila Hoji **onaga**: **Onajon!**Boy ota bir oydan beri, seni olaman, deb hol-jonimga qo'ymaydi.* (Hamza “Boy ila xizmatchi”).

¹⁰⁸ Ma'rufov Z.M. “O'zbek tilining izohli lug'ati” Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981 y.

¹⁰⁹ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш., Хозирги ўзбек адабий тили, Тошкент, 1965, p.114

¹¹⁰ 唯川恵 (1998) 「病む月『愛される女』」 集英社、p.160

¹¹¹ 藤堂明保、鈴木一 (1972) 「例解学習漢字字典」 第四版、小学館、p.680

*Ra'no Xadicha **aya** chaqirgan go'shkuydi bilan bir kosa qaymoqni stolga keltirib, akasi atrofida pildirab yurgan, xatda o'z nomi chiqishini oshiqib kutayotgan edi. (H.Nazir, "So'nmas chqmoqlar").*

Yuqoridagi misollardan ko'rib turibmizki ona va aya terminlari o'zbek tilida nafaqat o'z onasiga nisbatan ishlatiladi, balki begona, qondosh bo'lmagan ayol shaxsiga nisbatan ham qo'llanilar ekan. Bu ikki terminning qo'llanilishi shu ayolning yoshiga nisbatan farqlanib ishlatiladi.

Shunda qilib, *ona* termini ikki tilda ham umum ma'noviy va umum dialektal so'z bo'lib, uning ma'no doirasi sinonimlariga, dialektlardagi yoki adabiy tildagi "mama"(rus tilidagi) ma'nosini ifodalovchi variantlariga nisbatan juda ham kengdir.

2.2. "Ona" birligining o'zbek va yapon tillaridagi ko'chma ma'nolari va qo'llanilishidagi o'ziga xosliklar

Ayrim so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari bo'ladi. So'zning gapdan tashqarida ifodalaydigan ma'nosi **bosh(o'z) ma'no** deyiladi. So'zning boshqa so'zlar yordamida aniqlanadigan, izohlanadigan ma'nosi **ko'chma ma'no** deyiladi.¹¹² Biz yuqorida ona so'zining bosh ma'nosi haqida so'z yuritdik. Endi esa ona terminining ikki tilda ko'chma ma'noda qanday xususiyatlari mavjudligi haqida so'z yuritamiz. Bu ona termini yordamida o'zbek va yapon tillarida tog'ridan-to'g'ri qoni qo'shilmagan ba'zi qarindoshlik va yaqinlik nomlarini, yangi ma'nodagi boshqa so'z turkumlarini yasash mumkin:

Ona Vatan, ona qalbi o'zbek tilidagi so'zlarni, 母国 – *bokoku* – *ona Vatan*, 母語 – *bogo* – *ona tili*, 母校 – *bokou* – *ona maktab*, 母体 – *botai* – *ona bag'ir*¹¹³ yapon tilidagi so'zlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Bu kabi xususiyatlar o'zbek tilida faqat ona terminida mavjud bo'lib, oyi, opa, buvi, ena,

¹¹² Hamroev M.A "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi" Toshkent-2004

¹¹³ <http://dSPACE.WUL.WASEDA.AC.JP/dSPACE/bitstream/2065/5469/1/kyoikushinrip35-45lee.pdf>

aya, oyijon terminlarida bu xususiyat ko'rinmaydi. Yapon tilida ham xuddi shunday holat kuzatiladi, ya'ni 母—haha so'zigina yuqoridagi misollardek turli ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Boshqa ko'rinishli terminlar お母さん、お母様、母上、母御、生母、実母 kabi onaning turli xil ko'rinishli ma'nolari bunday xususiyatga ega emas. Ona terminining bunday xususiyatiga so'zning ko'chma ma'noda qo'llanilishi deyiladi. Quyida o'zbek va yapon tillarida ona so'zining qon-qarindoshlik ma'nosidan boshqa ko'chma ma'noda qo'llanilish holatlari haqida so'z yuritiladi.

I. Ismoilov “Ona so'zi o'zbek tilida toponimika (shahar, qishloq, mamlakat yoki biror joy) shuningdek ishlab chiqarish korxonalari bilan birga kelib, shu nomlarning o'ziga qanchalik yaqin, mehribon ekanligini, o'z onasidek tarbiyalovchi, voyaga yetkazuvchi sifatida uni o'ziga yaqin tutish ottenkalarini berish maqsadini ifodalash uchun qo'shib ishlatiladi” deb yozadi:¹¹⁴

Qudrat (yuragini ushlab, jim qoladi). Ey mening shovvoz yuragim, sanchma! O'n yil sog'intirgan ona qishloq'imqa yetkazding minnatdorman. (N.Safarov, “Chin muhabbat”).

Respublikamiz mehnatkashlari kuni kecha Vatanimizning ona shahri Toshkentdan yana bir xush xabar eshitdilar. (“Xalq so'zi” gaz.)

Ona-suvning mehr va shafqatidan to'la bahramand bo'laylik. (“Xalq so'zi”)

Ko'rib turibmizki, ona inson uchun aziz va qadrli bo'lib qolgan joylarga nisbatan ham onadek muqaddas deb qo'llanilar ekan.

Xuddi shu asosda tarixan oltoy tillaridagi *ene* so'zi say(daryo) so'ziga qo'shilib Sibirdagi Enesey daryosining nomini ifodalagandir.¹¹⁵

Ekuvchi, to'quvchi ham tikuvchimiz

Ming turli mata ona tekstil.

Jahonning yarmini kuydiruvchi biz,

¹¹⁴ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 19

¹¹⁵ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 19

Muqaddas kasbingning zo'ri qadrini bil!

Bundan tashqari o'zbek tilida onadek qadrli, aziz bo'lgan narsalarga nisbatan *ona bag'ir, ona zamin, ona tabiat, ona qishloq* kabi ko'chma ma'noda qo'llaniluvchi birliklar ham mavjud.

Yapon tilida ham ona so'zi toponimika (shahar, qishloq, mamlakat yoki biror joy) biror ulug' dargoh, muassasalar bilan birga keladi va shu nomlarning o'ziga qanchalik yaqin, mehribon ekanligini, o'z onasidek tarbiyalovchi, voyaga yetkazuvchi sifatida uni o'ziga yaqin tutish ma'no bo'yoqlarini beradi. Umuman olganda inson uchun qadrli bo'lgan narsalar onaga qiyoslanadi. Masalan, tug'ilib o'sgan Vatani 母国 – *bokoku* – *ona Vatan*, 母語 – *bogo* – *ona tili*, 母校 – *bokou* – *ona maktab*, 母体 – *botai* – *ona bag'ir* kabi ko'chma ma'nodagi metaforik o'xshatishlar ham mavjud.¹¹⁶

四〇年ぶりに母国（祖国・故国）の土を踏んだ。

Yon jyu nen buri ni bokoku no tsuchi o funda.

40 yildan beri ona Vatanimning zaminida qadam qo'ydim.

Yuqorida ko'rib turganimizdek, yapon tilida 母—*haha* ieroglifiga boshqa bir ieroglif (so'z) qo'shilib, onaning *haha* o'qilishi yana bir ieroglifning qo'shilishi natijasida 母 – ぽ—*bo* tarzda o'qilib, xitoy tilidan o'zlashgan ieroglif o'qilishi bo'yicha (音読み—*onyomi*— xitoycha o'qilishli ierogliflar shunday ataladi) talaffuz qilinadi. Lekin o'qilishi o'zgarsa-da, ma'nosiga bu hech qanday ta'sir qilmaydi.¹¹⁷ O'zbek tilida ona Vatan kishi tug'ilib o'sgan, uning

¹¹⁶ 遠藤織枝、小林賢次「使い方の分かる「類語例解辞典」A dictionary of synonyms in japanese」小学館 1994年

¹¹⁷ Лаврентов Б.П. «Практическая грамматика японского языка» Москва «Живой язык» 2002 г стр. 25-26

uchun muqaddas sanalgan mamlakat hisoblanadi.¹¹⁸ Yapon tilida ham o'z tug'ilib o'sgan zamini , mamlakati 母国—*bokoku* ona Vatan deyiladi va iko'pincha chet elda yashayotgan fuqaro o'z mamlakati haqida gapirganda ishlatiladi. Ikki tilda ham bu holat bir xil.

母校 – *bokou* – ona maktab esa insonning qadrdon go'shasi ilm dargohiga ilk qadam qo'ygan kunidan to bitirgunicha ta'lim olgan maskanga nisbatan onadek qadrli ma'nosida ishlatiladi.

Bundan tashqari, 母港—ぼこう—*bokou* degan termin ham mavjud bo'lib, u o'z mamlakatidagi ro'yxatga oluvchi o'z *jonajon porti* yoki *ona portim*, ba'zan o'z *kemam* ma'nolarida qo'llaniladi. Yaponiya katta port mamlakat bo'lgani uchun ham bunday terminning mavjudligi tabiiy holdir, ya'ni mamlakatdagi tabiiy sharoitlar ham albatta tilning lug'at tarkibiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston geografik joylashuviga ko'ra katta suvlarga-okeanga yaqin joyda joylashmagan , shuning uchun ham mamlakatda port mavjud emas. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki bizning lug'at tarkibimizda ona port , ona kema shaklidagi terminlar mavjud emas. Bu ikki tildagi tafovutli jihatdir. Endi quyidagi jadvalga e'tibor qaratsak:

Yapon tilida ona bilan bog'liq birliklar	O'qilishi	Ma'nolari
1. 母国	<i>bokoku</i>	Ona Vatan
2. 母校	<i>bokou</i>	Ona maktab
3. 母港	<i>bokou</i>	Ona port
4. 母語	<i>bogo</i>	Ona tili

¹¹⁸ Ma'rufov Z.M. "O'zbek tilining izohli lug'ati" Moskva "Rus tili" nashriyoti 1981 y.

5.母国語	<i>bokokugo</i>	Ona tili
6.母体	<i>botai</i>	Ona bag'ir

Ushbu grafikda yapon tilidagi ona bilan bog'liq birliklar berilgan bo'lib, ona tili 母語 termini yapon tilida odamzot bolalik paytidan tabiiy ravishda eshitib o'rgangan til, eng yaxshi muomalada qo'llay oladigan birinchi darajali til ma'nosidagi so'zdir.¹¹⁹ Yuqorida ikki xil ona tili 母語、母国語 ko'rinishi berilgan bo'lib ularning farqi bor albatta. 母語—*bogo* bolalikdan tabiiy ravishda eshitib, muloqotda qo'llab o'rgangan tili bo'lsa, 母国語—*bokokugoda* esa tug'ilib o'sga mamlakatining davlat tili, mamlakatning butun xalqi uchun xos bo'lgan ona tili ma'nosiga urg'u beriladi.¹²⁰ 母語—*bogo* umumiy tarzda ishlatilmaydigan hududlarda ota-onasining ona tili sifatida bilib voyaga yetgan holatlardagi termindir. Masalan, hozirgi Koreyaning ma'lum hududlarida va Chyosanliklar yapon tilini ona tili sifatida qo'llaydilar, lekin Yaponiya ularning ona Vatani emas, shuning uchun yapon tili ularga o'z mamlaktining tili 母国語—*bokokugo* - o'z Vatanining ona tili bo'la olmaydi.¹²¹

O'zbek tilidagi ma'nosi go'daklikdan o'rgangan til, tug'ma til (odatda gapiruvchi shaxs mansub bo'lgan xalq tili) ma'nosida qo'llaniluvchi ko'chma ma'noli termindir. Shunday qilib, ona tili terminining ma'noviy jihatlari ikki

¹¹⁹ 「母の比喩的な意味」 sucra.saitama-u.ac.jp/.../download.php?file

¹²⁰ 「家族系額」 www.kazokukankeigaku.org/.../journal-info

¹²¹ ^ 在日朝鮮人2世である徐京植は、「在日朝鮮人2世として日本で生まれ育った私にとって、母語は日本語である。朝鮮語は私の母国語であるが、母語ではない。」と述べている。徐京植「母語と母国語の相克 (PDF)」、『人文自然科学論集』第126号2008年

tilda o'xshash bo'lib, deyarli bir xil vaziyatlarda qo'llanilar ekan. Faqat yapon tilida ona tili birikmasining ikki xil ko'rinishi mavjud bo'lib, o'zbek tilida bu holat uchramaydi.

Ona terminining ko'chma ma'nolari haqida ozmuncha bo'lsa-da tasavvurga ega bo'ldik. Endi yana boshqa ma'noviy ko'rinishlari haqida so'z yuritamiz. Ismoilovda berilishicha onaning yana quyidagi ma'nolari bor:

II. *Ona* so'zi uy hayvonlari va umuman, hayvonlar, parrandalarning ba'zi turlariga bolasi bor, urg'ochi jinsdagi turlariga nisbatan ham qo'shilib kelib u hayvon yoki parrandani aniqlab, ta'kidlab keladi:

*Sinchiklab qaradim. **Ona ayiq.** Lekin u ayiqchanning nola chekishiga parvo ham qilmaydi.*

Ona sigir g'unajinni molxonaga olib ketdi. (Mushtum).

III. *Ona* so'zi o'simliklarning(gulli, mevali o'simliklar, sabzavot ekinlari) urchish organi sifatida uni boshqa organlaridan ajratib ko'rsatuvchi termin sifatida –lik affiksi bilan keladi:

*Gulning qoq o'rtasida gul o'rindan yuqoriga ko'tarilgan **onalik** bor.*

Onalikning ostki qismi kengayib tuguncha hosil qilgan. (М.Бульская, Ботаника)

Bu yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlarda ona so'zining rus tilidagi “мама” ma'nosini ifodalovchi so'zlarga nisbatan uning ma'no doirasi va ishlatilish o'rinlari qanchalik keng va so'z yasash usullari xilma-xil ekanligidan, shuningdek ona so'zi umum va abstrakt ma'nolarni ifodalash xususiyatiga ega ekanligidan xabar beradi. Bu xususiyatlar *aya, oyi, ena, opa, buvi, oyijon* so'zlarida ko'rinmaydi.¹²²

Bundan tashqari, o'zbek tilida turli xil affikslarning ona terminiga qo'shilishi orqali ham yangi ma'nodagi so'zlar yasalishi mumkin. Bu xususida ozmuncha bo'lsa-da yuqorida fikr yuritdik (-xon, -jon, -gina, -jon+ginam, -lik kabi affikslar). Quyida to'xtalib o'tmaganlarimiz haqida so'z yuritsak: -yi+zor murakkab affiksi ona terminiga qo'shilib keladi va onaga nisbatan hurmat, unga achinish, bechora singari ma'nolarni anglatadi.

¹²² Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 19-20

—O'rtoq G'ulomov o'zi borib keldi. Eshitibdi-yu, dod solib yiqilibdi **onayizor...**

(S.Ahmad, "Ufq").

Onayizor emasmi, ustunni ushlagancha bir qo'lidagi yostig'ini ham tashlamay, bolasining tovushi kelayotgan tomonga qarab qoldi. (S.Ahmad).

O'zbek tilida ona termini ba'zi bir so'zlar bilan frazeologik birlikda turib, o'zining ona ma'nosidagi xususiyatlarini o'zgartirib, biror narsaning asli, tog'risi, haqiqati deganga o'xshash ma'nolarni ifodalab keladi. **Gapning onasi** birikmasi gapning po'skallasi, bo'lgan-turgani, haqiqati ma'nosida qo'llaniladi:

—Otangizga rahmat – tog'a! – dedi boshini qimirlatib Meli polvon. – **Gapning naq onasini** aytdingiz-qo'ydingiz. (S.Ahmad hikoyalaridan)¹²³

Shuningdek, biror narsaning asli, eng yuqorisi kabi ma'nolarni ham ifodalaydi:¹²⁴

— Qassoblik **hunarlarning onasi**. Qassoblik qilmoqchi bo'lgan odam avvalo bir qo'lini kundaga qo'yadi-yu, bolta bilan chopadi. Agar chopilmasa qassoblik qiladi. (Oila va jamiyat).

Yapon tilida ona so'zining ko'chma ma'noda biror bir narsani keltirib chiqaruvchi asos, manba, hodisaning tag ildizini bildiruvchi ma'nosi ham bor.

a) 必要は発明の母。¹²⁵

Hitsuyou va hatsume no **haha**.

Zaruriyat kashfiyotlar **asoschisi**.

b) 勤勉は成功の母なり。

Kinben va seiko no **haha** nari.

Tirishqoqlik omadning **onasi, asosi**.

c) 母なる大地。

¹²³ Ma'rufov Z.M. "O'zbek tilining izohli lug'ati" Moskva "Rus tili" nashriyoti 1981 y.

¹²⁴ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 26

¹²⁵ 藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社

Haha *naru daichi* .

Ona zamin.

Onaning yuqoridagi ma'nosi metoforik asosidagi ma'no ko'chishi bo'lib, biror narsani keltirib chiqruvchi sabab, omil yoki biron bir voqea-hodisaning sodir bo'lishiga turtki bo'luvchi narsa yoki biror shaxs ma'nosini anglatadi.¹²⁶O'zbek tiliga tarjima qilganda yuqoridagi ikki holatda a) va b)

O'zbek tilida ham chet tillaridan o'zlashgan ona bilan bog'liq turli xil iboralar mavjud bo'lib, bunday holat asl o'zbek tilida mavjud emas.

*Qaytarish bilimning **onasi**.* (rus tilidagi Повторение мать учение).

Yuqoridagi ibora rus tilidagi mashhur jumla hisoblanadi. O'zbek tiliga shu tarzda tarjima qilinadi va yapon tilidagidek biror narsaning asosi, manbasi tag ildizi ma'nolarini anglatadi.

II Bob bo'yicha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yapon tilida ham o'zbek tilida ham farzand tug'ib uni tarbiyalagan ayol kishiga nisbatan ishlatiluvchi ma'nosi uning bosh ma'nosi hisoblanar ekan. Bu terminning qo'llanilishida o'xshashliklar mavjud bo'lganidek, albatta farqli jihatlari ham talaygina. Yapon tilida qavm-qarindoshlik so'zlari o'z ma'nolarida ishlatilganda murojaat qilganda turli sinonimik birliklar qo'llaniladi, birgina so'zning bir necha sinonimlik qatori mavjud bo'lib, ular qo'llanilishida farqlanadi. O'zbek tilida ham xuddi shunday holat kuzatiladi ona, oyi, aya, ena , buvi kabi so'zlar asli bir ma'noni anglatsa-da, qo'llanilish o'rinlari turlicha. Lekin e'tibor berish kerakki, yapon tilida ona so'zining juda ko'p birliklari mavjud bo'lib har birining o'z qo'llanilish o'рни mavjud. Ya'ni bu so'zlarni birini ikkinchisi bilan almashtirib bo'lmaydi. 母— *haha* onaning bosh termini hisoblansada, murojaat qilinganda bu termin emas, お母さん—*okasan* termini qo'llaniladi. O'zbek tilida ona termini farzandni

¹²⁶並木孝 (1981) 「国語大辞典 (新装版)」言語研究所、小学館、p.1984

dunyoga keltirib tarbiyalagan inson sifatidagi bosh soʻz hisoblanadi va chaqirib murojaat qilganda ham qoʻllanilishi mumkin. Bu ikki tilda biroz farqli jihatlar mavjudligidan ayon beradi. Yapon tilida onani anglatuvchi お袋—おふくろ—

ofukuro—asosan erkaklar oʻzining onasini yaqin olib shu terminni qoʻllaydi va

farzandning yoshi nisbatan katta boʻlganda ishlatiladi. Lekin oʻzbek tilida ona terminini qoʻllashda erkak va ayol kishi qoʻllaydigan terminlarga ajratilmaydi, ona termini umumiy tarzda ishlatilaveradi, bundan tashqari yoshga nisbatan ham alohida terminlar qoʻllanilish holati kuzatilmaydi. Yapon tilidagi ママ—*mama*

gʻarb tillaridan oʻzlashgan soʻz boʻlib, rus tilidagi *mama* bilan bir xil, lekin oʻzbek tilida baʼzi ruslashgan oilalar qoʻllashini hisobga olmasak deyarli oʻzbek tilida bunday soʻz mavjud emas, bu termin oʻz ona maʼnosidan tashqari turli xildagi ovqatlanish joylari – kafe, bar, turli doʻkonlar, savdo shahobchalarining ayol boshqaruvchisiga nisbatan ham ishlatiladi. Oʻzbek tilida esa bunday holat kuzatilmaydi, yaʼni *doʻkonimizning onasi emas, doʻkonimizning boshqaruvchi ayoli tarzida* qoʻllaniladi. Yana bir katta tafovut ona terminini qoʻllashda yapon tilida hurmat kategoriyasining oʻrni katta, yani yapon tilida insonlarning psixologik uzoq-yaqinligiga qarab ona terminining qoʻllanilish vaziyatlari turlicha boʻladi. Bu degani yapon tilida oʻz onasi hamda oʻzganing onasi degan tushuncha mavjud boʻlib bu suhbatdoshiga nisbatan ona terminining boshqa shaklini qoʻllaydi, oʻz onasiga nisbatan umuman boshqa shaklli termin qoʻllaniladi. Suhabtdoshi oʻzidan uzoqroq boʻlgani sari hurmat kategoriyasi soʻzlari hamda qoʻshimchalari qoʻllanaveradi : お母様—*okasama*、母上—

hahaue、ご母堂—*gobodou*、母御—*hahago* kabi terminlar hurmatni

anglatuvchi terminlar boʻlib hurmat shakli soʻzlari bilan birga qoʻllaniladi. Oʻzbek tilida esa hurmat kategoriyasi, muloyimlik formasiga ega alohida terminlarning mavjud emasligi ona termini uchun ham hurmat shaklli soʻzlarning xilma-xil koʻrinishlari yoʻqligidan dalolat beradi. Oʻzbek tilida oʻta

hurmat shaklda *validai muhtaramangiz* tarzida yozma uslublarda beriladi. Lekin og'zaki uslubda asosan *sizning onangiz* tarzida qo'llaniladi.

Bulardan tashqari, turli xil birikmali onaning shakllarini yapon tilida kuzatish mumkin: 慈母—mehrobon ona, 賢母—aqlli ona, 愚母—ahmoq ona tarzidagi terminlar ham qo'llanilishi ayon bo'ldi. 慈母—mehrobon ona o'zbek tiliga *onalik mehri* tarzida –lik suffiksini qo'shilishi orqali ifodalanishi mumkinligi oydinlashdi.

Ona termini ikki tilda ham umum dialektial termin bo'lib, turli viloyat hamda perefekturalar uchun umumiy tushunarli termindir. O'zbek tilida ona hurmat yuzasidan begona ayollarga nisbatan ham onajon, aya, ayajon, ena tarzida qo'llanilishi mumkin. Bu o'sha shaxsga nisbatan o'zini yaqin tutish , hurmat bo'yoqlarini berar ekan.

Ona termini ikki tilda ham ko'chma ma'noda qo'llanilib, turli xildagi joy nomlari bilan kelib shu nomlarning o'ziga qanchalik yaqin, mehribon ekanligini, o'z onasidek tarbiyalovchi, voyaga yetkazuvchi sifatida uni o'ziga yaqin tutish ottenkalarini beradi: 母国 – *bokoku* – ona Vatan, 母語 – *bogo* – ona tili, 母校 – *bokou* – ona maktab, 母体 – *botai* – ona bag'ir kabilarni ko'rsatish mumkin.

Bu holat xuddi shu tarzda o'zbek tilida ham mavjuddir.

Ona so'zi yapon tilida ham ko'p ma'nolarda qo'llaniladi. Jumladan, biror hodisaning bosh sababini, ildizini, manbasini ko'rsatganda, *Zaruriyat kashfiyotlar onasi (asoschisi)* tarzida qo'llanilib, o'zbek tilida bunday vaziyatda ona termini emas, ko'proq *asos, boshi* kabi terminlar qo'llaniladi. Bu xususiyat yapon tiligagina xos bo'lgan o'ziga xoslikdir.

III BOB. O'ZBEK VA YAPON TILLARIDA “BOBO” VA “BUVI” ATAMALARINING LEKSIK, SEMANTIK, FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI TAHLILI

3.1. “Bobo” terminining leksik-semantik qo'llanuv xususiyatlari

Ushbu bobda o'zbek va yapon tillarida *bobo*, *buva*, *buvi* terminlari haqida so'z boradi. Ularning ma'no xususiyatlari ikki tilda solishtirilib, o'xshashliklari va farqli jihatlari o'rganib chiqiladi.

Avvalo tekshirish obyekti sifatida *bobo*, *buva* so'zlarini olamiz. Bu so'zlar bir-biriga sinonim bo'lib, bir xil ma'noda qo'llaniladi. Bobo termini turli xil ma'nolarda qo'llaniladi. Ma'rufovning izohli lug'atida quyidagicha berilgan:

1. **Bobo** – otaning yoki onaning otasi (nabiraga nisbatan) qo'llaniluvchi ma'nosi uning bosh ma'nosi sanaladi. Ya'ni nabira o'z otasining yoki onasining otasini bobo deb murojaat qiladi va begonalarga o'z otasining otasini nazarda tutib gapirganda shu terminni qo'llaydi:

*Yoshim oltmish to'rtga yetdi, o'g'lim – qizim bo'lmadi.. Darvoqe Otabek menga o'g'illik qilmasmi, xotini menga qiz bo'lmasmi, ularning bolalari meni **“bobo”** deb, ketimdan yurmasmikinlar? (A.Qodiriy, “O'tkan kunlar”).¹²⁷*

¹²⁷ Ma'rufov Z.M. “O'zbek tilining izohli lug'ati” Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981 y.

Buva so'zi ham xuddi shu ma'nodagi so'z bo'lib, hududlarga nisbatan ishlatilish o'rinlari har xil, ya'ni turli dialektlarda, shevalarga qarab yo buva yoki bobo qo'llanaveradi.

Buvasi ish qilsa, Zebi ko'maklashar, "Oh, oh, ermakkinam, dastyorginam!", - deb xursand bo'lardi **buvasi**. (S.Ahmad "Ufq").

Yapon tilidagi bobo 祖父—*sofu* termini to'g'ridan-to'g'ri qondoshlik rishtalari orqali bog'langan otasining otasi yoki onasining otasiga nisbatan qo'llaniluvchi termin hisoblanadi va bu bobo terminining bosh ma'nosidir. Yana ierogliflarning etimologiyasi haqidagi lug'atda¹²⁸祖父—*sofu* bobo terminiga quyidagicha ta'rif beriladi:

祖父—*sofu* ieroglifi ikki ieroglifning jamlangan, yig'ilganlikni anglatuvchi 且 (重なる—*kasamaru*) ieroglifi hamda ilohiylashtirish, sig'inish ma'nosini anglatuvchi - 祭 (祭られる—*matsurareru*) ierogliflarining qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan termin bo'lib, umumiy ravishda bu ieroglif 祖—*so* necha yillardan beri qadimiy odamlarda xudoga sig'inayotgan ajdodlari ma'nosini ifodalaydi.¹²⁹

Bu terminning ikkinchi ma'nosi inson yoki jonzotlarning yaralishida asos bo'lib xizmat qilib, ularning familiyasi, yashash joyini belgilab beruvchi ota-ona, qadimiy ajdod ma'nosidir. Yapon tilida ham bu termindan tashqari お祖父さん—*ojisan*、爺—*jiji* kabi bobo terminining sinonimlari mavjud bo'lib, bu

¹²⁸ 藤堂明保、鈴木一 (1972) 「例解学習漢字字典」第四版、小学館、p.692

¹²⁹ 藤堂明保、鈴木一 (1972) 「例解学習漢字字典」第四版、小学館、p.692

terminlar **祖父**—*sofuga* nisbatan yumshoqroq, bobosini o'ziga yanada yaqin olib gapirganda ishlatiladi.¹³⁰ Masalan:

祖父は八十歳になります。

Sofu va hachijyu sai ni narimasu.

Bobom 80 yoshga to'ladilar.

Yapon tilidagi 祖父 — *sofu* o'zining qavm-qarindoshlari haqida gapirganda ishlatiladi, lekin bobo deb chaqirib murojaat qilganda qo'llanilmaydi. O'zbek tilidagi bobo terminiga ko'proq to'g'ri keladi. Farqi shundaki, o'zbek tilidagi bobo termini ham qon-qarindoshi, otasining otasini anglatuvchi, shu munosabatni boshqalarga ko'rsatish uchun ishlatiluvchi termin, ham murojaat qilganda ham ishlatiladi. お祖父さん—*ojisanning* 祖父—*sofu* terminidan asosiy farqi - *ojisan* bobosini hurmat qilib, yaqin olib chaqirib murojaat qilganda qo'llaniladigan termin hisoblanadi.¹³¹ O'zbek tilidagi buva terminiga, bobo terminiga ham o'xshash ma'noda qo'llaniladi:

孫に囲まれて幸せそうなお祖父さん。

Mago ni kakomarete siavase souna **ojisani**.

Nabiralari atrofini o'rab olgan baxtli **bobo**.

お祖父さん入学祝いをもらった。¹³²

Ojisan ni nyugaku iwai o moratta.

Buvam kirish imtixonlaridan muvaffaqiyatli o'tganim bilan tabrikladilar.

祖父にかわいがれる。

¹³⁰ 林四郎、野元菊雄（2000）「例解 新国語辞典」第五版、三省堂、p.442

¹³¹ 「祖母、お祖母さんの意味的特長」 www.kazokukankeigaku.org/.../journal-info

¹³² 遠藤織枝、小林賢次「使い方の分かる「類語例解辞典」A dictionary of synonyms in japanese」小学館 1994年、p 353

Sofu ni kavaigareru.

Bobosi erkalatgan.

母方の祖父は昨年亡くなりました。

Hahakata no **sofu** va sakunen nakunarimasita.

Onam tomonidan **buvam** o'tgan yili vafot etganlar.

Yapon tilidagi お祖父さん—ojiisan terminining yanada muloyimroq, hurmat shakli 「お祖父様—ojiisama」 shakli hisoblanadi. Bu shaklda begonalarning bobosini hurmat qilib qo'llaniladi, muloyimlik shakli suffiksi 様—sama qo'shib keladi. Bundan tashqari, yapon tilida –ちゃん kichraytirish-erkalash qo'shimchasi mavjud bo'lib, お祖父—おじい—ojii so'ziga qo'shib お祖父ちゃん—ojiichyan deb talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.¹³³ Bu termin asosan yosh bolalar tomonidan qo'llanilib, ojiisan shaklidagi hurmatning kuchsizlangan shakli hisoblanadi. Ba'zi hollarda お祖父さん—ojiisan terminidagi hurmat old qo'shimchasi お—o tushib qoladi va 祖父さん—jiisan, jiji tarzida talaffuz qilinadi va bu holda ham kichraytirish-erkalash bo'yoqlarini beradi. Bu holat o'zbek tilidagi so'zga –jon affiksoidini qo'shish holati bilan bir xil deyish mumkin. –jon affiksoidi so'zga qo'shib shaxsni yaqin tutish, uni hurmat qilish, erkalash ottenkalarini ifodalaydi.¹³⁴

2. Faqat ko'plikda qo'llaniluvchi *bobolar* termini qadimda yashagan kishilar, ajdodlar ma'nosida qo'llaniluvchi so'zdir:

Bobolar... “dunyoning miri kam ikki!” – deganlar. (A.Qodiriy, “O'tkan kunlar”).

¹³³ Лаврентов Б.П. «Практическая грамматика японского языка» Москва «Живой язык» 2002 г стр.50

¹³⁴ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 20

Yapon tilida xuddi shunday ma'noda qo'llaniluvchi 曾祖父—そうそふ

—*sousofu* termini mavjud bo'lib, 祖父—*sofu* ieroglifi oldiga 曾—*sou* yoki *hi* tarzida o'qiluvchi ieroglifning qo'shilishi natijasida 曾祖父—*sousofu* ko'rinishiga ega, qadimda yashagan ulug' zotlar *bobolar*, *ajdodlar* ma'nosida qo'llaniluvchi bobolar termini vujudga kelgan. Bu termin yana 曾祖父—ひじじ—*hijiji* tarzida ham o'qilishi hamda qo'llanilishi mumkin.¹³⁵

曾祖父の代からの店。

Sousofu no dai kara no mise.

Bobolar davridagi do'kon.

Bundan tashqari, boboni anglatuvchi 祖- *so* ieroglifining o'zi ham, u bilan yana bir ieroglifning qo'shilishi natijasida vujudga kelgan 祖先—*so sen*—*ajdodlar* termini ham davrdan davrga o'tib kelayotgan *odamlar*, *bobolar*, *ajdodlar* ma'nosini ham anglatadi.¹³⁶

O'zbek tilida yana yapon tilidagi 曾祖父—そうそふ—*sousofu* bobolar, ajdodlar ma'nosiga to'g'ri keladigan termin bu — **bobokalon** terminidir. Bobokalon o'zbek tilida ko'p qo'llaniluvchi termin bo'lib, ikki xil ma'noda qo'llaniladi:

1) boboning otasi, katta bobo evaraga nisbatan ishlatiladi;

¹³⁵ 晋大野、正人 浜西1981年、「類語新辞典」角川書店

¹³⁶ 藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社 p.52

2) –lar ko'plik qo'shimchasini olgan holda *bobokalonlarimiz*¹³⁷ tarzida qo'llanilganda ota- bobolar , qadimda yashab o'tgan ulug' ajdodlar ma'nosini anglatadi:

Bobokalonlarimiz do'stlikni tiriklik suvi deganlar.(Xalq so'zi).

O'zbek tilidagi bobokalonlar termini yapon tilidagi 曾祖父 – そうそふ – *sousofu* bobolar、ajdodlar ma'nosi bilan bir xildir.

3. Hurmat yuzasidan qariyalar nomiga qo'shib ishlatiladi.¹³⁸ Boboning bu ma'nosida qondosh bo'lmagan, o'zining haqiqiy bobosi bo'lmasa-da, yoshi ancha qari, nuroniy begona kishiga nisbatan hurmat yuzasidan shu shaxsni o'ziga yaqin tutib shu terminni qo'llaydilar:

*Murod darrov turib, Xoji bilan so'rashdi va nazokat bilan unga joy ko'rsatdi. —Keling, **Xoji bobo!** Ko'rinmaysiz, kelmaysiz?(A.Qahhor, “Yillar”).*

Buva termini ham bobo terminidek xuddi shunday ma'noda qo'llaniladi:

*Taqsir, —dedi **Alim buva**, qovog'ini solib, - kulgan yaxshi-yu, lekin bilib kulgan yaxshi. (M.Ismoilov, “Farg'ona tong otguncha”).*

Yapon tilida ham おじいさん – *ojiisan* - *bobo* termini ham o'zbek tilidagidek begona, qondosh bo'lmagan qariyalarga nisbatan ham ishlatiladi va unda ko'pincha ojiisaning ieroglifi お爺さん shu tariqa beriladi.¹³⁹ Bundan ko'rinib turibdiki, o'zining qondosh bobosini va begona boboni ieroglifi orqaligina ajratib olishimiz mumkin, talaffuz, o'qilishi esa bir xil. O'zbek tilida yapon tilidagi boboning bu ma'nosiga o'xshash termin mavjud bo'lib, bu **boboy** terminidir. **Boboy** - o'zbek tilida bobo termini –y suffiksini qabul qiladi va *boboy* tarzida ko'pincha qo'llaniladi. Bu termin o'zining qon-qarindoshi

¹³⁷ Ma'rufov Z.M. “O'zbek tilining izohli lug'ati”Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981 y.

¹³⁸ Ma'rufov Z.M. “O'zbek tilining izohli lug'ati”Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981 y.

¹³⁹ フリー百科事典『ウィキペディア (Wikipedia) 』 (2012/02/26 09:20 UTC 版)

bo'lgan ota-onasining otasi ma'nosidan boshqa , umuman begona yoshi ulug' nuroniylarga nisbatan *qari kishi* , *chol* ma'nosida qo'llaniladi va yapon tilidagi お爺さん—おじいさん—*ojiisan* bilan bir xil termindir:

— *Ha, qari deb o'ylabmidingiz? – dedi Sablev, - qurilish changida ko'rgan kishi sizni ham 80 ga kirgan deb o'ylamaydi, “**boboy**” deydi. (Oydin, “ Mardlik – mangulik”).*

Boboyning *so'zlariga tosh ham eriydi. Siz odamsiz-ku! (Oybek, “Qutlug' qon”).*

Boboy termini yana qariyalarga murojaat shakli ham hisoblanib, chaqirib murojaat qilganda ishlatiladi:

Bardammisiz , boboy? (Oybek, “Qutlug' qon”).

4. Bobo termini yana aziz avliyolar nomiga qo'shib ishlatiladi. *Shayx Zayniddin bobo, Zangi bobo* kabi buyuk ulama-yu allomalarimizni ulug'lab, yaqin olib ular nomiga bobo termini qo'shib ishlatiladi.¹⁴⁰

5. Tariximizda Buxoroning katta dahalaridagi bosh mirshab unvoni shu bobo termini bilan yuritilgan.

6. Folklorshunoslikda bobo termini martabali, obro'li oqsoqol, ulug' otaxon ma'nolarida ham qo'llaniladi:

*Kambag'allar Tog'ayni **bobo** ko'targan edi. U kambag'allarga bosh bo'lib turgan edi. (“Rustamxon”).*

Yapon tilida boboning yuqoridagi 5, 6 bandagi boboning ma'noviy ko'rinishlari uchramaydi. Yapon tilida bundan boshqa ぞふ—*sofu-* bobo terminining biror harakatni boshlab bergan, unga asos solgan asoschi, yaratuvchi ma'nosi ham mavjud.¹⁴¹ Masalan, 開祖—*kaiso* – biror oqim, sekta, maktabning asoschisi, 元祖—*ganso* – avlodning boshi, avlodga asos solib, shu avlodni

¹⁴⁰ Ma'rufov Z.M. “O'zbek tilining izohli lug'ati” Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981 y.

¹⁴¹ 藤堂明保、鈴木一（1972）「例解学習漢字字典」第四版、小学館、p.692

boshlab bergan kishi, 教祖—*kuouso* – biror dinga asos solgan odam, 始祖—*shiso* – ajdodlar, avlodni boshlab bergan kishi、先祖—*senzo* – ajdodlar kabi terminlar aynan shu ma'noda qo'llaniluvchi so'zlar hisoblanadi.

Bulardan tashqari, 祖- so ieroglifi bir qator so'zlar bilan birikib kelib yangi ma'nodagi terminlarni yasashda ishtirok etadi:

祖国¹⁴²—*sokoku* – *bobo yurt* - insonning ajdodlari davridan beri yashab kelayotgan yurti, tug'ilib o'sgan zaminiga, millatlar bo'lingan ilk mamlakatga nisbatan qo'llaniluvchi termin:

自分の生まれた国祖国を愛する。

Jibun no umareta kuni sokoku o aisuru.

O'zining tug'ilgan zamini Bobo yurtini sevmiq.

O'zbek tilida o'z ona Vataniga nisbatan Bobo yurt deb qo'llash holatlari juda kam uchraydi, asosan Ona Vatan, Ona yurt, ba'zan Ota yurt kabi o'xshatishlar qo'llaniladi.

祖師—*soshi* – buddizmga ko'ra bitta diniy maktab, sekta ochgan, yaratgan odamga nisbatan shu termin qo'llaniladi:¹⁴³

禅宗の祖師は達磨大師だ。

Dzensyuu no soshi va Daruma Daisi da.

Dzen buddizmning diniy boshliq'i Daruma Daisidir.

祖先—*sosen* – *ajdodlar* bir uyni ko'tarib, unga eng birinchi toshni qo'ygan, shu uyni gullab-yashnashida asosiy rol o'ynagan eng birinchi shaxs:¹⁴⁴

¹⁴² 藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社

¹⁴³ 藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社

¹⁴⁴ 「祖先の使い方」<http://jca-library.jp/resource/kiyou/PDFfile/06-06.pdf>

祖先は平家の出だ。

Sosen va heike no deda.

Ajdodlar Tayra uyidan chiqqanlar.

Yana bir ma'nosi shu uyning avloddan avlodga o'tib kelayotgan odamlari ma'nosida ham qo'llaniluvchi termindir:

祖先を祭る。 Sosen o matsu. Ajdodlarni ilohiylashtirmoq.¹⁴⁵

Yapon tilidagi bu ma'noli so'z o'zbek tilidagi ko'plikda qo'llaniluvchi *bobolar* ma'nosi bilan bir xildir. Bobolar termini ham qadimda yashab o'tgan ajdodlar ma'nosida qo'llaniladi.

祖業—*sogyo* – **bobo kasb** ma'nosidagi so'z bo'lib, yapon tilidagi bu termin ajdodlar boshlab berib avloddan-avlodga o'tib kelayotgan kasb-kor qabul qilingan hunar, ish ma'nosini anglatuvchi termin. Yana bobolardan qolgan meros kasb, o'z kuchi bilan erkin sota oladigan dala, yer-maydon ma'nosida ham qo'llaniladi.¹⁴⁶ O'zbek tilida ham xuddi shu ma'noda qo'llaniluvchi ibora bu asosan *ota kasb*, *bobo kasb* iboralari bo'lib ota-bobolaridan qolgan kasb-hunar, ish ma'nosida qo'llaniluvchi ibora bo'lib, yapon tilidagi shu ma'nodagi termin bilan bir xildir.

O'zbek tilida bobo termini bilan birga yasaluvchi birliklar mavjud bo'lib ular quyidagi ma'nolarni bildiradi:

Bobo(yi) dehqon birikmasining 2 xil ma'nosi bor. Bular:

1) dehqonlarning piri, ustozini bobo dehqon deb atashadi:

Bobo dehqonlarimizning ulkan mehnatlari samarasi o'laroq bu yil xirmonimiz mo'l bo'ldi. ("Xalq so'zi" gazetasi).

2) dehqonchilik ishiga g'oyat usta odam, obro'li dehqon ma'nosida qo'llaniluvchi ibora.

¹⁴⁵ 藤堂明保、鈴木一（1972）「例解学習漢字字典」第四版、小学館、p.692

¹⁴⁶ 藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社、p.1088

Qorbobo birikmasida ham qor so'ziga bobo qarindoshlik terminining qo'shilishi natijasida yangi ma'nodagi so'z yasalgan. Ma'nolari quyidagicha:

1) qordan qilinadigan odam shaklidagi bolalar o'yini:

*Bolalar qish kelishi va qor yog'ishi bilan **qorbobo** yasashga tushadilar.*

2) archa bayramida qishning ramzi – oq po'stin va oq qalpoq kiygan kishi:¹⁴⁷

*Har yangi yilda bizning uyimizga **Qorbobo** mehmonga kelar va har birimizga sovg'a ulashardi.*

Bobotil— bobo termini hamda til so'zining qo'shilishi natijasida yangi ma'noda termin paydo bo'lgan. Bobotil - qiyosiy-tarixiy tekshirish yo'li bilan tiklanishi mumkin bo'lgan qadimiy til ma'nosini anglatuvchi termin hisoblanadi.

Yapon tilida ham bobotil termini mavjud bo'lib, u 祖語¹⁴⁸—*sogo* deb yuritiladi va uning ikki ma'nosi mavjud:

1. Yapon tilidagi 祖語—*sogo*—*bobotil* – ikki va undan ortiq tillarning kelib chiqish manbasi, bosh manbasi hisoblanadi.

2. Bir xil tillar guruhi, oilasining bir-birida qardosh tillarning, ishlatila oladigan eski, qadimiy ma'lumotlarga asoslanib kelib chiqish asosini, manbasini aniqlashda qaytadan o'rganiladigan tahminiy til. Til oilalari va guruhlarining boshlang'ich nuqtasi sanaladi.¹⁴⁹

3.2. O'zbek va yapon tillarida “buvi” atamasining leksik-semantik, funksional tahlili

Yuqorida bobo terminining o'zbek va yapon tillaridagi ma'noviy xususiyatlari haqida so'z yuritildi. Endi bibi, buvi termini haqida so'z yuritamiz. Ma'rufovning izohli lug'atida buvi va bibi bitta ma'nodagi so'z deb berilgan:

¹⁴⁷ Исмоилов И. Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 38

¹⁴⁸ 杉本つとむ、岩淵（1994）『日本語学辞典』おうふう

¹⁴⁹ 亀井孝、河野六郎、千野栄一（2011）「言語学大辞典第1巻世界言語学編（上）」三省堂、p.833

1. Bibi - o'zbek tilida onaning yoki otaning onasi; buvi nabiraga nisbatan ishlatiluvchi termin hisoblanadi:¹⁵⁰

Ey **bibim**, meni desangiz Chambilga bormang...dedi Oqqiz Zulfizarga. ("Zulfizar bilan Avazxon").

Yapon tilida ham otaning onasi yoki onaning onasi **祖母—sobo** hamda **お祖母**

さん—おばあさん—obaasan - **buvi** sanaladi. Lug'atlarda ushbu termin to'g'ridan—to'g'ri qondoshlik asosida ikki ota-onaning onasiga to'g'ri keluvchi o'rta yoshlardagi ayol kishi deb beriladi:¹⁵¹

私は祖母の三人目の孫です。

Watasi va **sobo** no sanhitome no mago desu.

Men **buvimning** uchinchi nabirasiman.

彼女の祖母は、彼女の手をなでて微笑みました。¹⁵²

Kanojyo no **sobo** va, kanojyono te o nadete bisyou mimasita.

Qizning **buvisi**, uning qo'llarini silab jilmayib qo'ydi.

祖母は目も耳も達者です。¹⁵³

Sobo va me mo mimi mo tassyas desu.

Buvimning ko'zlari ham, quloqlari ham soppa-sog'.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, yapon tilida ham bu termin ko'pincha nabira o'z buvisiga nisbatan ishlatar ekan va o'zbek tiliga *buvi* tarzida tarjima qilinadi.

O'zbek tilida *bibi* ma'nosida ishlatiluvchi yana bir nechta terminlar mavjud. Bular *buvi*, *momo*, *oyi*, *katta oyi*, *ena*, *aya* kabilar bo'lib, otasi yoki onasining onasi ma'nosini bildiruvchi so'zlar bo'lib, bir-biriga sinonimdir. Bu

¹⁵⁰ Ma'rufov Z.M. "O'zbek tilining izohli lug'ati" Moskva "Rus tili" nashriyoti 1981 y.

¹⁵¹ <http://dictionary.goo.ne.jp/leaf/thsrs/4533/m0u/>

¹⁵² 唯川恵 (1998) 「病む月『愛される女』」 集英社、p.180

¹⁵³ 晋大野、正人 浜西1981年、「類語新辞典」角川書店

so'zlar turli xil dialektlar, shevalarda turlicha tarzda ishlatiladi, ularning ishlatilishi hududlarga qarab farqlanadi. Ayniqsa buvi so'zi ko'pincha ota-onaning onasi ma'nosida ishlatiladi:

*Nabiralar xaltadagi qurut ekanini eshitib, kampirning oyog'i ostida o'rmalashdi va: "Menga bitta, **buvi!**", "Menga ancha bering **buvi!**"- deb qiy-chuv ko'tarishdi. (Oybek, "Qutlug' qon").*

*Ikkinchisi yetmishlardan o'tgan bir kampir, Oftob oyimning onasi **Oysha buvi**. (A. Qodiriy, "O'tkan kunlar").*

Yapon tilida 祖母 — sobo so'zidan tashqari buvi, bibi ma'nosini anglatuvchi bir nechta sinonimlar mavjuddir. Shulardan biri お祖母さん — obaasan, ばば — baba, 姥 — うば — uba¹⁵⁴ kabi so'zlaridir. Lekin ularning ma'nosi bir xil bo'lsa-da, ishlatilish o'rinlari har xil bo'lib, bir-biridan farqlanadi. 祖母 — sobo neytral shakldagi so'z bo'lib asosan o'zining qon-qarindoshlari haqida gapirganda buvisini ulardan farqlab ko'rsatganda ishlatiladi. お祖母さん — obaasan esa 祖母 — sobodan ko'ra buvini hurmat qilib, yanada yaqin olib ishlatilish shakli hisoblanadi va ular o'rtasidagi eng katta farq お祖母さん — obaasan buvisini chaqirib murojaat qilganda qo'llaniladi, 祖母 — sobo esa murojaat shakli emas, shuning uchun murojaat qilganda qo'llanilmaydi.¹⁵⁵

おばあさんの古稀(こき)を祝う。

Obaasan no koki o iwau.

Buvim 70 yoshlik yubileylarini nishonlaydilar.

¹⁵⁴ 風間喜代三、長谷川 (1992) 『言語学百科事典』 大修館書店

¹⁵⁵ <http://dictionary.goo.ne.jp/leaf/thsrs/4533/m0u/>

お祖母さん、葬式で、冷静さを失い泣かないでください。

Obaasan, *sousikide, reseisa o ushinai nakanaide kudasai.*

Buvijon, *ko'mish marosimida sovuqqonligingizni yo'qotib yig'lab yubormang iltimos.*

Obaasan terminini o'zbek tiliga tarjimasida **-jon** kichraytirish, erkalash ottenkalarini beruvchi, o'ziga yaqin olib murojaat qilganda qo'llaniluvchi¹⁵⁶ affiksoidni qo'shish maqsadga muvofiq, chunki bu yapon tilidagi obaasanning ma'nosiga tog'ri keladi.

Yapon tilidagi お祖母さん—*obaasan* – buvi ham o'zbek tilidagidek ota-onasining onasidan tashqari, erning ota-onasining onasi, xotinning ota-onasining onasi, er-xotinning buvisiga nisbatan ham ishlatiluvchi temin hisoblanadi.¹⁵⁷

Yapon tilidagi おばあさん—*obaasan* terminining yanada muloyimroq, hurmat shakli 「お祖母様—*obaasama*」 shakli hisoblanadi. Bu shaklda begonalarning buvisini hurmat qilib qo'llaniladi, muloyimlik shakli suffiksi 様—*sama* qo'shilib keladi. Bundan tashqari, yapon tilida –ちゃん kichraytirish-erkalash qo'shimchasi mavjud bo'lib, お祖母 – おばあ—*obaa* so'ziga qo'shilib お祖母ちゃん—*obaachyan* deb talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.¹⁵⁸ Bu termin asosan yosh bolalar tomonidan qo'llanilib, *obaasan* shaklidagi hurmatning kuchsizlangan shakli hisoblanadi. Ba'zi hollarda お祖母さん—*obaasan* terminidagi hurmat old qo'shimchasi お—*o* tushib qoladi va 祖母さ

¹⁵⁶ Исмоилов И. Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 20

¹⁵⁷ <http://endic.naver.jp/srch/all/N>

¹⁵⁸ Лаврентов Б.П. «Практическая грамматика японского языка» Москва «Живой язык» 2002 г стр.50

ん — *baasan*, *baba* tarzida talaffuz qilinadi va bu holda ham kichraytirish-erkalash bo'yoqlarini beradi. Bu holat o'zbek tilidagi so'zga — **jon** affiksoidini qo'shish holati bilan bir xil deyish mumkin. —jon affiksoidi so'zga qo'shilib shaxsni yaqin tutish, uni hurmat qilish, erkalash ottenkalarini ifodalaydi.¹⁵⁹

お祖母ちゃん、あさっての朝、海で祭りですから見に行きましょう。¹⁶⁰

Obaachyan, *asatte no asa, umi de matsuri desukara mini ikimasyou.*

Buvijon, *indinga ertalab, dengiz oldida bayram bo'layotgan ekan, ko'rishga bormaymizmi.*

2. Hurmat yuzasidan , odatda kekxa xotinlar ismiga qo'shilib ishlatiladi, *Mehri bibi, Hayri bibi.*

*Har kun qo'shnimiz **otin bibida** qiyomgacha o'qib, keyin to kechgacha, ko'pincha kechalari ham, ayamning yoniga kirib tikish tikdim. (Oybek, “Qutlug'qon”).*

Yapon tilida ham hurmat yuzasidan begona kekxa , nuroniy ayollarga nisbatan shu ayolni buvisidek yaqin olib お婆さん — *obaasan- buvi, momo* deb qo'llanilish vaziyatlari mavjud. Lekin yapon tilida *obaasan* termini o'z buvisiga ham, begona kekxa ayolga nisbatan ham ishlatiluvchi termin bo'lsa-da, ieroglifi orqali ularni bir-biridan farqlab olish mumkin. Ya'ni qondoshlik aloqasiga ega ota-onasining onasi ma'nosidagi buvi お祖母さん — *obaasan* kabi yoziladi, hurmat yuzasidan kekxa ayollarga nisbatan ishlatiluvchi buvi esa お婆さん — *obaasan* tarzida yoziladi. O'zbek tilida esa yozilishi ham o'qilishi ham bir xil, faqat gapdagi ma'nosiga qarab farqlanadi.

お婆さんに道を尋ねた。 **お婆さん**、おいくつですか。

Obaasan *ni michi o tadzuneta. **Obaasan** ,oikutsudesuka.*

¹⁵⁹ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. — Тошкент: Фан, 1966. — В. 20

¹⁶⁰ 曾野綾子 (1983) 『夫婦の情景』新潮社

Keksa **buvidan** yo'lni so'radim. – **Buvijon** yoshingiz nechada?

ばあさんたちが集まって茶飲み話をする。

Baasantachi ga atumatte chyanomi o suru.

Momolar yig'ilib olib, choy ichib gaplashib o'tirishadi.

Yapon tilidagi 『お婆さん』 - obaasan termini juda ko'p qo'llaniluvchi

so'z bo'lib, yoshi o'tgan, keksa kampirlarni chaqirib murojaat qilganda ishlatiladi.¹⁶¹ O'zbek tilida ham shunday ko'cha-kuyda, jamoat joylarida ayniqsa keksa ayollarga *momo*, *buvijon* deb murojaat qilish vaziyatlarini ko'p uchratish mumkin : —Kechirasiz, **buvijon** ro'molingiz tushib qoldi.

—*Rahmat, bolam umringdan baraka top.* (Oila va jamiyat)

3. Xotin-qizlar ismining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Masalan, *madrasai Bibixonim*, *Zaynabbibi* kabi so'zlar o'z ma'nosini yo'qotib hurmat ma'nosini kasb etuvchi qo'shimchaga aylanib ketadi.

Yo'lchi singlisi bilan birga mumkin bo'lsa, uning[Gulnorning]onasi

Gulsumbibini ham aravaga solib, qishloqqa olib borishni istaganini aytdi. (Oybek“Qutlug' qon”).

Bibi Seshanba – etnografiyada ip yigiruvchi xotinlarning muqaddas sanalgan afsonaviy homiysi, piri (taqvodor xotinlar uning sharafiga seshanba kunlari maxsus marosim o'tkazar edilar).¹⁶²

[Xoljon xola]har ikki haftada **Bibi Seshanba** onaning dasturxonini yozib, “mushkulkushod”, chiltonlarga atab shovla qiladi. (G'ayraty, “Dovdirash”).

Yapon tilida “buvi” so'zining yuqoridagi ma'noda qo'llanilish holatlari mavjud emas.

¹⁶¹ 「お婆さんの使い方」 <http://dictionary.goo.ne.jp/leaf/thsrs/4533/m0u/>

¹⁶² Ma'rufov Z.M. “O'zbek tilining izohli lug'ati”Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981 y.

III Bob bo'yicha xulosalar

Shunday qilib, “bobo” va “buvi” terminlari juda ham keng doirada qo'llanilishini kuzatdik. O'zbek va yapon tillarida bu terminlarni ishlatilishida o'xshashliklar talaygina. Shu bilan birga farqli jihatlari ham yo'q emas. “Bobo” va “buvi” terminlarini tekshirish orqali quyidagi xulosalarga kelindi :

1. **Bobo, 祖父—sofu** – ikki tilda ham otaning yoki onaning otasi ya'ni nabira o'z ota-onasining otasini bobo deb murojaat qiladi va begonalarga o'z otasining otasini nazarda tutib gapirganda shu terminni qo'llaydi.

2. Yapon tilidagi 祖父—sofu o'zining qavm-qarindoshlari haqida gapirganda ishlatiladi, lekin bobo deb chaqirib murojaat qilganda qo'llanilmaydi. O'zbek tilidagi bobo terminiga ko'proq to'g'ri keladi. Farqi shundaki, o'zbek tilidagi bobo termini ham qon-qarindoshi, otasining otasini anglatuvchi, shu munosabatni boshqalarga ko'rsatish uchun ishlatiluvchi termin, ham murojaat qilganda ham ishlatiladi. Yapon tilida murojaat qilganda お祖父さん—*ojisan* termini qo'llaniladi, *ojisan* bobosini hurmat qilib, yaqin olib chaqirib murojaat qilganda qo'llaniladigan termin hisoblanadi.

3. Yapon tilida –ちゃん kichraytirish-erkalash qo'shimchasi mavjud bo'lib, お祖父—おじい—*ojii* so'ziga qo'shilib お祖父ちゃん—*ojiichyan* deb talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.¹⁶³ Bu termin asosan yosh bolalar tomonidan

¹⁶³ Лаврентов Б.П. «Практическая грамматика японского языка» Москва «Живой язык» 2002 г стр.50

qo'llanilib, ba'zi hollarda お祖父さん—ojiisan terminidagi hurmat old qo'shimchasi お—o tushib qoladi va 祖父さん—jiisan, jiji tarzida talaffuz qilinadi va bu holda ham kichraytirish-erkalash bo'yoqlarini beradi. Bu holat o'zbek tilidagi so'zga – jon affiksoidini qo'shish holati bilan bir xil deyish mumkin. –jon affiksoidi so'zga qo'shilib shaxsni yaqin tutish, uni hurmat qilish, erkalash bo'yoqlarini ifodalaydi.

4. yapon tilida ham o'zbek tilidagidek bobolar- o'tgan ajdodlar ma'nosidagi so'z bo'lib, u 曾祖父—そうそふ—sousofu、祖先—sosen kabi terminlar bo'lib, ular o'zbek tilidagi bobokalon terminiga ham to'g'ri keladi.

5. Ikki tilda ham begona qariyalarga nisbatan bobo - お爺さん—ojiisan termini qo'llaniladi.

6. Yapon tilida そふ—sofu- bobo terminining biror harakatni boshlab bergan, unga asos solgan asoschi, yaratuvchi ma'nosi ham mavjud. O'zbek tilida boboning bunday ma'nosi mavjud emas.

7. Yapon tilida 祖国¹⁶⁴—sokoku – bobo yurt, 祖語—sogo-bobotil terminlari mavjud bo'lib, o'zbek tilida ham bunday termin qo'llaniladi.

8. Buvi – お祖母さん-obaasan ikki tilda ham ota-onasining onasi ma'nosidagi so'z bo'lib, begona keksa ayollarga nisbatan ham ikki tilda qo'llaniladi. Faqat yapon tilida ularni ieroglifi orqali ajratib olish mumkin.

9. O'zbek tilida bibi o'z ma'nosini yo'qotib xotin-qizlar ismining tarkibiy qismiga aylanib ketadi. Yapon tilida bunday holat kuzatilmaydi.

10. Obaasan terminini o'zbek tiliga tarjimasida **-jon** kichraytirish, erkalash ottenkalarini beruvchi , o'ziga yaqin olib murojaat qilganda qo'llaniluvchi¹⁶⁵

¹⁶⁴ 藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社

¹⁶⁵ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 20

suffiksni qo'shish maqsadga muvofiq, chunki bu yapon tilidagi obaasanning ma'nosiga tog'ri keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bobo terminining qo'llanilish doirasi va ma'noviy ko'rinishlari buvi terminiga nisbatan kengroq. Bu terminlarning qo'llanilishi ikki xalqning madaniy dunyoqarashi, shart-sharoitlari va an'analari bilan uzviy bog'liqdir.

UMUMIY XULOSALAR

O'zbek va yapon tillarida qarindosh-urug'chilik so'zlarini (ota, ona, bobo, buvi) qiyosiy tadqiq qilinganda quyidagilar oydinlashdi:

O'zbek va yapon tillarida qarindosh-urug'chilik so'zlarining qo'llanilishida o'xshashliklar bilan bir qatorda farqli jihatlar ham talaygina. Jumladan, yapon tilida qarindoshchilik terminlarini qo'llaganda o'z va o'zga munosabati o'rnatilgan bo'lib, bu insonlarning bir-biriga psixologik yaqin-uzoqligiga qarab shu shaxsga nisbatan muloqot shakllari ham o'zgarib borishidan dalolat beradi. So'zlovchi o'z oilasiga nisbatan hurmat kategoriyasi so'zlari va shakllarini qo'llamaydi, suhbatdoshining qarindoshlari haqida fikr bildirganda ularga albatta hurmat kategoriyasi so'zlari qo'llaniladi va bu qarindoshchilik so'zlarining shaklini o'zgarishiga yoki butunlay boshqa hurmat kategoriyali termin qo'llanilishiga olib keladi. Yapon xalqi o'ta sermulozamat xalq hisoblanadi, shuning uchun yapon jamiyatida o'zgalarga nisbatan alohida hurmat kategoriyali terminlarning qo'llanmasligi katta qo'pollik sanaladi. Bu esa o'z navbatida lug'at

tarkibidagi qarindosh-urug'chilik terminlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zbek tilida esa bunday holat kuzatilmaydi. O'zbek tilida o'zgalarni hurmat qilib -ngiz, -giz, -lari kabi qo'shimchalarning qo'shilishi bilangina hurmat ma'nosi beriladi. O'zbek tilida hurmat ma'nosini beruvchi leksik, morfologik birliklar mavjud, yapon tilida esa alohida bir hurmat terminlari guruhining mavjudligi ikki tilning eng katta farqi ekanligi ushbu tadqiqotda oydinlashdi.

Ota, ona, bobo, buvi terminlarining leksik, semantik, funksional tadqiqi natijasida quyidagi xulosaga kelindi.

1. Ikki tilda ham ota farzandli erkak kishiga nisbatan ishlatilib bolaning otaga, xotinning erga murojaat shakllari aynan o'xshash bo'lib chiqdi. Buning sababini ikki xalqning madaniy mintalitetida ham erkakning oilada asos, tayanch vazifasini o'tashligi bilan izohlash mumkin.

2. O'z otasiga alohida so'z, begonaning otasiga alohida olingan otaning o'zgacha shaklining qo'llanilishi o'zbek va yapon tillaridagi eng katta tafovut desak mubolag'a bo'lmaydi.

3. Ota termini ko'chma ma'noda biror harakatni boshlab bergan, unga asos solgan kishi haqida, mehribon boshliq, rahnamo haqida gapirilganda yapon tilida ham o'zbek tilida ham ~ *otasi* tarzida qo'llaniladi. El-yurtga boshchilik qiluvchi yoshi yoki mansabi ulug' zot hamda boshqa davlatlardan mustaqil bo'lishda hal qiluvchi rol o'ynagan odam haqida gapirilganda ota terminining ikki tilda ham qo'llanilishi lingvistik nuqtai-nazardan o'xshashliklar talaygina ekanligining ifodasidir.

4. **Nur**, **Zangi** kabi so'zlar **ota** so'ziga qo'shib o'z ma'nosini yo'qotib muqaddas joy nomlarini anglatadi va Nurota, Zangiota, Avliyo ota kabi qo'llaniladi. Bu faqat o'zbek tili uchun xosdir. Yapon tilida bu holat kuzatilmasligi aniqlandi.

5.Yapon tilida qavm-qarindoshlik soʻzlari oʻz maʼnolarida ishlatilganda murojaat qilganda turli sinonimik birliklar qoʻllaniladi, birgina soʻzning bir necha sinonimlik qatori mavjud boʻlib, ular qoʻllanilishida farqlanadi. Oʻzbek tilida ham xuddi shunday holat kuzatiladi ona, oyi, aya, ena , buvi kabi soʻzlar asli bir maʼnoni anglatga-da, qoʻllanilish oʻrinlari turlicha ekanligi oydinlashdi. Yaʼni bu soʻzlarni birini ikkinchisi bilan almashtirib boʻlmaydi. 母—*haha* onaning bosh termini hisoblansada, murojaat qilinganda bu termin emas, お母さん—*okasan* termini qoʻllaniladi. Oʻzbek tilida ona termini bosh soʻz hisoblanadi va chaqirib murojaat qilganda ham qoʻllanilishi mumkin. Bu ikki tilda biroz farqli jihatlar mavjudligidan ayon beradi.

6.Yapon tilida onani anglatuvchi お袋—おふくろ—*ofukuro*—asosan erkaklar oʻzining onasini yaqin olib shu terminni qoʻllaydi va farzandning yoshi nisbatan katta boʻlganda ishlatiladi. Lekin oʻzbek tilida ona terminini qoʻllashda erkak va ayol kishi qoʻllaydigan terminlarga ajratilmaydi, ona termini umumiy tarzda ishlatilaveradi.

7.Yapon tilidagi ママ—*mama* gʻarb tillaridan oʻzlashgan soʻz boʻlib, oʻz ona maʼnosidan tashqari turli xildagi ovqatlanish joylari – kafe, bar, turli doʻkonlar, savdo shahobchalarining ayol boshqaruvchisiga nisbatan ham ishlatiladi. Oʻzbek tilida esa bunday holat kuzatilmaydi, yaʼni *doʻkonimizning onasi emas, doʻkonimizning boshqaruvchi ayoli tarzida* qoʻllaniladi.

8.Yapon tilida suhabatdoshi oʻzidan uzoqroq boʻlgani sari hurmat kategoriyasi soʻzlari hamda qoʻshimchalari qoʻllanaveradi : お母様—*okasama*、母上—*hahaue*、ご母堂—*gobodou*、母御—*hahago* kabi. Oʻzbek tilida esa hurmat kategoriyasi, muloyimlik formasiga ega alohida terminlarning mavjud

emasligi, ya'ni hurmat shakllari leksik va morfologik birliklar ona terminiga hurmat ma'nosini berishi katta tafovut dalolat beradi.

9. Ona termini ikki tilda ham ko'chma ma'noda qo'llanilib, turli xildagi joy nomlari bilan kelib shu nomlarning o'ziga qanchalik yaqin, mehribon ekanligini, o'z onasidek voyaga yetkazuvchi sifatida uni o'ziga yaqin tutish bo'yoqlarini beradi: 母国 – bokoku – ona Vatan, 母語 – bogo – ona tili, 母校 – bokou – ona maktab, 母体 – botai – ona bag'ir kabilarni ko'rsatish mumkin. Bu holat xuddi shu tarzda o'zbek tilida ham mavjuddir.

10. Yapon tilida biror hodisaning bosh sababini, ildizini, manbasini ko'rsatganda, Zaruriyat kashfiyotlar onasi (asoschisi) tarzida qo'llanilib, o'zbek tilida bunday vaziyatda ona termini emas, ko'proq asos, boshi kabi terminlar qo'llaniladi. Bu xususiyat yapon tiligagina xos bo'lgan o'ziga xoslikdir.

11. **Bobo, 祖父—sofu** – ikki tilda ham nabira o'z ota-onasining otasini bobo deb murojaat qilganda qo'llanadi. Yapon tilidagi 祖父—sofu o'zining qavm-qarindoshlari haqida gapirganda ishlatiladi, lekin bobo deb chaqirib murojaat qilganda qo'llanilmasligi oydinlashdi. O'zbek tilidagi bobo termini ham qon-qarindoshi, otasining otasini anglatuvchi, shu munosabatni boshqalarga ko'rsatish uchun ishlatiluvchi termin, ham murojaat qilganda ham ishlatiladi. Yapon tilida murojaat qilganda お祖父さん—ojisan termini qo'llaniladi.

12. Yapon tilida –ちゃん kichraytirish-erkalash qo'shimchasi mavjud bo'lib, お祖父—おじい—ojii so'ziga qo'shilib お祖父ちゃん—ojiichyan deb talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.¹⁶⁶ Bu termin asosan yosh bolalar tomonidan qo'llanilib, kichraytirish-erkalash bo'yoqlarini beradi. Bu holat

¹⁶⁶ Лаврентов Б.П. «Практическая грамматика японского языка» Москва «Живой язык» 2002 г стр.50

o'zbek tilidagi so'zga – jon affiksoidini qo'shish holati bilan bir xil deyish mumkin.

13.Yapon tilida ham o'zbek tilidagidek bobolar- o'tgan ajdodlar ma'nosidagi so'z bo'lib, u 曾祖父 – そうそふ – *sousofu*、祖先 – *sosen* kabi terminlar bo'lib, ular o'zbek tilidagi bobokalon terminiga ham to'g'ri keladi. Ikki tilda ham begona qariyalarga nisbatan bobo - お爺さん – *ojiisan* termini qo'llaniladi.

14.Yapon tilida そふ – *sofu* - bobo terminining biror harakatni boshlab bergan, unga asos solgan asoschi, yaratuvchi ma'nosi ham mavjud. O'zbek tilida boboning bunday ma'nosi mavjud emas. Yapon tilida 祖国¹⁶⁷ – *sokoku* – *bobo yurt*, 祖語 – *sogo-bobotil* terminlari mavjud bo'lib, o'zbek tilida ham bunday termin qo'llaniladi.

15.Buvi – お祖母さん – *obaasan* ikki tilda ham ota-onasining onasi ma'nosidagi so'z bo'lib, begona keksa ayollarga nisbatan ham ikki tilda qo'llaniladi. Faqat yapon tilida ularni ieroglifi orqali ajratib olish mumkin. *Obaasan* terminini o'zbek tiliga tarjimasida **-jon** kichraytirish, erkalash bo'yoqlarini beruvchi, o'ziga yaqin olib murojaat qilganda qo'llaniluvchi affiksoidini qo'shish maqsadga muvofiq, chunki bu yapon tilidagi お婆さん *obaasanning* ma'nosiga tog'ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari:

¹⁶⁷ 藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社

- 1.1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Vaseda Universitetida so'zlagan nutqi (Yaponiya,Tokio), Xalq so'zi gazetasi 2002-yil 30-iyul.
- 1.2.Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, 08.12.2011
- 1.3.Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" T.: "O'zbekiston" 2008
- 1.4. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari" T.: O'zbekiston 1997
- 1.5. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" T.: O'zbekiston 1995
- 1.6.Karimov I.A. "Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". — T.: «O'zbekiston», 1997.
- 1.7.Karimov I.A. "Ma'naviy yuksalish yo'lida". — T., O'zbekiston, 1998.
- 1.8.Karimov I.A. "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari". — T., «O'zbekiston; 1995.
- 1.9.Karimov I.A. "O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura". T. «O'zbekiston», 1-tom, 1996.
- 1.10. Karimov I.A. "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin". T., «O'zbekiston». 1996.

II. O'zbek tilidagi adabiyotlar:

- 2.1.Mutallibov S.M. "Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk" Toshkent, 1959
- 2.2.Hamroev M.A "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi" Toshkent-2004.
- 2.3.Xolmirzaeva N "Yapon tili" 初級用 Toshkent, Zar qalam. 2005.
- 2.4.Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари.(ўзбек, қозоқ, қирғиз, туркман, уйғур тиллари мисолида)— Тошкент: Фан, 1966.

- 2.5.Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш., Ҳозирги ўзбек адабий тили, Тошкент,1965, 114-бет.
- 2.6.Mirzayev T.,Musoqulov A.,Sarimsoqov B., “O’zbek xalq maqollari” T.: “Sharq” 2012.
- 2.7.Ma’rufov Z.M. “O’zbek tilining izohli lug’ati” I tom , 1981-yil.
- 2.8.« Узбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат» Тошкент, УзФА нашриёти , 1953.
- 2.9.Абдурахмонов Ғ. (1954) Русча-узбекча луғат (Москва)
- 2.10.Sherov S.X “Yapon tili grammatikasi” Fan va texnologiya 2009.

III. Yapon tilidagi adabiyotlar:

- 3.1.大野木裕命、杉村伸一郎、田中俊也「親族関係の心理学的認知に関する探索研究」1991 年
- 3.2.平野敏政「親族関係の分析視点」、東京大学出版会 1974 年
- 3.3.草田寿子*1・山田裕紀子(1998)「家族関係単純図式投影法の基礎的研究VI夫婦間の心理的距離に対する認知のズレと家族コミュニケーションとの関連」『人間科学研究』文教大学人間科学部 第 20 号
- 3.4.遠藤織枝、小林賢次(1994)「使い方の分かる「類語例解辞典」A dictionary of synonyms in japanese」小学館
- 3.5.晋大野、正人浜西 1981 年、「類語新辞典」角川書店
- 3.6. ジェンダー・タイプと家族イメージに関する研究(PDF)
- 3.7.川宗賢、宮島達夫(1972)「類義語辞典」東京堂出版
- 3.8.曾野綾子（1983）『夫婦の情景』新潮社

- 3.9.**藤堂明保、松本昭（2002）「改訂新版漢字源」名付に使える常用漢字・人名漢字辞書、学習研究社
- 3.10.**尾形和男（2007）「家族システムにおける父親の役割にかんする研究」風間書房
- 3.11.**平野敏政「親族関係の分析視点」哲学第63集、1974年、
- 3.12.**岩上真美、田淵轡轡「高齢期の新しいつながりの模索：ーグローバル化、個人化と家族ー」2003.
- 3.13.**新村出（1998）「広辞苑」第五版、岩波書店
- 3.14.**並木孝（1981）「国語大辞典（新装版）」言語研究所、小学館、
- 3.15.**唯川恵（1998）「病む月『愛される女』」集英社、
- 3.16.**林四郎、野元菊雄（2000）「例解 新国語辞典」第五版、三省堂、
- 3.17.**林道義著『母性の復権』（『中公新書』）中央公論新社、1999 年
- 3.18.**船橋恵子、堤マサエ著『母性の社会学』（『女性社会学者による新社会学叢書』2）、サイエンス社、1992 年 3 月
- 3.19.**愛知大学中日大辞典編纂処（編）、中日大辞典 増訂第 2 版、大修館書店、1987、
- 3.20.**風間喜代三、長谷川（1992）『言語学百科事典』大修館書店
- 3.21.**藤堂明保、鈴木一（1972）「例解学習漢字字典」第四版、小学館、
- 3.22.**在日朝鮮人 2 世である徐京植は、「在日朝鮮人 2 世として日本で生まれ育った私にとって、母語は日本語である。朝鮮語は私の母国語であるが、母語ではな

い。」と述べている。[徐京植「母語と母国語の相克 \(PDF\)」](#)、『人文自然科学論集』2008 年

3.23.並木孝（1981）「国語大辞典（新装版）」言語研究所、小学館、

3.24.林四郎、野元菊雄（2000）「例解 新国語辞典」第五版、三省堂、

3.25.杉本つとむ、岩淵（1994）『日本語学辞典』おうふう

3.26.亀井孝、河野六郎、千野栄一（2011）「言語学大辞典第 1 巻世界言語学編（上）」三省堂、

3.27.舩橋恵子、堤マサエ著『母性の社会学』（『女性社会学者による新社会学叢書』サイエンス社、1992 年 3 月

3.28.中島和子（2003 年）“問題提起「JHL の枠組みと課題－JSL/JFL とどう違うか」”。母語・継承語・バイリンガル教育研究会.2012 年

3.29.李和貞（2006）「青年の父・母へのアタッチメント表象と自尊感情の関係」早稲田大学教育学部学術研究（教育心理学編）

3.30.李和貞（2002）「子どもの社会情緒的の発達と父・母の養育態度に関する研究」日本理論心理学研究 4,

3.31.寺島浩子(1995)「京都町家における親族語彙」「日本語研究」株式会社明治書院

3.32.中村明、芳賀やすし(2005)「類語新辞典」 株式会社三省堂

3.33.柴田武、山田進(2002)「類語大辞典」 講談社

3.34.信義志田、裕子本田（1909）「日本類語大辞典」講談社

3.35.「日本語の習得研究」（1987）株式会社、凡人社、くろしお出版

IV. Rus tilidagi adabiyotlar

- 4.1.**Алпатов В. М 1988–2003 – Япония: язык и общество. М.: Наука, 1988. 2-е изд. М.: Муравей, 2003.
- 4.2.**Алпатов В. М. 1990 –О сопоставительном изучении лингвистических традиций (к постановке проблемы) // Вопросы языкознания. 1990
- 4.3.**Алпатов В. М. 1998 –История лингвистических учений. М.: Языки русской культуры, 1998.
- 4.4.**Подлесская В. И. Теоретическая грамматика японского языка. М.: Наталис, 2008.
- 4.5.**Конрад . Н. И. БЯРС – Большой японско-русский словарь / Т. 1–2. М.: энциклопедия, 1970.
- 4.6.**Степанова Ольга Александровна -Японская семья в контексте трансформации массовой культуры Японии в начале ХХІ века- М.: изд. МПГУ «Прометей». - 2007.
- 4.7.**Гумбольдт В. 1984 –*фон*. Избранные труды по языкознанию. М.: Наука, 1984.
- 4.8.**Молодякова Э. В., Маркарян С. Б. 1996 –Японское общество: книга перемен. М.: ИВЛ, 1996.
- 4.9.**Неверов С. В. 1982 - Общественно-языковая практика современной Японии. М.: Наука, 1982.
- 4.10.**Лаврентов Б.П. «Практическая грамматика японского языка» Москва «Живой язык» 2002.
- 4.11.**Фудзинума Такаси Японско-русский словарь изд-ва <<Кэнкюся>>. (Ок. 50 тыс. слов.)Токио: Кэнкюся, 2000.
- 4.12.**Лавровский Р, “Коренное значение в названиях родства у славян”Зап.ИАН,1867.
- 4.13.**Дыренкова Н.П. “Брак термини родства и психические запреты у киргизов” сб. Этнографических материалов, под. Ред. проф. Богораза-тана, №2, Л., 1927.

- 4.14. Задыхина К.Л., Узбеки дельты Аму-Дарьи см. труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции;
- 4.15. Покровская Л.А., Термины родства в тюркских языках. М., изд. АН 1961.
- 4.16. Бурнашева С.А. Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков, IV, лексике, М., 1962.
- 4.17. Уринбаев Б., Категория вокативности в современном узбекском языке, Автореферат канд. дисс., Самарканд, 1964
- 4.18. Гулямов А.Г, словообразование путем внутренних изменений слова в узбекском языке, изд. АН Уз, 1947,
- 4.19. Боровков А.К, “Узбекские говоры Наманганской области”, Научные труды ТашГУ, вып. 211, Языкознание, Ташкент, 1963
- 4.20. Алпатов 1976 –О соотношении исконных и заимствованных элементов в системе японского языка // Вопросы языкознания. 1976, № 6.
- 4.21. Мещеряков А. Н. Древняя Япония: культура и текст. М.: Наука, 1991.
- 4.22. Лаврентов Б.П. Японско-русский и русско-японский словарь Москва «Дрофа» 2004.


V. Internet tarmoqlari

- 5.1. NINJAL-LWP for BCCWJ(国立国語研究所) <http://nlb.ninjal.ac.jp>
- 5.2. <http://ja.wikipedia.org/wiki/>
- 5.3. www.hemri21.jp/kenkyusyo/.../h17_01.pdf
- 5.4. ジェンダー・タイプと家族イメージに関する研究(PDF)
- 5.5. www.bunkyo.ac.jp/faculty/lib/.../h2013.pdf –
- 5.6. ウェブ版 AFLANG 年報 - テンボ語の親族名称
- 5.7. daigakuin.soka.ac.jp/.../23_kyoiku2.pdf
- 5.8. <http://www.37c.com.cn/literature/library/theory/105/1050702.html>
- 5.9. <http://jca-library.jp/resource/kiyou/PDFfile/06-06.pdf>
- 5.10. www.kazokukankeigaku.org/.../journal-info



- 5.11. <http://www.37c.com.cn/literature/library/theory/105/1050702.html>
- 5.12. <http://dspace.wul.waseda.ac.jp/dspace/bitstream/2065/5469/1/kyoikushinrip35-45lee.pdf>
- 5.13. sucra.saitama-u.ac.jp/.../download.php?file
- 5.14. フリー百科事典『ウィキペディア（Wikipedia）』（UTC 版）
- 5.15. <http://jca-library.jp/resource/kiyou/PDFfile/06-06.pdf>
- 5.16. <http://dictionary.goo.ne.jp/leaf/thsrs/4533/m0u/>
- 5.17. Uza.uz/uz/society/19947/


ILOVA

Yapon xalqida qarindosh-urug'chilik shajarasi



Ona so'zining ikki tilda ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi qiyosi





Magistratura bo'limi
boshlig'i:

f.f.n. Saydazimova U.T